

O'zbekistonda professional ta'lim

Профессиональное образование в Узбекистане
Vocational education in Uzbekistan



www.profedu-jurnal.uz

1-son
2025 - yil

ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy
jurnal

Farzandlari bilimli, iste'dodli, o'zining kuchi
va salohiyatiga ishonib, doimo oldinga intilib yashaydigan
xalq va davlatning istiqboli, albatta, yorug' bo'ladi.
Biz O'zbekiston yoshlarini ana shunday ezgu fazilatlar
sohiblari etib tarbiyalash uchun bundan buyon ham bor
kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

SHAVKAT MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



ПРОБЛЕМЫ ПОДГОТОВКИ МОБИЛЬНЫХ И КОНКУРЕНТОСПОСОБНЫХ КАДРОВ

Джураев Рисбай Хайдарович,

Заведующий отделом «Менеджмент образования» Национального института педагогики воспитания имени Кари Ниязи, доктор педагогических наук, академик

Аннотация: В статье рассматриваются основные тенденции подготовки конкурентоспособных и мобильных кадров в образовании. Особое внимание уделяется факторам оказывающим непосредственное влияние на качество подготовки в современных социально-экономических условиях. В работе представлены результаты сравнительно-педагогического исследования.

Ключевые слова: качество подготовки, конкурентоспособный специалист, международная академическая мобильность.

Annotatsiya: Maqolada ta'lim sohasida raqobatbardosh va mobil kadrlar tayyorlashning asosiy tendensiyalari ko'rib chiqiladi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda o'qitish sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ushbu maqolada qiyosiy pedagogik tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'qitish sifati, raqobatbardosh mutaxassis, xalqaro akademik harakatchanlik.

Annotation: The article considers the principal trends of training of competitive and mobile personnel in national and foreign education. The special attention is paid to the factors, having direct impact on the quality of training under modern social and economic conditions. The work describes the results of the comparative and educational study.

Key words: quality of training, competitive professional, international academic mobility.

В настоящее время немаловажным является обмен опытом по вопросам подготовки кадров в современных социально-экономических условиях и развития международного академического сотрудничества.

В мировом образовательном пространстве выделяется новое направление — «международная академическая мобильность», которое отражает результаты интеграционных процессов в образовании ведущих регионов мира. При подготовке конкурентоспособных кадров нельзя обойтись без мобильных характеристик выпускников современных вузов. ЮНЕСКО и другие международные организации, принимающие участие в решении проблем образования, уделяют большое внимание повышению уровня и престижа международного академического со-

трудничества экспертных сообществ, что находит понимание в образовательной политике различных стран.

Необходимость изменений в сфере образования продиктована не только сменой приоритетов в самом образовании, но и новыми потребностями общества в эффективном функционировании высококвалифицированных специалистов, способных к преобразующей, творческой деятельности.

Высшая школа ориентируется в своем развитии на качественную подготовку выпускников, показателями которой являются:

- 1) количество времени, необходимое выпускнику вуза для адаптации на рабочем месте в соответствии со своей специальностью;
- 2) количество «родственных» специаль-

ностей, по которым выпускник может работать без значительных затрат времени и сил на их освоение.

Развитие новых информационных технологий, обеспечивающее доступность к межкультурному общению, интернационализация образования, увеличивающиеся темпы академической и профессиональной мобильности актуализируют необходимость рассмотрения проблемы подготовки конкурентоспособных кадров в общемировом контексте. Общая цель международного высшего образования — создавать и совершенствовать такие условия, при которых учеба наиболее полезна для студента и адекватна его потребностям.

Если рассматривать международную академическую мобильность как актуальную цель интеграции узбекских вузов в мировое образовательное пространство, то для ее реализации следует изучить зарубежный опыт подготовки конкурентоспособных специалистов.

Исследование конкурентоспособности выпускников вузов, проведенное в вузах США и Германии, позволило определить качество подготовки студентов и соотнести их со стремлением к карьерному росту и готовности к конкуренции на мировом рынке труда. Анализ полученных данных показал, что большинство студентов сознательно подходит к выбору своей будущей профессии: начинают планировать карьеру в возрасте от 15 до 20 лет, часто задумываются о том, насколько они мобильны и конкурентоспособны на рынке труда. Для американских студентов конкурентоспособный специалист — это специалист, способный к достижению цели в быстро меняющейся ситуации и к выполнению любого задания, используя различные методы, а для немецких респондентов конкурентоспособный специалист — это, прежде всего, специалист, быстро адаптирующийся к новой ситуации и технологиям. Знания технологий решения проблем и знание этики являются, по мнению американских студентов,

наиболее важным фактором успешной карьеры. Подавляющее большинство немецких студентов считают, что для успешной карьеры важны, прежде всего, специальные предметные знания.

Такое различие в приоритетах американских и немецких студентов связано, на наш взгляд, с тем, что высшее образование в США является более практико-ориентированным. Напротив, в Германии высшее образование, в основном, опирается на теоретические знания. Более того, очевидной тенденцией в США является резкий рост предлагаемых вузами дополнительных образовательных услуг, в том числе и в рамках непрерывного послевузовского образования. Это означает, что развитая система дополнительного образования позволяет специалисту быть более мобильным на рынке труда.

Мобильность студентов и преподавателей представляет собой основной инструмент реформирования высшего профессионального образования и обеспечения качества подготовки выпускников. По мнению ученого В. М. Филиппова, «для решения главных задач, стоящих перед государствами, обществами и экономиками перед вузами подготовки выпускников к жизни и работе в условиях глобализирующегося мира, важнейшая задача вузов теперь состоит в интернационализации абсолютного большинства собственных студентов и собственной профессуры» [1, с. 13].

Сегодня в педагогической науке формируется новая идеология развития образования. Современные сравнительные педагогические исследования характеризуются переходом от методологии единичного изучения одной страны-нации к изучению страны-нации в контексте целого региона или всего мирового образовательного пространства.

Исследователь Ф. Г. Кумбс в своей монографии «Кризис образования в современном мире. Системный анализ» утверждает, что «... кто бы не участвовал в деле технического содействия — преподаватель, профессор, советник или ученый, выезжающий за границу для оказания «помощи» другой национальной системе образования, он возвращается на родину, обогащенный опытом» [3, с. 173].

А. Н. Джуринский, известный ученый-компаративист, отмечает, что «глобализация образования в сравнительной педагогике рассматривается, прежде всего, как универсализация учебных программ и формирование соответствующих знаний и представлений» [4, с. 64]. Также ученый аргументирует роль сравнительной педагогики в решении задач определения эффективных педагогических условий подготовки к профессиональной деятельности и соответствующего содержания учебных программ в виде сокращения универсального гуманитарного и усиления специализированного образования.

Л.В.Горюнова выделяет следующие взаимосвязанные сущности профессиональной мобильности:

- 1) качество личности, обеспечивающее внутренний механизм развития человека;
- 2) детерминированная меняющимися средой событиями, результатом которой выступает самореализация человека в профессии и жизни;
- 3) процесс преобразования человеком самого себя и окружающей его профессиональной и жизненной среды.

Совершенствование системы профессиональной подготовки и повышение конкурентоспособности выпускников вузов — одни из самых актуальных проблем современного образования, от которых во многом зависит будущее как отдельных университетов, так и систем образования различных стран, их конкурентоспособность на мировом рынке образовательных услуг. Анализ тенденцией развития мирового образовательного пространства в направлении становление над национального образования свидетельствует о смене парадигмы развития образования, при которой не только государство, но и человек становится активным субъектом выстраивания системы собственного образования. Как считает ученый-компаративист Б. Л. Вульфсон «в условиях глобализации приобретает все большее значение сопоставительный анализ национальных систем образования», а значит, роль сравнительных исследований оценки качества образования возрастает, так как необходимо понимать «недостатки системы образования, которые ослабляют конкурентоспособность страны на международной арене» [5с. 28].

В компаративных исследованиях выделяются тенденции, на основе которых проектируются программы академической мобильности в соответствии с вузовскими приоритетами интернационализации: доступность учебных дисциплин по сравнительному образованию, включение международного образования в контекст академических программ. Интернацио-



нализация образовательного процесса, по мнению компаративистов, позволяет развивать у студентов компетенции, необходимые для успешного участия в программах академической мобильности. Повышение внимания к проблеме подготовки кадров отечественной и зарубежной педагогике обусловлено глобальной конкуренцией за привлечение талантливых студентов, ученых, преподавателей и результатом усиления значимости международного измерения в сфере высшего образования и постепенной трансформации международной деятельности из неосновной в ключевую для сферы и, таким образом, в более содержательный и полноценный процесс. В этой связи И. В. Аржанова рассуждает о следующем: «мобильность студентов стимулируется различными государственными региональными программами, а студенческий об-

мен рассматривается как мощное средство развития общеевропейского рынка специалистов и квалифицированных работников».

Таким образом, конкурентоспособность и мобильность можно отнести к стратегическим ценностям. Международная академическая мобильность субъектов образовательного процесса является определяющим фактором в период модернизации высшего профессионального образования и подготовки эффективных кадров в разных странах. Тенденция развития сравнительного образования в контексте подготовки выпускников в быстро-меняющемся многокультурном мире в связи с интеграцией системы образования в мировое образовательное пространство очевидна и требует дальнейших компаративных исследований.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Филиппов В. М. Внутренняя интернационализация в российском высшем образовании // Интернационализация региональных вузов: тенденции, стратегии, пути развития: мат-лы междунар. конф. — Волгоград: ВолГТУ, 2012. — С. 9-22.
2. Кумбс Ф. Г. Кризис образования в современном мире. Системный анализ. — М.: Прогресс, 1970.
3. Джуринский А. Н. Сравнительная педагогика: учебник для магистров. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Юрайт, 2013.
4. Горюнова Л. В. Профессиональная мобильность специалиста как проблема развивающего образования России. — Ростов н/Д: НПО РГПУ, 2006.
5. Аржанова И. В. Эволюция международного образовательного сотрудничества в условиях модернизации Российской высшей школы в 1991-2011-е годы: автореф. дис.... д. и. н. — М., 2012.

O'ZGARUVCHAN IQTISODIY SHAROITLARDA KASB-HUNAR TA'LIMI TIZIMINI STRATEGIK BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Yusupov Nodir Baxriddinovich,

Professional ta'limni rivojlantirish instituti direktor o'rinbosari,
pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya:

Maqolada o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda kasb-hunar ta'limi tizimini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi nazariy va amaliy tajribalar tahlil etilgan holda, mehnat bozori talablariga moslashuvchan ta'lim modellari, innovatsion ta'lim texnologiyalari va raqamlashtirish imkoniyatlari bayon qilingan. Shuningdek, mamlakatdagi kasbiy ta'lim islohotlari va ularning natijalari tahlil etilib, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar:

Kasb-hunar ta'limi, strategik boshqaruv, iqtisodiy o'zgarishlar, dual ta'lim, innovatsion ta'lim texnologiyalari, mehnat bozori, raqamlashtirish, ta'lim islohotlari, davlat-xususiy hamkorlik.

Аннотация:

В статье рассматриваются вопросы совершенствования механизмов стратегического управления системой профессионального образования в меняющихся экономических условиях. На основе анализа теоретического и практического опыта Узбекистана и зарубежных стран описаны гибкие модели образования, инновационные образовательные технологии и возможности цифровизации. Также были проанализированы реформы профессионального образования в стране и их результаты, а также разработаны рекомендации по решению существующих проблем.

Ключевые слова:

Профессиональное образование, стратегическое управление, экономические изменения, дуальное образование, инновационные образовательные технологии, рынок труда, цифровизация, образовательные реформы, государственно-частное сотрудничество.

Abstract:

The article discusses the improvement mechanisms of strategic management in vocational education under changing economic conditions. By analyzing theoretical and practical experiences from Uzbekistan and other countries, the article highlights adaptable educational models aligned with labor market demands, innovative educational technologies, and opportunities for digitalization. Furthermore, it evaluates recent reforms in Uzbekistan's vocational education system, analyzes their outcomes, and proposes solutions to existing challenges.

Key words:

Vocational education, strategic management, economic changes, dual education, innovative educational technologies, labor market, digitalization, educational reforms, public-private partnership.

Jahon miqyosida globallashtirish va tezkor iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida har bir mamlakatning raqobatbardoshligi, avvalo, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimiga bog'liq. Iqtisodiyotdagi o'zgarishlar mehnat bozorida yangi talab va ehtiyojlarni yuzaga keltirmoqda, bu esa ta'lim tizimini doimiy ravishda yangilashni taqozo etmoqda. Shu jihatdan kasb-hunar ta'limi tizimini zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirib, uni strategik boshqarish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Yevropa mamlakatlari, jumladan Germaniya va Shveytsariya, uzluksiz dual ta'lim tizimini samarali joriy etgan holda sanoatga mos yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga erishmoqdalar. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'limni strategiya asosida boshqarish uchun

sodiy sharoitlarga moslashtirib, uni strategik boshqarish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Yevropa mamlakatlari, jumladan Germaniya va Shveytsariya, uzluksiz dual ta'lim tizimini samarali joriy etgan holda sanoatga mos yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga erishmoqdalar. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'limni strategiya asosida boshqarish uchun

mehnat bozori talablarini muntazam tahlil qilish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va o'quv dasturlarini iqtisodiy o'zgarishlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ham sohaga davlat miqyosida e'tibor qaratilib, kasb-hunar ta'limi tizimini isloh qilish, uni raqamlashtirish va iqtisodiyot o'zgarishlariga moslashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Jumladan, 2024-yil 16-oktabrda qa-

bul qilingan Prezident farmoni (PF-158-son) bilan kasbiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish va kasb-hunar ta'limini iqtisodiy shart-sharoitlarga moslashtirish ustuvor vazifalar etib belgilandi. Ushbu maqolada o'zgaruvchan iqtisodiy muhitda kasb-hunar ta'limi muassasalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi.

Nazariy asoslar. *Strategik boshqaruv — bu tashkilotning uzoq muddatli maqsad va vazifalarini belgilash, tashqi muhit o'zgarishlarini hisobga olgan holda resurslarni samarali taqsimlash hamda bajariladigan ish-rejasini shakllantirish jarayonidir. Ta'lim sohasida strategik boshqaruv muassasalarga o'z faoliyatini oldindan rejalashtirish, ehtimoliy xavf va imkoniyatlarni baholash hamda o'zgaruvchan sharoitlarga proaktiv moslashish imkonini beradi. Muassasa rahbariyati strategik reja asosida ta'lim sifati va natijadorligini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qiladi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, ta'lim tizimida strategik boshqaruvni joriy etish orqali muassasaning resurslaridan samarali foydalanish, kadrlarning salohiyatini yuzaga chiqarish va ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash imkoniyati ortadi. Shu bois, ta'lim menejmentida strategik yondashuv hozirgi kunda o'ta dolzarb hisoblanadi.*

Mustaqillik yillari O'zbekiston kasb-hunar ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha bir necha strategik qadamlar amalga oshirildi. Jumladan, 2019-yilda ta'lim tizimidagi islohotlar doirasida 11 yillik umumiy ta'lim tiklanib, kasbiy kollejlarni majburiy emas, ixtiyoriy bosqichga aylantirildi. Bu o'zgarish natijasida kasb-hunar ta'limi bilan qamrab olish darajasi keskin pasayib ketdi, yoshlarning bor-yo'g'i 23,2 foizi kasbiy ta'limga jalb etildi, holbuki OESR davlatlarida bu ko'rsatkich o'rtacha 40% dan ortiqni, Shveytsariya kabi davlatlarda esa 60% dan yuqorini tashkil etadi. Shuning uchun keyingi yillarda hukumat kasbiy ta'limga bo'lgan e'tiborni oshirib, yangi strategiyalarni qabul qildi. 2020-yilda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga kasbiy ta'limning dual (ikkilik) shakli alohida modda bilan kiritilib, nazariy ta'limni ish o'rinlarida amaliy tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirish huquqiy asosi yaratildi. 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Prezident farmoni bilan kasbiy ta'lim muassasalarida 2021/2022-o'quv yilidan boshlab amaliyotga yo'naltirilgan (dual) ta'lim dasturlarini joriy etish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish uchun maxsus muassasalar tashkil etildi (masalan,

Professional ta'limni rivojlantirish instituti) va soha boshqaruvi tizimi qayta ko'rib chiqildi. 2023-yilda olib borilgan islohotlar natijasida kasbiy ta'lim tizimini muvofiqlashtiruvchi vakolatli organ sifatida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tarkibida kasbiy ta'lim bo'g'ini birlashtirilib, avval tarmoq vazirliklari qaramog'ida bo'lgan kollejlarni yagona tizim orqali boshqarishga o'tildi. Ushbu strategiyalar kasb-hunar ta'limi tizimini zamon talablariga moslashtirish, uning yagona davlat siyosati asosida boshqarilishini ta'minlash va resurslar samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Xalqaro tajriba. Kasbiy ta'limni strategik boshqarishda xorijiy tajribalar ahamiyati katta. Germaniya dual ta'lim modeli bilan tanilgan bo'lib, o'quvchilar bir vaqtning o'zida ham korxonada amaliy ishlab, ham kasb ta'limi maktabida nazariy bilim olishadi – bunday yondashuv yoshlarni ish bozoriga tayyorlashda samarali natija berib, mamlakatda yoshlar ishsizligi past darajada saqlanishiga xizmat qilmoqda. Germaniya tajribasi ko'plab davlatlarda, jumladan AQSHda ham tatbiq etilmoqda, xususan, bir qancha yirik nemis kompaniyalari AQSHda zavodlari qoshida dual ta'lim dasturlarini

yo'lga qo'ygani ma'lum. Singapur esa mehnat bozori talablariga moslashuvchan kasbiy ta'lim tizimini yaratish borasida yetakchi namuna bo'lib, u yerdagi Texnik ta'lim instituti(ITE) bitiruvchilari yuqori malakasi bilan ajralib turadi. Masalan, 2018-yilda ITE bitiruvchilarining 76 foizi olti oy ichida ish bilan ta'minlangani qayd etilgan bo'lib, kasbiy ta'lim orqali muvaffaqiyatga erishish mumkinligi yoshlar orasida keng e'tirof etilmoqda. Shuningdek, Singapur politexnikumlari va kollejlari ish beruvchilar bilan yaqin hamkorlikda o'quv dasturlarini doimiy yangilab boradi, iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan yangi sohalarga mos ravishda yangi mutaxassislik va malaka talablarini joriy etadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'limni samarali boshqarish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi, dual ta'lim elementlarini joriy etish, ta'lim mazmunini bozor ehtiyojlariga qarab tezkor yangilab borish hamda strategik rejalashtirish muhimdir.

Iqtisodiy o'zgarishlarga moslashuvchan ta'lim modellari.

Iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi bilan yangi kasblar paydo bo'lib, ba'zi ko'nikmalarga ehtiyoj susayadi yoki yo'qoladi. Shu sababli, kasb-hunar ta'limi tizimi mehnat bozori dinamikasiga sezgir bo'lishi lozim. Ta'lim muassasalari va mas'ul idoralar mehnat bozoridagi talablarni doimiy o'rganib borishi, tegishli tarzda kadrlar tayyorlash rejalarini yangilab turishi zarur. Moslashuvchan ta'lim modeli doirasida o'quv dasturlari mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb va ko'nikmalarga tezkor moslashtiriladi. Bunda maxsus tahliliy guruhlar yoki elektron platformalar orqali iqtisodiyot tarmoqlaridagi kadrlarga ehtiyoj prognozlari olib borilishi maqsadga muvofiq. Masalan, O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimida ish beruvchilarning talablarini hisobga oluvchi elektron platforma yaratish rejalashtirilgan bo'lib, u orqali ta'lim dasturlarini yirik korxonalar ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish mumkin. Mehnat bozori talablariga javob beruvchi tizim orqali bitiruvchilarning bandlik ko'rsatkichlari oshadi, iqtisodiyot esa zarur mutaxassislar bilan ta'minlanadi.

O'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari muhim o'rin tutadi. Jahonda raqamli texnologiyalar, simulyatorlar, virtual laboratoriyalar va onlayn platformalar orqali kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish keng qo'llanilmoqda. Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada vizual va interaktiv qilib, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda murakkab jarayonlarni amaliy mashg'ulotlar orqali o'rganish imkonini beradi. Masalan, injeneriya yoki texnologiya yo'nalishidagi mutaxassisliklarda virtual simulyatsiya orqali real ishlab chiqarish jarayonlarini takrorlash mumkin, bu esa o'quvchi xatolardan qo'rqmasdan tajriba oshirishiga sharoit yaratadi. Bundan tashqari, masofaviy ta'lim texnologiyalari aholi uchun kasbiy ta'lim olish imkoniyatini kengaytiradi, ayniqsa uzoq hududlarda yashovchi yoki ish bilan band bo'lgan yoshlar uchun qulay sharoit yaratadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish natijadorligini baholash uchun maxsus mezonlar ishlab chiqilishi lozim(masalan, o'quvchilarning faolligi, texnologiyalar yordamida erishilgan o'quv natijalari va h.k.) Shu tarzda, kasb-hunar ta'limida innovatsion yondashuvlar kadrlar tayyorlashni tezkor, sifatli va bozor talablariga mos holda tashkil etishga xizmat qiladi. Strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishda raqamlashtirish alohida ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida yo'lga qo'yish ma'lumotlarni tezkor yig'ish, tahlil qilish va qarorlar qabul qilishni yengillashtiradi. Masalan, har bir kasb-hunar ta'limi muassasasi faoliyatiga oid ma'lumotlar (qabul qilingan o'quvchilar soni, ularning muvaffaqiyat reytingi, bitiruvchilarning ishga joylashishi, moliyaviy holat va h.k.) yagona axborot tizimiga kiritilib borilsa, ushbu tizim asosida tizim darajasida strategik qarorlar qabul qilish mumkin bo'ladi. Iqtisodiy tahlil asosida boshqarish deganda, ta'lim muassasasining samaradorlik ko'rsatkichlari (misol uchun xarajatlar va foyda munosabati, bitiruvchining mehnat bozoridagi bahosi va h.k.)ni tahlil qilgan holda resurslarni

taqsimlash tushuniladi. Bunda “cost-benefit” yoki “performance-based” boshqaruv usullarini qo'llash maqsadga muvofiq, ya'ni har bir sarflangan budget birligi qay darajada ish bergani baholanib, kelgusi rejalarga tuzatishlar kiritiladi. O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishdagi ilk qadamlardan biri kasbiy ta'lim muassasalarida bitiruvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash tizimini takomillashtirishdir. Yuqoridagi Prezident farmoniga muvofiq, bitiruvchilarning kompetensiyalarini baholashda ish beruvchi va mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda xolis monitoring o'tkazish amaliyoti joriy etiladi. Shuningdek, mehnat bozoridagi o'zgarishlarni hisobga olib, kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mablag'lar taqsimotini aniqlash uchun iqtisodiy prognozlash va modellashtirish usullaridan foydalanish talab etiladi. Bu mexanizmlar ta'lim tizimini bozor konyunkturasiga tez munosabat bildiruvchi, holatdan kelib chiqib o'zgaruvchan strategiyalarni qo'llay oluvchi tizimga aylantiradi.

Tahlil va amaliyot. Keyingi yillarda O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Avvalo, tizimning huquqiy va tashkiliy asoslari qayta ko'rib chiqildi: 2020-yilgi Qonun va Prezident farmonlari bilan dual ta'limga rasman start berildi, 2021-yildan boshlab bir qator texnikum va kollejlarda tajriba tariqasida amaliy- nazariy bilim berishning uyg'unlashgan modeli joriy etildi. Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati(GIZ) ekspertlari bilan hamkorlikda dual ta'limni tashkil etish bo'yicha nizom va qoidalar ishlab chiqildi, 2021-yil mart oyida Vazirlar Mahkamasining 163-sonli qarori bilan dual ta'limni tashkil etish tartibi tasdiqlandi.

Natijada ish beruvchi korxonalar bilan shartnoma asosida o'quvchi-yoshlarni ish joyida o'qitish mexanizmi yo'lga qo'yildi. Kasbiy ta'lim muassasalariga yil davomida (hatto o'quv yili boshlangandan keyin ham) korxonalar buyurtmasi asosida dual ta'limga qabul qilish imkoniyati yaratildi. Masalan, 2023-yil oxiriga kelib dual ta'lim qamrovini 50 ming nafar o'quvchiga yetkazish

rejalashtirilgan bo'lib, shu maqsadda 2024/2025-o'quv yiliga qadar mehnat bozorining hozirgi va istiqboldagi ehtiyojlarini aniqlash uchun elektron platforma yaratish va 100 ta zamonaviy kasb bo'yicha yangi professional standartlarni ishlab chiqish ishlari olib borildi. Yuqoridagi farmonga muvofiq, mamlakatdagi mavjud 333 ta kasb-hunar maktabi, 227 ta texnikum va 112 ta kollej negizida yangi tartibda yagona texnikumlar tarmog'ini shakllantirish belgilandi – umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'limga uzviy bog'langan kadrlar tayyorlash tizimi yaratish maqsadida kollej va texnikumlar bir xil turga keltirilmoqda. Bu optimizatsiya natijasida ortiqcha takrorlanish va dasturlar nomuvofiqligi muammosini hal etish ko'zda tutilgan (chunki ilgari turli muassasalar o'rtasida o'quv dasturlari muvofiqlashmagan, samarasizlikka olib kelgan edi). Yangi texnikumlarda ta'lim xalqaro standartlar (ISCED) va milliy malaka tizimi talablari asosida tashkil etilishi, o'quvchilarga zamonaviy kasbiy malaka va kredit-modul tizimi orqali keyinchalik oliy ta'limga o'tish imkoniyati berilmoqda. Shu bilan birga, 2025-yildan har bir texnikumga muayyan tarmoq vazirligi yoki yirik sanoat korxonasi «kadrlar buyurtmachisi va hamkori» sifatida biriktirilib, o'quv rejalarini ish beruvchi talablariga muvofiq shakllantirish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Texnikumlarga o'quv dasturlarini mustaqil ravishda yaxshilash vakolati berilib, xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma dasturlar ochish, qisqa muddatli kurslar tashkil etish kabi yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Kadrlar tayyorlash sifati va xalqaro e'tirofini oshirish maqsadida Angliyaning BTEC dasturi kabi xalqaro o'quv dasturlari joriy etilmoqda. Bu dastur bo'yicha berilgan diplomlar 70 ta davlatda tan olinishi belgilangani O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida kasb-hunar ta'limi tizimida ma'lum bir ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda: masalan, dual ta'lim joriy etilgan pilot texnikum bitiruvchilarining ishga joylashishi ko'rsatkichi oshdi, ish beruvchilar ta'lim

jarayoniga tobora ko'proq jalb qilinmoqda. Shu bilan birga, tizimda hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham yo'q emas – bular haqida quyida to'xtalamiz.

Xalqaro tajriba bilan solishtirish. O'zbekistonning kasbiy ta'limdagi bugungi islohotlarini xalqaro tajriba bilan taqqoslaganda, uning kuchli jihatlari va ortda qolayotgan tomonlarini aniqlash mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, Germaniya, Singapur kabi davlatlar yillar davomida dual ta'limning afzalliklaridan foydalanib kelmoqda va bu ularning iqtisodiyotiga malakali kadrlar yetkazib berilishida muhim omil bo'ldi. O'zbekiston ham mazkur tajribani qo'llamoqda: dual ta'limning qonuniy asoslanishi, korxonalar bilan hamkorlikning kuchayishi buning yaqqol misolidir. Masalan, Singapurda kasbiy ta'lim muassasalari sanoat bilan uzviy bog'liq ravishda ishlaydi, O'zbekistonda ham texnikumlarga tarmoq korxonalari biriktirilayotgani shu modelga muvofiqdir. Lekin ayrim farqlar ham mavjud: Hozirgi vaqtgacha rivojlangan davlatlarda kasbiy ta'limga o'quvchilarning jalb etilishi ancha yuqori bo'lib kelgan (masalan, Germaniyada o'smirlarning taxminan yarmidan ko'pi o'rta maxsus kasbiy ta'limga o'tadi), O'zbekistonda esa 2017–2020 yillarda kollejlarda o'qishni ixtiyoriy qilish natijasida bu ko'rsatkich 25% atrofiga tushgandi. Natijada mehnat bozorida kadrlar tanqisligi kelib chiqdi: tadqiqotlarga ko'ra, sanoat korxonalarining qariyb yarmi o'zlariga kerakli malakali ishchi topishda qiynalgan, bunga eski tizimdagi ta'lim mazmunining amaliy ko'nikmalardan yiroqligi hamda korxonalarning ta'lim jarayonidan uzilgani sabab bo'lgan. Hozirgi islohotlar aynan shu muammolarni bartaraf etishga qaratilgani bilan qimmatlidir. Shu o'rinda xalqaro tashkilotlar (masalan, Yevropa Ta'lim Jamg'armasi – ETF) va rivojlangan davlatlar tajribasi asosida O'zbekistonda kasbiy ta'limning milliy malakalar ramkasini xalqaro talablarga moslashtirish ishlari olib borilmoqda. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi tashkilotlar ko'magida kasbiy ta'lim loyihalari amalga oshirilib, o'quv yurtlari moddiy-texnik bazasi yangilanmoqda,

o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlari joriy qilinmoqda. Umuman, O'zbekiston kasb-hunar ta'limi tizimi jahon andozalariga muvofiqlashish yo'lida qat'iy qadamlar qo'ymoqda, biroq bu jarayonda tahlil va taqqoslash orqali kamchiliklarni to'ldirib borish davom etmoqda.

Amaliyotdagi muammolar va yechimlar. Amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, kasb-hunar ta'limi tizimida hali ham qator muammolar mavjud. Birinchidan, tizim boshqaruvidagi tarqoqlik va muvofiqlik masalasi to'liq hal bo'lganicha yo'q – hanuz ba'zi tarmoq vazirliklari o'z sohalari bo'yicha texnikumlar faoliyatiga ta'sir o'tkazadi, bu esa yagona davlat siyosati yuritishda muayyan qiyinchilik tug'diradi. Mazkur muammoni hal etish uchun boshqaruv vakolatlarini yanada aniq taqsimlash, masalan, hududlarda kasbiy ta'lim boshqaruv kengashlarini tashkil etish va ularga sanoat vakillarini kiritish taklifi berilmoqda. Ikkinchidan, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda ish beruvchilar ishtiroki to'liq ta'minlanmadi. Ayrim texnikumlarda rahbarlar va o'qituvchilarning tashabbusi bilan korxonalar bilan hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, boshqalarida unday emas. Buning yechimi sifatida barcha kasbiy ta'lim muassasalari uchun korporatsiyalar bilan hamkorlik o'rnatishni majburiy tartibga solish, har bir bitiruvchi uchun muayyan soat amaliy ish o'tashini talab qilish kabi choralarni qonunchilikda mustahkamlash taklif etiladi. Uchinchidan, kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va ularning mehnat bozoriga mosligi doimiy monitoring talab qiladi. Hozir ishlab chiqilayotgan elektron platformalar va milliy malaka tizimi shu maqsadga xizmat qiladi, ammo ulardan samarali foydalanish uchun mutaxassislar tayyorlash, ma'lumotlar bazasini to'ldirib borish masalalari dolzarb. To'rtinchidan, kasbiy ta'limda o'quvchi va o'qituvchilarning motivatsiyasi masalasi bor. Kollej va texnikumlarda o'qish o'quvchilar uchun birinchi tanlov emasligi kuzatilgan, ko'pincha ular oliy ta'limga o'ta olmagan uchun ushbu ta'lim muassasalariga keladi. Buni yaxshilash uchun kasbiy ta'lim

bitiruvchilarining karyera imkoniyatlarini jozibador etish, ularga ishga joylashishda kafolatlar berish, texnika sohasida tadbirkorlikka ko'maklashish kabi rag'batlar kerak bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, mavjud muammolar yechimi uchun qabul qilingan strategiyalarni izchillik bilan amalga oshirish, xalqaro tajribadan kelib chiqib lokal yechimlar qo'llash va manfaatdor tomonlarning uzviy hamkorligini yo'lga qo'yish zarur.

Xulosa va tavsiyalar. O'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda kasb-hunar ta'limi tizimini strategik boshqarishni takomillashtirish yuzasidan quyidagi xulosa va tavsiyalar shakllandi:

Strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik rejalashtirish va boshqaruvni zamonaviy usullarda tashkil etish zarur. Buning uchun har bir muassasada uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilib, u muntazam ravishda mehnat bozori tahlili asosida yangilanib borilishi lozim. Boshqaruvga innovatsion yondashuvlarni joriy etish – ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish (Data-driven management), natijadorlikka yo'naltirilgan moliyalashtirish (performance-based funding) kabi mexanizmlardan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, rahbar va boshqaruv kadrlari malakasini oshirish, ularni strategik menejment bo'yicha o'qitish muhim ahamiyatga ega. Strategik boshqaruvni takomillashtirish natijasida tizim o'zgarishlarga tez moslasha oladigan, resurslardan oqilona foydalanadigan hamda ta'lim sifati bo'yicha aniq maqsadlarga ega bo'lgan holga keladi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligini

kuchaytirish. Kasb-hunar ta'limi samaradorligini oshirish uchun davlat muassasalari bilan xususiy sektor o'rtasida uzviy hamkorlikni yanada mustahkamlash zarur. Amaliyot ko'rsatmoqdaki, dual ta'lim va apprenticeship (ustoz-shogirdlik) modeli kadrlarni real ish muhitida tayyorlashda samarali usul hisoblanadi. Shuning uchun har bir texnikum va kasb-hunar maktabini tegishli tarmoq korxonalari bilan bog'lash, o'quv jarayonida ish beruvchilarning bevosita ishtirokini ta'minlash lozim. Xususan, ish beruvchilar o'quv dasturlarini tasdiqlash, bitiruvchilarni attestatsiyadan o'tkazish va stajirovkalar tashkil etishda faol ishtirok etsagina, mehnat bozori talablari bilan ta'lim mazmuni orasidagi tafovut qisqaradi. Davlat o'z navbatida xususiy korxonalarni kasbiy ta'limga jalb etish uchun rag'batlantiruvchi choralar (soliq imtiyozlari, subsidiyalar yoki davlat buyurtmalari) joriy etishi maqsadga muvofiq. Davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish uzoq muddatda iqtisodiyotning real ehtiyojlariga mos, barqaror ta'lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda kasb-hunar ta'limi tizimi doimiy rivojlanishda bo'lishi va tashqi muhit talablariga mos ravishda o'zgarib borishi talab etiladi. Strategik boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini yo'lga qo'yish hamda mehnat bozori ehtiyojlariga qarab ta'lim mazmunini uyg'unlashtirib borish orqali kasbiy ta'lim samaradorligini yanada oshirish mumkin. Bu esa o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gabriela D. –T. (2023). "Governing TVET in Uzbekistan: Finding Footing on Shifting Ground." Helvetas blog.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmoni.
3. UzDaily (2024). "Proposals for improving vocational education considered." 24.09.2024
4. National Center on Education and the Economy (NCEE). "Singapore – Vocational and Technical Education." (Country Profile).

KASBIY STANDARTLARNI ISHLAB CHIQISHDA RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Allabergenov Anvar Alimbayevich,

“Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisi direktori o’rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada bir qator xorijiy davlatlarning kasbiy standartlarni ishlab chiqishdagi tajribalari tahlil qilinib, uni takomillashtirish bo’yicha tegishli tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: kasbiy standart, ta’lim dasturlari, mehnat bozori, kompetensiya, ko’nikmalar.

Аннотация: В данной статье проанализирован опыт ряда зарубежных стран в разработке профессиональных стандартов и даны соответствующие рекомендации по разработке и совершенствованию профессиональных стандартов.

Ключевые слова: профессиональный стандарт, образовательные программы, рынок труда, компетенции, навыки.

Abstract: This article analyzes the experiences of several foreign countries in developing occupational standards and provides relevant recommendations for the development and improvement of such standards.

Key words: occupational standard, educational programs, labor market, competence, skills.

Ilmiy-texnik taraqqiyot, ishlab chiqarish va texnologiyalarning rivojlanishi hamda o’zgaruvchan mehnat bozori kasbiy ko’nikma va malakalarni doimiy ravishda takomillashtirishni taqozo etmoqda. Malaka ma’lumotnomalari asta-sekin eskirib bormoqda hamda mavjud kasblarning tavsifi zamonaviy talablarga mos kelmaydi. Aynan shu sababli yangi avlod kasbiy standartlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va joriy etish O’zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini sifatli rivojlantirishning muhim shartidir. Ular har bir mutaxassisning malakasiga qo’yiladigan talablarni belgilash va kasbiy ta’lim tizimini qayta tashkil etish uchun mo’ljallangan. Kasbiy standart professional faoliyat qoidalarini muvofiqlashtirish, kasbiy ta’limning turli bosqichlari o’rtasida uzluksizlikni ta’minlash va amaliy faoliyat bilan aloqalar o’rnatishning haqiqiy asosi sifatida qaraladi.

Kasbiy standartlar milliy malaka tizimining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanib, mehnat bozorida talab qilinadigan malakali kadrlarni tayyorlash uchun kasbiy ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda asos bo’lib xizmat

qiladi. Bunda ta’lim dasturlarining kasbiy standartlar asosida ishlab chiqilishi hamda kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashlari, tadbirkorlik subyektlari birlashmalari, yirik ish beruvchilar va uyushmalar bilan kelishilganidan so’ng amaliyotga kiritilishi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.10.2024-yildagi PF-158-son Farmonida aniq belgilab qo’yilgan. Kasbiy standart tarkibiga kiruvchi mehnat funksiyalari va ish jarayonlarining har biri o’ziga xos vazifalar to’plamini o’z ichiga oladi hamda malaka darajalariga bog’liq ravishda ishlab chiqiladi.

Kasbiy standart – muayyan kasbiy faoliyat doirasida uning mazmuniga, mehnat sharoitlariga, sifatiga, xodimlarning malakasi va kompetensiyasiga turli malaka darajalari bo’yicha talablarni belgilovchi ko’p funktsiyali me’yoriy hujjatdir. Kasbiy standartlar - yangi turdagi hujjatlar bo’lib, ular muayyan mehnat faoliyati turlarini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan malakalarga qo’yiladigan talablar haqida eng to’liq va dolzarb ma’lumotni taqdim etadi. Shu bois, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024-yildagi PQ-345-son qarorida belgilanganidek, malakalarning xalqaro miqyosda tan olinish-

ini, milliy malaka darajalarining ilg'or xorijiy davlatlar malaka darajalari bilan integratsiya qilinishini ta'minlash maqsadida kasbiy standartlarni ishlab chiqishning xalqaro tajribasini tahlil qilish muhimdir.

Yevropada kasbiy standartlar turlicha tavsiflanadi va qo'llaniladi. Germaniyada kasbiy standartlar o'qitiladigan kasb va mutaxassisliklar bilan uzviy bog'liq holda qo'llaniladi. Boshlang'ich kasbiy ta'lim (dual tizim) da kasbiy standartlar ta'lim va malaka standartlari bilan uyg'unlashtirilgan. Kasbiy standartlar xodimlarga qo'yiladigan talablarni, ular tomonidan bajariladigan asosiy mehnat vazifalarini, topshiriqlar va kasbiy faoliyatni, shuningdek, mazkur kasb uchun xos bo'lgan kompetensiyalarni tavsiflaydi, lekin alohida ishlab chiqilmaydi, balki ular ta'lim va malaka standartlarini ishlab chiqishning integratsion jarayonining bir qismi hisoblanadi.

Jahon amaliyotida mazkur hujjatni ishlab chiqish jarayonida davlat va xususiy sektor (biznes) o'rtasidagi munosabatlarning uchta modeli mavjud:

1. *To'g'ridan to'g'ri davlat tomonidan tartibga solish modeli (Germaniya, Irlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va boshqalar);*
2. *Davlat ishtirokisiz biznes tomonidan tartibga solish modeli (Kanada, AQSH va boshqalar.);*
3. *Davlat va biznesning birgalikdagi ishtiroki modeli (Daniya, Gollandiya, Litva, Estoniya, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi va boshqalar).*

Yevropaning 26 ta mamlakatida kasbiy standartlarni ishlab chiqish va qo'llash tahlillari shuni ko'rsatdiki, hududiy o'ziga xoslik va atrof-muhit ta'sirlaridan xoli ravishda milliy malaka tizimini tashkil etishda quyidagi to'rtta komponent muhim ahamiyat kasb etadi:

1. *Normativ-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;*
2. *Manfaatdor tomonlarning samarali muhoqotini ta'minlash;*
3. *Institutsional mexanizmlarni belgilash;*
4. *Sifatni ta'minlash mexanizmlarini joriy qilish.*

Bir qator mamlakatlarda kasbiy standart (occupational standard) tushunchasi — bajarilgan ishlarning sifati, unumdorligi va xavfsizligini ta'minlashni hisobga olgan holda malaka darajasi va kasbiy kompetensiyalari nuqtayi nazaridan kasbga qo'yiladigan minimal talablarni aks ettiruvchi me'yoriy hujjat sifatida qo'llaniladi.

Buyuk Britaniyada "Milliy kasbiy standartlar" (NOS) mehnat funksiyalarini va alohida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur kompetensiyalar to'plamini belgilaydi.

Kasbiy standartlar kompetensiyalar sifatida ko'rib chiqiladi va ma'lum bir kasb doirasidagi asosiy faoliyatni qamrab oladi.

Buyuk Britaniyadagi kasbiy standartlar tuzilishi "mehnat faoliyati uchun kompetensiyalar" ga asoslangan. Har bir malaka, malaka berish uchun yetarli bo'lgan minimal bilim va ko'nikmalarni ifodalovchi modullar to'plamidan iborat. Modullar majburiy va ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Ular bilim va ko'nikmalarni baholash talablarini batafsil tavsiflovchi kompetensiya elementlaridan iboratdir.

Elementlarga quyidagilar kiradi: ishlash mezonlari, diapazonni sozlash, bilim xususiyatlari, ko'rsatkichlarga qo'yiladigan talablar. Ish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarga quyidagilar kiradi: texnik kutuvlar, kutilmagan vaziyatlarni boshqarish, turli xil faoliyat turlarini boshqarish, jamoadagi o'zaro munosabatlarni boshqarish.

Kasbiy standartni yaratish jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yangilanishi (yaratish) zarurati bo'lgan kasbiy faoliyat sohasini aniqlash uchun mehnat bozorini o'rganish;
- ushbu pozitsiyani kasbiy standartni ishlab chiqishning yillik rejasiga kiritish;
- malakalarni rivojlantirish agentligida reja tasdiqlash, ishchi guruhni shakllantirish (tegishli tarmoq kengashlari doirasida);
- kasbiy sohani rivojlantirish xaritalari;
- kasbning funksional xaritasini tuzish;
- kasbiy standartni shakllantirish;
- loyihani muhokama qilish;
- kasbiy standartni qayta ko'rib chiqish;
- agentlikda kasbiy faoliyat sohasini tasdiqlash.

Kasbning funksional xaritasida quyidagilar mavjud:

1) *asosiy maqsad ("mintaqa missiyasi"ning qisqacha tavsifi);*

2) *asosiy yo'nalishlar (topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan ish joylarining tavsifi);*

3) *asosiy rollar (guruhlar yoki alohida xodimlar tomonidan bajariladigan kengaytirilgan funksiyalarning tavsifi);*

4) *kompetensiya modullari, ya'ni xodim tomonidan bajariladigan aniq funksiyalar tavsifi.*

Shotlandiya kvalifikatsiya tashkiloti(SQA) – "natijaga yo'naltirilgan" kasbiy standartlarni ishlab chiqishni tavsiya qilib, uni quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1–bosqichda–ish-joyidagi mehnat operatsiyalarini tahlil qilish asosida xodimning ko'nikmalarga (umumlashtirilgan ko'nikmalarga) yoki kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan kengaytirilgan talablari tavsiflanadi;

2–bosqichda–kasbiy kompetensiyalar "oddiy ko'nikmalar"(shu jumladan, intellektual ko'nikmalar)ga bo'linib, mahorat darajasi amalda aniq ko'rsatilishi mumkin. Bu ko'pincha ish joyida amalga oshiriladigan muayyan ish funksiyasiga mos keladi(buning uchun xodimning butun harakatlari zanjiri kuzaatiladi). Ushbu bosqich natijalari ko'nikmalar ro'yxatiga aylantirilib, baholash hamda xodimlarni sertifikatlash jarayonlarida ishlatiladi.

3–bosqichda–ish sifatiga qo'yiladigan mezonlar, ko'rsatkichlar ishlab chiqiladi hamda tanlangan vazifalar qay daraja va qanday sifatda bo'lishi belgilanadi. Ular mahoratga asoslangan faoliyat yoki faoliyat natijasida hosil bo'ladigan mahsulot(natija) tavsifini o'z ichiga oladi. Mezonlar tavsifiga: faoliyat obyekti, amalga oshiriladigan harakat va ularning sifati, amalga oshiriladigan ishlar etaloniga havolalar kiradi. Kasbiy standartni ishlab chiqishda har bir ko'nikma uchun 4 tadan 6 tagacha mezonlardan foydalanish tavsiya etiladi;

4–bosqichda–ish jarayonida xodimlar tushib qolishi mumkin bo'lgan vaziyatlar ro'yxati va tavsifi(o'zlashtirish darajasi) beriladi. Ushbu komponentda turli xil sharoit, vaziyat, yondashuv va boshqalar haqida

ma'lumotlar mavjud bo'lib, bunda xodim kasbiy mahoratini namoyish qila olishi kerak bo'ladi. Ba'zi bir ko'nikmalar uchun mahorat darajasini tavsiflash shart emas, chunki kerakli barcha ma'lumotlar mahoratning o'zida yoki sifat mezonlarida to'liq aks ettirilgan bo'ladi.

Shunday qilib, kasbiy standart – xodimning ma'lum bir ish joyida (ma'lum bir kasbda) nima qilishi kerakligini, uning faoliyati qanday standartlarga mos kelishi lozimligini hamda ushbu ko'nikmalarni qanday sharoitlarda qo'llashi mumkinligini belgilaydi. Ushbu talabni qondirish uchun har bir kompetensiya kasbiy standartning tarkibiy qismi sifatida yagona formatda shakllantiriladi:

- Harakatlar «fe'l» shaklida ifodalanadi;
- Harakat yo'naltirilgan obyekt ko'rsatiladi;
- Muvofiqlik standarti yoki foydalanish tartibi ishlab chiqiladi.

Shotlandiya kasbiy standartlari ilovalarida kompetensiyalarni baholash usullari ham tasvirlangan. Mazkur bo'lim, kasbiy malakalarni tan olish jarayonlarida foydalaniladi.

Fransiyada kasbiy standartlarni ishlab chiqish va joriy qilish tizimi mehnat bozori talablari va ta'lim tizimi o'rtasidagi aloqani ta'minlashga qaratilgan. Bu tizimning asosiy vazifasi iqtisodiyotning turli sohalar uchun kasbiy malaka talablarini belgilash va ularni ta'lim dasturlari bilan uyg'unlashtirishdir.

Kasbiy standartlarni ishlab chiqishda ishtirok etuvchi asosiy tashkilotlar:

1. Professional maslahat komissiyalari (CPC) – har bir iqtisodiyot tarmog'i uchun tashkil etilgan organ bo'lib, ish beruvchilar, xodimlar, davlat idoralari va sohaga tegishli boshqa manfaatdor tomonlardan iborat.

2. Kasbiy sertifikatlash bo'yicha milliy komissiya(Commission Nationale de la Certification Professionnelle, CNCP) – davlat, tadbirkorlar, kasaba uyushmalari va ta'lim muassasalari vakillaridan iborat.

3. Tarmoq uyushmalari va palatalar – tegishli sohalar bo'yicha kasbiy standartlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida qatnashadi.

Kasbiy standartlarni ishlab chiqish quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

1. Tahlil va o'rganish:

- iqtisodiyotning muayyan sohasida mavjud kasblar va vazifalar tahlil qilinadi;
- mehnat bozoridagi talablar asosida yangi kasbiy standartlar loyihalari ishlab chiqiladi.

2. Loyihani muhokama qilish:

- Loyiha CPC yig'ilishlarida muhokama qilinadi;
- Ish beruvchilar, xodimlar, davlat organlari va mutaxassislar fikrlari inobatga olinadi.

3. Malaka darajalarini belgilash:

- Fransiyaning Milliy malaka tizimi (RNCP) belgilangan standartlarga muvofiq malaka darajasi aniqlanadi.

4. Davlat tasdig'i:

- Fransiya Ta'lim va mehnat vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi;
- Tasdiqlangan standartlar RNCPga kiritiladi.

Kasbiy standartlarni joriy qilish va ta'limga integratsiya qilish jarayonlari quyidagicha:

1. Davlat diplomlari va sertifikatlari:

- tasdiqlangan kasbiy standartlar davlat tomonidan tan olingan diplom(kvalifikatsiya) lar va sertifikatlariga asos bo'ladi.

2. Ta'lim dasturlariga muvofiqlashtirish:

- kasbiy standartlar asosida ta'lim dasturlari va malaka talablari yangilanadi;
- ta'lim muassasalari va kasbga o'qitish markazi ushbu standartlar asosida kurslarini tashkil etadi.

3. Kasbiy ta'lim va qayta tayyorlash:

- kasbiy standartlar qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida qo'llaniladi.
- mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan yangi kasblar uchun standartlar ishlab chiqiladi.

Turkiyada milliy kasbiy standartlar tarmoq talablariga muvofiq ishlab chiqiladi. Ayrim tarmoqlarda mavjud kasblar, ularning darajalari va qo'llanilish sohalari aniq bo'lsa-da, ayrim hollarda tayyorlanishi lozim bo'lgan kasbiy standart va uning darajasini aniqlash uchun tarmoqdagi kichik tarmoqlar, kasblar va bilim sohaslarini aniqlash uchun kasblar xaritasini tayyorlash talab etiladi. Kasblar xaritasi o'rganilgandan so'ng kasblar tahlilining tegishli usulini tanlash orqali kasb stan-

dartlari loyihalari tayyorlanadi.

1. Kasblar xaritasini tuzishda tarmoqning (yoki quyi tarmoqning) asosiy qismlari guruhlariga ajratiladi, har bir guruhdagi kasblar aniqlanadi, ularning chegaralari va mumkin bo'lgan darajalari belgilanadi.

2. Kasb tahlili ikki bosqichli jarayonni o'z ichiga oladi: ish va jarayon tahlili. Kasb tahlili kasbiy bilimlar va amaliy ko'nikmalar, kasbiy qarashlar va xulq-atvor, kasbni bajarishda qo'llaniladigan asbob-uskunalar, turli sharoitlarda kasbni muvaffaqiyatli bajarish uchun ish muhiti va kasb sharoitlari, shuningdek, kasb doirasidagi vazifalar, amallar va muvaffaqiyat mezonlarini o'z ichiga oladi.

Kanadada milliy kasbiy standartlar davlat tomonidan emas, balki sanoat va xususiy sektor vakillari tomonidan ishlab chiqiladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1-bosqichda–seminar va munozaralar shaklida kasbiy sohaning professional-jamoatchilik ekspertizasi amalga oshiriladi;

2-bosqichda–kasbiy standart loyihasi elektron shaklda turli uyushmalar va manfaatdor tomonlarga yuboriladi, ularning aksariyati hujjatni o'z veb-saytlarida keng professional va jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtiradi;

3-bosqichda–ishchi guruh tomonidan kasbiy standartlar ishlab chiqiladi, uning mazmuni quyi pog'onalarda ham muhokama qilinadi;

4 – bosqichda–kasbiy standart loyihasi sanoat korxonalari tomonidan keng muhokama qilinadi;

5 – bosqichda–boshqaruv qo'mitasi takliflarini ko'rib chiqadi va standart tahrir qilinadi;

6 – bosqichda–kasbiy standart boshqaruv qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Kasbiy standartlarni ishlab chiqish texnologiyasiga nazar tashlar ekanmiz, ular kasbning umumiy maqsadi va ish joyida xodim tomonidan amalga oshiriladigan kasbiy vazifalar ro'yxatiga aniqlik kiritilishini ta'minlaydi. Alohida kasbiy vazifa aniq, o'lchanadigan faoliyat bo'lib, u boshqa vazifalar bilan birgalikda amaliyotchi tomonidan kasbiy faoliyat doirasida ma'lum bir kasbiy



vazifani bajarish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan mantiqiy qadamlarni tavsiflaydi. Kasbiy standartni shakllantirish jarayonida u kichik vazifalarga bo'linadi va har qanday faoliyat turini ajratish mumkin bo'lgan kichik vazifalar bilan birgalikda xodimning vazifa doirasidagi barcha harakatlarini tavsiflaydi.

Kichik vazifalarni tavsiflashda uni yetarli darajada bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar aniqlanadi. Bundan tashqari, vazifaning parametrlarini aniqlaydigan kasbiy kontekstlar ham belgilanadi va tavsiflanadi.

Milliy malaka tizimi rivojlangan mamlakatlarda funksional tahlil usuli qo'llaniladi va kasbiy sohaning funksional xaritasi ishlab chiqiladi. Kasbning funksional xaritalari ish beruvchilarning talablarini ta'lim provayderlariga yetkazish, o'quv dasturi va modullarini ishlab chiqish va turli kasbiy sohalarda va turli malaka darajalarida o'zaro vertikal va gorizontal taqqoslash orqali kompetensiyalarini aniqlash uchun ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy standartlar inson resurslarini tanlash va boshqarish, mehnatni me'yorlash, shuningdek, xodimlarni boshqaruv tizimlarini rivojlantirish bo'yicha vazifalarni hal etish, ularning kompetensiyalarini baholash va sertifikatlash, ish beruvchilarning talablariga muvofiq ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, mutaxassislarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida qo'llanilishini hisobga olib ularning ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalaridan kelib chiqib yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Блинов В.И., Есенина Е.Ю. Как рождаются и внедряются профессиональные стандарты // Образовательная политика. 2014, № 1(63).
2. Есенина Е.Ю. Внедрение профессиональных стандартов и мировой опыт// Дополнительное профессиональное образование в стране и мире. – 2013. – № 6. – С. 6-8.
3. Лейбович А.Н., Блинов В.И., Батрова, О.Ф.,Есенина Е.Ю. Профессиональные стандарты как инструменты сопряжения деятельности системы профессионального образования с требованиями рынка труда // Аналитические обзоры по основным направлениям развития высшего образования. 2013. №7. 72 с.
4. Олейникова О. Н., Муравьева А. А. Профессиональные стандарты как основа формирования рамки квалификаций. М.: АНО Центр ИРПО, 2011.72 с.
5. Организация разработки профессиональных стандартов в Великобритании: Центральное бюро нормативов по труду (ЦБНТ) РФ, 2012г.
6. Skills Development for Inclusive Growth Volume 1: Manual for Developing National Occupational Standards and Qualification Packs, 2016
7. Ulusal meslek standartı geliřtirme rehberi: TC Meslek Standartları Dairesi Başkanlığı, 2019.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ КАДРОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Мустафоева Дурдона Асиловна

Доцент Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства», д.п.н. (DSc)

Аннотация:

В последнее время уделяется особое внимание совершенствованию системы высшего образования на основе обеспечения прочной интеграции науки, образования и производства, исходя из потребностей социальной сферы и отраслей экономики, подготовке конкурентоспособных кадров, эффективной организации научно-инновационной деятельности, развитию международного сотрудничества, инновационной деятельности в менеджменте образования, дальнейшего развития деятельности по управлению персоналом специализированных кадров, взаимодействию и развитию интеграции образования с производственными учреждениями. Автор приводит научные исследовательские примеры по совершенствованию управленческой компетентности специализированных кадров высших образовательных учреждений.

Ключевые слова:

управление, компетентность, образование, специализированные кадры, кластерный подход, интеграция.

Annotatsiya:

So'nggi paytlarda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy-innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ta'limni boshqarishdagi innovatsion faoliyat, ixtisoslashtirilgan kadrlar xodimlarini boshqarish faoliyatini yanada rivojlantirish asosida oliy ta'lim tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Muallif oliy ta'lim muassasalarining mutaxassis kadrlarining boshqaruvchanlik kompetentligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot misollarini keltiradi.

Kalit so'zlar:

boshqaruv, kompetentlik, ta'lim, mutaxassis kadrlar, klasterli yondashuv, integratsiya.

Annotation:

Recently, special attention has been paid to improving the higher education system by ensuring a solid integration of science, education and production, based on the needs of the social sphere and economic sectors, training competitive personnel, effective organization of scientific and innovative activities, development of international cooperation, innovation in education management, further development of personnel management activities of specialized personnel, cooperation and development of educational integration with industrial institutions. The author provides scientific research examples on improving the managerial competence of specialized personnel of higher educational institutions.

Keywords:

management, competence, education, specialized personnel, cluster approach, integration.

Введение. В общепринятой в мире концепции современного образования актуальной задачей определено управление

системой образования, оценка качества образования, совершенствование процессов, средств управления и технологий.

Подготовка конкурентоспособных кадров имеет целью достижение социального, экономического и культурного прогресса путем последовательного развития их управленческой компетентности. Система образования таких стран, как США, Европа, Южная Корея, Китай, Сингапур, Япония, лидирует в мировом рейтинге по применению новых педагогических стратегий в сфере образования. Поэтому важно, чтобы специалисты ведущих высших учебных заведений, входящих в топ-1000, отличались конкурентоспособностью, востребованностью на международном рынке труда, обладали необходимыми компетенциями в сфере производства по своей специальности.

В последние годы в стране проводится значительная работа, направленная на совершенствование механизмов организации и управления образовательным процессом, внедрение инновационного управления образованием на основе демократических принципов и кластерного подхода к нему, внедрение передовых педагогических технологий в систему непрерывного образования. Изучение инновационных процессов в образовании, их функций, закономерностей развития, механизмов и технологий их реализации позволяет организовать в высших учебных заведениях на уровне мировых стандартов на основе достижений современной педагогики и педагогической науки. Эти требования, в свою очередь, обязывают проектирование содержания развития управленческой деятельности руководителей на основе кластерного подхода в специализированных кадрах в процессах интеграции нашей страны в мировую экономическую систему, выхода национальных кадров на мировые рынки труда, совершенствования организационно-управленческих механизмов развития управленческой деятельности, технологий развития эффективной управленческой деятельности и управленческой компетентности руководителей.

Методы. Наряду с педагогикой управления или научно-теоретическими взглядами ученых-исследователей важно иметь определённый подход и мнения по этому вопросу, основанные на жизненном опыте. В нем даются нижеследующие рекомендации о том, как молодой руководитель может завоевать уважение педагогического коллектива и на что обращать внимание при работе с сотрудниками:

педагогическое мастерство - это умение знать особенности образовательного процесса, уметь его организовывать и продвигать;

технологические навыки связаны с конструктивными и организационными навыками и включают в себя способность выполнять конкретную деятельность, то есть получать информацию, передавать её, организовывать и планировать деятельность;

коммуникативные навыки складываются из навыков, связанных с правильным пониманием людей, умением действовать в сотрудничестве с ними и умением общаться;

аналитическое мастерство заключается в глубоком и обстоятельном понимании образовательного процесса, знании простейших и сложных элементов системы, умении разбирать целое на части, и, наоборот, обобщать части, проверять и анализировать свою деятельность;

умение ориентироваться в служебных отношениях показывает, что управление довольно сложное обязательство, поскольку оно включает в себя несколько этапов.

В развитых странах в управлении образованием проявляется следующая современная управленческая деятельность. Нами была сравнена управленческая деятельность высших учебных заведений и организаций и функции управления в масштабах всей организации выражены следующим образом:

Целенаправленная функция включает в

себя задачи в деятельности организации для определенной цели.

Под организационной функцией понимается способность эффективно использовать имеющиеся возможности организации. В нем выражается последовательность задач, необходимых для выполнения руководителем.

Исходя из вышесказанного, приведем следующие частные функции из основных функций управления организацией:

планирование, то есть представления о том, каким будет целевой результат, этапы и методы их достижения.

Основной принцип в этом - координация руководителя и персонала;

под контролем понимается деятельность организации, ее ресурсы, импульсивность управления, а также реальная деятельность в основном контрольно-расчетном процессе;

личностно-педагогические функции, контролирующие и обеспечивающие функционирование работников организации в рамках норм и прав, принятых в обществе и на собственном предприятии;

социальная функция, при которой существуют дифференциации в деятельности и оплате труда различных профессий и наличие работников, нуждающихся в социальной защите;

стимулирующая функция заключается в материальном и моральном поощрении, заключающемся в обеспечении меры соблюдения исполнительской дисциплины.

Цели и задачи управления обуславливают управленческие отношения и регулируют компетентность управления, т.е. принцип вариативности (варьирования) содержания и формы подготовки - подход управленцев образования к личности относительно реализован ориентацией (установкой), предполагает как самостоятельно, так и комплексно определение целей и ценностей.

В этом плане подчеркивается важность обучения иностранным языкам для повышения взаимодействия между произ-

водственными предприятиями и образовательными учреждениями, а также зарубежного сотрудничества в повышении качества подготовки высококвалифицированных кадров, что предусмотрено и в нормативно-правовых актах Республики Узбекистан.

Результатами исканий, проведенных в рамках исследования, являются квалификационные требования к содержанию и качеству профессионально-практической подготовки в процессе развития управленческой компетентности специализированных кадров, взаимодействие системы профессионального развития на основе содержания образовательных программ, основанных на компетенциях, необходимость совершенствования механизмов взаимодействия системы профессионального развития и практической образовательной среды.

Теоретико-исторические основы науки управления обуславливают необходимость изучения как экономических, так и социально-психологических вопросов, таких как принципы управления, методы управления, вопросы руководства и управления в группах, качества руководителя, критерии оценки достойности руководства и классификация компетенций, присущих руководителю.

Результаты. Таким образом, у любого руководителя должна быть система управления, основанная на дисциплине. Это качество является такой спецификой личности, что она обладает способностью оказывать как экспрессивно-эмоциональное, так и волевое воздействие на других людей. Дисциплина как продукт межличностных отношений, очень эффективна. Такие факторы, как умение прочувствовать настроение сотрудников, способность понимать их в различных ситуациях, уверенность и т.п., являются эффективными критериями управляемости.

К числу показателей, раскрывающих когнитивный критерий управленческой компетентности, целесообразно отнести:

знание основных принципов публичных выступлений, требований к письменной деловой коммуникации, технологий и алгоритмов убеждения и аргументации; знание основ устной коммуникации, управ-

ления конфликтами и правовых актов; знание основ практических программ в управлении образованием, организации учебного процесса и межотраслевого взаимодействия.

“

Используя результаты нашего исследования, предлагаем рекомендации по развитию управленческой компетентности специалистов и их достижению высоких результатов в управлении с помощью следующей формулы:

УК = ПС + НЕ + МО + КМ

здесь: **УК** – управленческая компетентность;

ПС – начальный этап профессионального становления специализированных кадров, где он может влиться в организацию и найти там свое место;

СВ – самовыражение, признание специалиста организацией;

ПК – возможность проявить и применить на практике свои способности в достижении профессионального мастерства, дальнейшее их закрепление в повышении квалификации;

ПМ – достижение профессионального мастерства, считается этапом мастерства, когда специализированный кадр может проявить управленческие навыки не только в поддержке себя, но и окружающих коллег, руководя ими.

Таким образом, под функцией управления понимается совокупность видов работ, направленных на решение конкретных задач, связанных с управлением тем или иным объектом. Следовательно, управление осуществляется через определенные функции. Выявление функций, раскрытие их сущности и изучение – важное условие правильной организации процесса управления.

Это позволяет планировать и организовывать содержание, форму, методы и средства стратегии профессионального развития в управленческой деятельности с учетом индивидуальных профессиональных потребностей руководителей и педагогических кадров, существующего уровня профессиональной и управленческой компетентности. При их реализации он служит развитию управленческой компетентности специализированных кадров и повышению их эффективности на основе кластерного подхода.

Для успешного решения вышеуказанных вопросов, на наш взгляд, необходимо: обеспечить все вузы современным оборудованием, лабораториями и ин-

вентарями; сформировать научно-технические консультационные ресурсы для тех, кто заинтересован в проведении научно-исследовательских работ; создать в вузе специализированные отделы патента и маркетинга; внедрить в практику, реализовать инновационные исследовательские инициативы и создать фонд материальных поощрений для их деятельности, дающее хороший эффект.

Необходимо разрабатывать и внедрять инновационные идеи и технологии для подготовки специализированных кадров, производить инновации, связанные с интеграцией практических занятий в учебный процесс; наладить вовлечение в деятельность предприятий малого производства студенческих научных коллективов.

Можно констатировать, что большинство из перечисленных в настоящее время задач реализовано в нашем Национальном исследовательском университете.

Мы предлагаем для повышения управленческих компетентности методы, которые наблюдаются у специализированных кадров ВОО (табл. 1).

Таблица 1

Таблица отражения критерий повышения управленческих компетентности

Показатели динамики изменений	Критерии
Результативность	<i>Эрудиция, коммуникативные способности; умение эффективно применять полученные знания и навыки управленческой деятельности в практической деятельности; управленческие способности</i>
Нормативность	<i>Знание правил, инструкций, нормативно-правовых актов, регулирующих профессиональную деятельность руководителя-педагога, умение применять их в деятельности</i>
Коммуникабельность	<i>Вступление в коммуникативный диалог с руководителями и их подчиненными; умение индивидуально подходить к распределению задач и контролю за их выполнением</i>

1. Результативность: знания, коммуникативные способности; способность эффективно применять полученные знания и навыки, связанные с управленческой деятельностью, в практической деятельности; управленческие способности.

2. Нормативность: знание правил, инструкций и правовых документов, регулирующих профессиональную деятельность педагога-менеджера и умение применять их в деятельности.

3. Коммуникабельность: коммуникативное общение с руководителями и их подчиненными; умение индивидуально подходить к постановке задач и контролю их выполнения.

Выводы и рекомендации. В ходе исследовательской работы, проведенной с целью дальнейшего повышения коммуникативно-управленческого потенциала специалистов по развитию управленческой компетентности, сделаны следующие выводы:

Деятельность специализированных кадров образовательного учреждения необходим уровень готовности, связанный с самоконтролем и чувством ответственности за каждые действия, обладание необходимыми знаниями, навыками и умениями, личностными и социальными качествами, востребованными для эффективной деятельности в сфере образования, научных исследований и управления, самостоятельного принятия решений в конкретных

и нестандартных ситуациях.

Установлено, что в совершенствовании управленческой компетентности специализированных кадров образовательных учреждений важное значение имеет коммуникативное общение персонала, правильное восприятие поставленных задач и информации, их передача в зависимости от профессионально-личностных особенностей руководителя или будущих руководителей;

Педагогическое воздействие на образовательный процесс, учебные материалы, подготовленные управленческим персоналом (преподавателями, заместителями деканов или тьюторами) должны быть размещены в начале семестра на студенческой платформе в открытом доступе для всех, учебные материалы должны быть текстовыми.

В управленческой деятельности специализированных кадров образовательных учреждений необходимо полностью внедрить инновационный подход к программам руководителей по разработанным учебным планам и модулям на курсах повышения квалификации, исходя из требований, потребностей, рекомендаций, предложений, передового зарубежного опыта в развитии их творческой и управленческой компетентности.

Целесообразно оптимизировать методику формирования эффективной управленческой деятельности путем разработки



электронно-методических пособий, методических рекомендаций, способствующих совершенствованию управленческой компетентности в управленческой деятельности специализированных кадров образовательных учреждений.

Необходимо обогатить учебно-методическое обеспечение специализированных кадров образовательных учреждений по вопросам развития управленческой

компетентности посредством развития их творческого и коммуникативного поведения в управленческой деятельности, разработать и внедрить в практику факторы, методики и разработки, оказывающие положительное влияние на развитие управленческой компетентности с помощью электронных учебных методических комплексов и методических средств.

Использованная литература:

1. Зухра Исмаилова, Дурдона Мустафоева Technology for the development of media competence of students // Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 2 February 2023 uif-2022: 8.2 // Issn: 2181-3337 // scientists.uz <https://doi.org/10.5281/zenodo.7612303>
2. Белова, Е.Н. Управленческая компетентность руководителя: монография. – Красноярск: Красноярский государственный университет, 2018. – 273 с.
3. Бордовской Н.В. Современные образовательные технологии: учебное пособие/под ред.. – М.: КНОРУС, 2010
4. Мустафоева Д.А. Развитие управленческой компетентности специализированных кадров // Евразийский журнал академических исследований, №4(7), <https://in-academy.uz/index.php/ekar/article/view/35305> DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12792215>. – С.102–109.
5. Лукшаенко М.А. Профессиональные компетенции руководителя как фактор конкурентоспособности компании. Профессиональные компетенции. Материалы портала Smart education 2009/6/(18).
6. Кудрявцева Е.И. Компетенция и менеджмент: компетенции в менеджменте, компетенции менеджеров, менеджмент компетенции. Санкт Петербург, 2012–340 с.
7. Мустафоева Д.А. Основы развития управленческой компетентности у педагогов // Innovative development in the global science - 2022. Boston, USA Abstracts of VIII International Scientific and Practical Conference, 6-part, 91-97 pages.
8. Загивная Т.А. Профессиональный стандарт: осмысление и опыт внедрения кафедры управления. Образование: ресурсы развития. // Вестник ЛОИРО. – 2017. – № 1. –С. 24-30
9. Мустафоева Д.А. Развитие управленческой компетентности специализированных кадров // Евразийский журнал академических исследований, №4(7), <https://in-academy.uz/index.php/ekar/article/view/35305> DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12792215>. – С.102–109.

TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA TEXNIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Xalikova Nargiza Abduvaliyevna,

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”

Milliy tadqiqot universiteti mustaqil izlanuvchisi,

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya:

Maqolada muallif talabalarga yuqori talablarni qo‘yish bilan birga ularda ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorgarlik ko‘rishlarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirib borish ham kerak bo‘ladi. Shu bilan birga amaldagi ta‘lim standartlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, elektr energetika, issiqlik energetika, muqobil energetika va shu kabi strategik muhim sohalar uchun talabalarda muhandislik ko‘nikmalarini shakllantirishni ta‘minlaydigan fanlarga e‘tibor qaratish alohida ahamiyat kasb etishi haqida so‘z yuritgan.

Kalit so‘zlar:

ta‘lim samaradorligi, o‘quv jarayoni, kompetentlik, ta‘lim texnologiyalari, kasbiy kompetentlik, texnik ko‘nikmalar.

Аннотация:

В статье автор ставит перед студентами высокие требования, при подготовке к производственной практике у них также необходимо будет развивать исследовательские навыки. В то же время анализ действующих образовательных стандартов показал, что для стратегически важных отраслей, таких как электроэнергетика, теплоэнергетика, альтернативная энергетика и т. д., особое значение приобретает акцент на дисциплинах, обеспечивающих развитие инженерных навыков у студентов.

Ключевые слова:

образовательная эффективность, учебный процесс, компетентность, образовательные технологии, профессиональная компетентность, технические навыки.

Abstract:

In the article, the author sets high demands on students, and they will also need to develop research skills in preparation for practical training. At the same time, an analysis of current educational standards has shown that for strategically important industries such as electric power, thermal power, alternative energy, etc., the emphasis on disciplines that ensure the development of engineering skills among students is of particular importance.

Key words:

educational efficiency, learning process, competence, educational technologies, professional competence, technical skills.

Kirish. Dunyoda ta‘lim orqali shakllantirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar – ilmiy-texnik va texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali yaratilgan raqobatbardosh tovarlar, mahsulotlar, ishlar, xizmatlarni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Talabalarni ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorlash va ularni ishlab chiqarish faoliyatining barcha bosqichlariga kiritish asnosida tashkil etilishi lozim. Buning uchun oliy ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim samaradorligini oshirish, ilmiy-texnikaviy hamda ta‘lim salohiyatini kuchaytirish, mustahkamlash, uni rivojlantirishga yo‘naltirish yo‘llarini izlash asosida innovatsion rivojlantirishning majmuaviy strategiyasini amalga

oshirish lozim.

Mamlakatimizda zamonaviy muhandislarni tayyorlash uchun oliy ta‘lim bilan ishlab chiqarish tizimining uyg‘unlikdagi samarali texnologiyalar transferini ta‘minlash, talabalarining mustaqil ta‘lim olish imkoniyatlarini yaratish uchun yangi talablarni, ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish holatlarini kengaytirish lozimdir. Talabalarga yuqori talablarni qo‘yish bilan birga ularda ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorgarlik ko‘rishlarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirib borish ham kerak bo‘ladi. Shu bilan birga amaldagi ta‘lim standartlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, elektr energetika, issiqlik

energetika, muqobil energetika va shu kabi strategik muhim sohalar uchun talabalarda muhandislik ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlaydigan fanlarga e'tibor qaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda mutaxassislarni tayyorlash va ishlab chiqarish amaliyotiga yo'naltirishda, ularga maksimal miqdorda bilim va ko'nikmalar berish yetarli emas.

Oliy ta'limni o'quv jarayoniga ilmiy-nazariy bilimlarni taqdim etish bilan kifoyalanmay talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga hamda ijodiy mehnat qilishga tayyorlashning yangi-yangi metodlarini o'ylab topish, mavjud metodlarni takomillashtirish zarur va bu orqali mehnat bozoriga kerakli yetuk kadrlarni tayyorlashga erishish mumkin.

O'quv materiallarning samaradorligini oshirish uchun o'qitish tartibi va tizimini pedagog tomonidan to'g'ri yo'lga qo'yilishi lozim.

An'anaviy tarzda o'quv jarayonini tashkil etish tizimi o'rtasida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonini alohida bosqichlarida ma'lum uzilishlar mavjud. Buning sababi o'quv mashg'ulotlarining alohida turlari o'quv jarayonini biror bosqichini faollashtirishga mo'ljallangan bo'lishligidir.

Metodlar. Har qanday o'quv mashg'uloti samarali bo'lishida, talaba nafaqat mashg'ulotni maqsadini bilishi balki, maqsadga erishish usullarini ham o'zlashtirishi kerak. Mashg'ulotda mavzu bo'yicha nazariy hamda amaliy va ishalb chiqarishdagi energetika sohasidagi energetika sohasidagi yetarli bilimga ega bo'lganlaridagina talabalarda elektr energetika sohasidagi qo'yilgan muammolarni hal etish ko'nikmalari shakllana boshlaydi.

Kompetentlikning o'zi pedagogda umumiy dunyoqarashning kengligi va madaniyatning yuqorililigi, pedagogika, psixologiya, boshqaruv nazariyasi va ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari bo'yicha kasbiy bilimlarining mavjudligi, o'z bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga layoqatlilik, ijtimoiy va psixologik-pedagogik

tadqiqotlar metodlarini bilish, pedagogik va boshqaruv ko'nikmalarining zaruriy majmua-siga ega bo'lishni nazarda tutadi, ya'ni kompetentlik – shaxsning murakkab, yaxlit bir butun, ko'p omilli, ko'pqirrali sifatidir. Kompetentlik alohida jihatlariga ko'ra tadqiq qilinsa ham, umuman olganda, fundamental pedagogik muammo sifatida hali nafaqat yechimi topilmagan, balki, muammo sifatida ham yetarlicha shakllantirilmagan. Xususan, kompetentlik yondashuvini tizimli tahlil etishga, uni kasbiy ta'limda qo'llashning nazariy-metodologik va didaktik asoslarini aniqlashga doir ishlar juda kam deb aytish mumkin.

A.K.Markovanning fikricha, kasbiy kompetentlik – mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini egallaganligining sifat ko'rsatkichi bo'lib, mazkur faoliyatga nisbatan o'zining moyilligini anglash, o'zining shaxsiy xislat va sifatlarini baholay olish, o'zining kasbiy jihatdan shakllanishini to'g'ri yo'naltira bilish, o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini tarbiyalay olishini nazarda tutadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, kasbiy kompetentlikning tuzilmasi uch tarkibiy qism: mazmuniy, motivatsion va ijro etish (amalga oshirish)dan iborat.

V.A.Yakunin kasbiy kompetentlikni kengroq ma'noda talqin qiladi va uni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratadi: kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar tizimi, kasbiy masalalarni mustaqil ravishda ijodkorona hal etishga intilish va qodirlik, odamlar bilan ishlashga va ularni boshqarishga ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorgarlik, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuklik, siyosiy madaniyat.

Demak, kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiluvchi talablar nuqtayi nazaridan kompetentlik talabalarning bilim, malaka va faoliyat usullari to'plamini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi.

Kompetentlik – bu bo'lajak mutaxassisning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur o'rinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to'la ochiladi, u quyidagi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatleri to'plami;
- kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida.

Tahlil, kuzatuv va fikr-mulohazalarni hisobga olgan holda hamda sohaga oid izlanish va tadqiqotlar asosida talabalarni texnika ixtisosliliklarida muhandislikka tayyorlash muammosini hal qilishda mazkur tadqiqot ishimizda muhandislik faoliyatidagi kompetentlik kombinatsiyasi sifatida quyidagi:

bilim (umumiy madaniy kompetensiyalar - fundamental, "iqtisodiy, ma'naviy, ekologik bilimlarga ega bo'lish;

kasbiy kompetensiyalar - umumiy texnik, kasbiy, fanlararo, huquqiy, maxsus bilimlarga ega bo'lish);

faoliyat (umumiy madaniy kompetensiyalar qarorlar qabul qilish, jamoada ishlash, ma'lumot olish va ulardan foydalanish, me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish faoliyati ko'nikmalari;

muammoni aniqlash, tahlil qilish, vazifa qo'yish, yechimni izlash, loyihalash, ixtiro qilish, natijalarni boshqarish qobiliyati;

intellektual faoliyat, yechimni yakuniy shaklda taqdim etish, texnik tizimlarni taqdim etish va moslashtirish, ijodiy faoliyat vositalaridan foydalanish ko'nikmalari - ixtirochilik muammolarini hal qilish usullari, patent tadqiqotlari); motivatsiyani oshirish (shaxs va jamiyat ehtiyojlari, rag'batlantirish, qiziqish), psixologik imkoniyatlar - intellekt, o'rganish qobiliyati, moyillik, ijodkorlik, muloqot qobiliyatlari;

refleksiyaning rivojlantirish - o'zi-o'zini kuzatishi, o'zi-o'zini tahlil qilish, o'zi-o'zini baholash, o'zi-o'zini nazorat qilish kabi komponentlarni taqdim etiladi.

Talabalarining texnik ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslangan dinamik o'quv mashqlarini yaratish uchun ma'lumotlarni yig'ish usullari qo'llanilishi mumkin.

Ushbu faoliyat jarayonida quyidagi ko'nikmalar shakllanadi va rivojlanadi:

- savol berish qobiliyati;
- asosiy fikrlarni ta'kidlashda ishonchga tayanish;
- sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish va xulosalar chiqarish;
- muammoni bir butun sifatida tushunib, ma'lumotlardan umumiyga aylantirish;
- taqqoslash va tahlil qilish;
- analoglarni topish va ularni tahlil qilish.

J.Gilford ijodkorlikning belgilarini aniqlagan bo'lsa, M.N.Gnatko esa kreativlikning komponentlarini umumlashtirgan. Bu esa, talabalar-da texnik kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida har bir pedagog belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'lini tanlaydi degan ilmiy xulosaga kelishimizga sabab bo'ladi. Masalan an'anaviy metodlar (uning asosida falsafiy va pedagogik tizimlar tashkil etadi), ko'rgazmali metodlar, aks ettiruvchi metodlar, kitob bilan ishlash metodi, video metodlar.

Bu borada maqsadga ko'ra metodlarning turlarini tahlil etar ekanmiz ularni ikki toifaga ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- didaktik maqsadi bo'yicha metodlarning turlari;

- qabul qilish-bilish faoliyati xarakteri bo'yicha metodlarning klassifikatsiyasi;

Natijalar. Talabalarining texnik kompetentligini rivojlanishining didaktik imkoniyatlarini takomillashtirishda mazkur metodlar o'ziga xos vazifalarni bajaradi ya'ni motivlashtiruvchi, tashkillashtiruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy. Demak, talabalarining ijodkorlik kompetentligini rivojlantirishda ta'lim metodlarini ham maqsadga muvofiq tanlash va o'z o'rnida qo'llash talab etiladi.

Shuningdek ta'lim (o'qitish) vositalari (didaktik vositalar): tarbiyachilar va talabalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish uchun qo'llaniladigan moddiy va ideal obyektlar ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni hal etishga yordam beradi;

ikkinchidan tarbiyachi va talaba tomonidan ta'lim jarayonida qo'llanadigan turli obyektlar; quyidagilarni ta'minlaydigan jihozlar, yordamchi ta'lim vositalari va o'quv-ijodkorlik materiallari:

- o'quv materialini namoyish etish va vizualizatsiyalash, uni tushunish va eslab qolish;
- o'quv materialini mustaqil tarzda mustahkamlash va qo'llash uchun imkoniyat yaratadi.

Talabalarining texnik kompetentligini rivojlantirishda o'quv - metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o'quv dasturlari, o'quv rejasi, ma'ruza matnidan oqilona foydalanish muhim pedagogik

omil bo'lib hisoblanadi.

Talabalarda texnik kompetentlari asosini shakllantirishga yordam beradigan umumiy texnik tayyorgarligining mazmuni quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Maxsus fanining ichki integratsiyasi: innovatsion tizimlar, muhandislik ijodiyati, intellektual huquq va patent tadqiqotlarining fan ichiga integratsiyasi, talabalarning muhandislik faoliyatini tajribali va yetarli tarzda o'rganishda katta ma'naviy yordam beradi.

2. Tabiiy fanlar, umumiy texnik va maxsus sikllar: tabiiy fanlar, umumiy texnik va maxsus sikllar bilan bog'liq bo'lgan o'quv materiallari talabalarga texnik faoliyatini o'rganishda asosiy bilimlar haqida kengroq tushuncha beradi.

3. Mustaqil ish: talabalar o'zlarini mustaqil yondashuvga o'rgatish orqali muhandislik faoliyatini kompetentliklari asosini oshirishga yordam beradi, ularni o'z fikrlarini ilg'orlash va innovatsion mahsulotlar yaratishda o'zlarini rivojlantirishga imkoniyat tanlashadi.

4. Innovatsion muhitda o'qitish: talabalarga innovatsion muhitda o'qitish o'rganishning eng zamonaviy va eng samarali usullarini tajriba hisoblangan, ularni yangilik va yaratish yo'lida o'rgatishga yordam beradi.

Xulosa va tavsiyalar. Shunday qilib, tadqiq va tahlillar natijasida aniq maqsadli, konseptual, texnologik va refleksiv tashxislash komponentlarini o'z ichiga olgan pedagogik model, oliy ta'limning texnika ixtisosliklarida

ta'lim olayotgan talaba-yoshlarning bo'lajak muhandislik faoliyatiga yo'naltirilgan. Model oliy-ta'lim jarayonida talabalarni muhandislik sohasiga tayyorlashda ularning burch va vazifalariga asoslanadi. Bu model talabalarni amaliyotlarga, o'zlashtirish va tajribaga asoslangan o'quv usullari orqali muhandislik faoliyatlarini o'rganishda va faol amalda qo'llashda yordam beradi.

Talabalarni texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlarida energetika sohasidagi axborot texnologiyalari negizida o'qitish metodikasini ishlab chiqish va pedagogik tajriba-sinovlarda tekshirib ko'rib bilan bog'liq nazariy va amaliy tadqiqotlar quyidagi xulosalarni bayon qilishimiz uchun zamin yaratdi:

1. Talabalarni texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlarida maxsus fanlarni o'qitish metodikasini ishlab chiqish masalasining hal etilishi pedagogik jarayonlarni yanada takomillashtirish, energetika majmuasiga kiruvchi fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish, talabalarning yangi bilimlarni bevosita o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratish, bo'lajak mutaxassislarning yangi kasbiy va shaxsiy sifatlarini shakllantirish kabi qator masalalarning ijobiy yechim topishi uchun xizmat qiladi.

3. Ta'limning zamonaviy bosqichida bo'lajak mutaxassisni tayyorlash vazifasiga nisbatan predmetli yondashuvni funksional yondashuv bilan to'ldirish va takomillashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Ped.fan.nomzod.diss. avtoref. T.:2019. -15 b.
2. Андреев, А.Л. Компетентностная парадигма в образовании: опыт философско-методологического анализа // Педагогика. – 2005. – № 4. – С.19-26
3. S.Y.Axmadaliyev. Bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashishining ilmiy-metodik asoslari.: Ped.fan.nom....diss. – T. – 187 b.
4. Зеер Э.Ф. Психолого-дидактические конструкты качество профессионального образования. // М.: "Образование и наука" журнал. 2002. №2. С. -14.
5. Adilov B.B Umumkasbiy fanlarni o'qitish asosida bo'lajak muhandislarni loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish metodikasi. Ped.fan.fals.dok. diss..avtoreferati/ Jizzax-2023
6. Daminov Ta'limda modulli texnologiyani qo'llashning tahlili va mohiyati// Pedagogik mahorat. Buxoro, 2007. -№1, – 11-14b.

KOMPETENSIYALARNI MOBILLASHTIRISH ASOSIDA PROFESSIONAL TA'LIM TALABALARINI O'QITISH AMALIYOTINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODIKASI

Jamolov Anvar Kuchkorovich,

Professional ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada kompetensiyalarni mobillashtirish asosida professional ta'lim talabalarini o'qitish va ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etish metodikasi tahlil etiladi. O'zbekiston mehnat bozorining global raqobat va texnologik o'zgarishlar ta'sirida tez o'zgarayotgan sharoitida, zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash uchun innovatsion yondashuvlar va amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim strategiyalari muhim o'rin tutadi. Kompetensiyalarni mobillashtirish tamoyillari nazariy bilimlarni amaliy qo'llash bilan uyg'unlashtirish, texnologik moslashuvchanlikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar:

Maqolada kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy bosqichlari batafsil yoritilgan: boshlang'ich tayyorgarlik, sohaga oid kompetensiyalarni shakllantirish, mustaqil faoliyat, jamoaviy ish va konstruktiv muloqot, liderlik va innovatsion faoliyat.

Kompetensiyalarni mobillashtirish, professional ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti, innovatsion ta'lim metodlari, nazariya va amaliyot integratsiyasi, texnologik moslashuvchanlik, tanqidiy fikrlash, mustaqil ish va jamoaviy faoliyat, simulyatsion ta'lim, liderlik va innovatsion fikrlash.

Аннотация:

В данной статье будет проанализирована методика эффективной организации обучения и производственной практики студентов профессионального образования на основе мобилизации компетенций. В условиях стремительно меняющегося рынка труда Узбекистана под влиянием глобальной конкуренции и технологических изменений важное место занимают инновационные подходы к подготовке современных специалистов и стратегии обучения, ориентированные на практику. Принципы мобилизации компетенций включают сочетание теоретических знаний с практическим применением, развитие технологической гибкости, формирование критического мышления и навыков решения проблем. В статье подробно описаны основные этапы развития компетенций: первичная подготовка, формирование отраслевых компетенций, самостоятельная деятельность, командная работа и конструктивное общение, лидерская и инновационная деятельность.

Ключевые слова:

мобилизация компетенций, профессиональное обучение, производственная практика, инновационные методы обучения, интеграция теории и практики, технологическая гибкость, критическое мышление, Независимая работа и командная деятельность, симуляционное обучение, лидерство и инновационное мышление.

Abstract:

This article analyzes the methodology for the effective organization of training and production practices of students of professional education based on the mobilization of competencies. In the rapidly changing conditions of the Uzbek labor market under the influence of global competition and technological changes, innovative approaches and practice-oriented educational strategies for training modern specialists occupy an important place. The principles of competency mobilization include the harmonization of theoretical knowledge with practical application, the development of technological flexibility, the formation of critical thinking and problem-solving skills. The article details the main stages of the development of competencies: initial training, formation of competencies related to the field, independent activities, teamwork and constructive communication, leadership and innovative activities.

Keywords:

competency mobilization, professional Education, production practice, innovative educational methods, theory and practice integration, technological flexibility, critical thinking, independent work and team activities, simulation education, leadership and innovative thinking.

O'zbekistonning mehnat bozori global raqobat va texnologik o'zgarishlar ta'sirida tez sur'atlarda o'zgarmoqda. Bunday sharoitlarda professional ta'lim tizimining asosiy vazifasi – zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan, amaliyotga moslashuvchan va innovatsion yondashuvlarga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Mamlakatda ta'lim-ishlab chiqarish aloqalarini mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, xususan, ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil qilish orqali talabalarning kasbiy va amaliy kompetensiyalarini kuchaytirishga qaratilgan. Bunda raqamli texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini simulyatsiya qilish va interaktiv metodlarni qo'llash kabi yondashuvlar zamonaviy ta'lim strategiyasining muhim qismi sifatida ko'rib chiqilmoqda.

Kompetensiyalarni mobillashtirishning asosiy tamoyillari.

Kompetensiyalarni mobillashtirishning asosiy tamoyillari talabalarning ishlab chiqarish jarayonida mustaqil va samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan.

Kompetensiyalarni mobilizatsiya qilishning asosiy prinsiplari talabalarni real ishlab chiqarish muhitlarida mustaqil va samarali faoliyat ko'rsatish uchun zarur ko'nikmalar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan. Bu prinsiplar nazariy bilimlarni amaliy qo'llash bilan uyg'unlashtirish, texnologik moslashuvchanlikni rivojlantirish va tanqidiy fikrlash hamda muammolarni yechish ko'nikmalarini yaxshilashni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvlar zamonaviy sanoat ehtiyojlarini qondirishga va tez o'zgaruvchi ish muhitlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi bo'limlarda ushbu jihatlar har tomonlama yoritilib, turli kontekstlardan misollar keltirilgan.

Nazariya va amaliy qo'llash integratsiyasi.

Nazariy bilimlarni amaliy qo'llash bilan uyg'unlashtirish kompetensiyalarni mobilizatsiya qilishda asosiy o'rin tutadi. Bu yondashuv talabalarning olgan bilimlarini real hayotda qo'llashini ta'minlab, bilimlarni o'zlashtirish va saqlashni osonlashtiradi. Masalan, tibbiyot talabalari DICOM kabi platformalarda vizual

diagnostika mashqlarini bajarib, nazariy konsepsiyalarni nazorat qiluvchi, biroq realistik muhitda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar [1].

Bu integratsiya faqat tibbiyot sohasi bilan chegaralanib qolmay, balki barcha sohalarda qo'llaniladi. U talabalarni o'z sohasidagi qiyinchiliklarga tayyorlashni ta'minlaydi.

Texnologik moslashuvchanlik.

Texnologik moslashuvchanlik kompetensiyalarni mobilizatsiya qilishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, talabalarni zamonaviy vositalar va texnologiyalardan foydalanishga tayyorlaydi.

Raqamli vositalar va zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish talabalarning raqobatbardoshligini oshiradi va ularni sohadagi so'nggi yutuqlar bilan tanishtiradi [2]. Masalan, zamonaviy tibbiy uskunalarda diagnostika ko'nikmalarini rivojlantirish talabalarni texnologik jihatdan ilg'or sog'liqni saqlash muhitlarida faoliyat yuritishga tayyorlaydi [3].

Tanqidiy fikrlash va muammolarni yechish ko'nikmalari.

Tanqidiy fikrlash va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirish talabalarga murakkab ish sharoitlarida tezkor va samarali qarorlar qabul qilish uchun zarur. Real klinik holatlar asosida Keys tahlillarini o'tkazish kabi mashg'ulotlar talabalarga ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi, bu ularning muammolarga uslubiy va ijodiy yondashishiga yordam beradi. Bu ko'nikmalar nafaqat klinik muhitlarda, balki tezkor qarorlar qabul qilish va muammolarni yechish zarur bo'lgan boshqa sohalarda ham zarurdir.

Kompetensiyalarni mobilizatsiya qilish prinsiplari talabalarning ishga tayyorligini oshirishga qaratilgan bo'lsa-da, bu yondashuvlar bilan bog'liq kengroq masalalar va muammolarni ham hisobga olish muhim. Masalan, ta'limda texnologiyalarni va amaliy qo'llashni integratsiya qilishda akademik erkinlik va o'z-o'zini tashkil qilish tamoyillari saqlanishi kerak [4]. Shuningdek, texnologik moslashuvchanlikka urg'u berish asosiy bilimlar va tanqidiy fikrlashning ahamiyatini soya ostida qoldirmasligi zarur. Bu ko'nikmalar har qanday sohada uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun muhimligicha qoladi.

Kompetensiyalarni mobillashtirish asosida professional ta'lim talabalarini innovatsion faoliyatga tayyorlash bosqichlari.

Kompetensiyalarni mobillashtirish jarayoni – bu o'quvchilarni mehnat bozori va ishlab chiqarish muhiti talablariga mos keladigan yetuk mutaxassislar sifatida tayyorlashni ta'minlovchi uzluksiz va tizimli yondashuv. Ushbu jarayon quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Boshlang'ich bosqich: nazorat va tayyorgarlik.

Tibbiyot sohasida innovatsion faoliyatga tayyorgarlikning dastlabki bosqichi, ayniqsa, kuzatuv va o'quv jarayonlariga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarining nazariy bilimlari asosida kasbiy tayyorgarlikning asosiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu bosqich nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan yondashuvni o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilarni tibbiyot kasbidagi dinamik va o'zgaruvchan talablarga tayyorlashni ta'minlaydi. Jarayonga nazariy asoslarni tushuntirish, amaliy jarayonlar uchun yo'riqnomalar berish va o'ziga xos kompetensiyalarga muvofiq individual dasturlarni ishlab chiqish kabi faoliyatlar kiradi.

Asosiy nazariy bilimlarni tushuntirish.

Nazariy bilimlar tibbiy ta'limning asosiy ustuni bo'lib, talabalarga zarur ilmiy va klinik bazani ta'minlaydi. Zamonaviy texnologiyalar va ta'lim metodlarini o'quv dasturlariga integratsiya qilish orqali o'quv jarayoni natijadorligi oshiriladi[5].

Masalan, NYU Grossman School of Medicine dagi Biomedical Entrepreneurship Skills Development Program (BEEP) dasturi tibbiyot va biznes bilimlarini uyg'unlashtirib, talabalarni tibbiyotdagi innovatsiyalar tijorat jihatlariga tayyorlash muhimligini ta'kidlaydi[6].

Amaliy mashg'ulotlar nazariy bilimlarni real hayotda qo'llash bilan bog'lash uchun zarur. Bu maxsus bilimlar va ko'nikmalarni rivojlantiruvchi tizimli yo'riqnomalarni o'z ichiga oladi. Masalan, Princess Nourah Universitydagi stajirovkaga tayyorgarlik dasturi klinik va muloqot ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan

bo'lib, akademik ta'limdan amaliy faoliyatga oson o'tish imkonini beradi [7].

Kompetensiyalarga muvofiq individual dastur ishlab chiqish.

Individual o'quv dasturlari tibbiyot sohasida talab qilinadigan o'ziga xos kompetensiyalarni inobatga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Bunday dasturlar tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik va doimiy kasbiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Masalan, tibbiy ta'limdagi fanlararo integratsiya yondashuvi klinik, bioetik va huquqiy bilimlarni uyg'unlashtirish orqali talabalarining dunyoqarashini kengaytirib, ularning muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish muhimligini ta'kidlaydi[8].

Innovatsion fikrlash va rivojlanishga yo'naltirilgan yondashuv.

Tibbiyot sohasida innovatsion faoliyatga tayyorgarlikning dastlabki bosqichi faqatgina bilim berish bilan cheklanmay, o'zgarishlarga va innovatsiyalarga yo'naltirilgan fikrlashni shakllantirishga qaratilgan. Nazariy va amaliy ko'nikmalarining mustahkam asosini yaratishga qaratilgan holda, o'quvchilarni mulohazakorlik, o'zini baholash va rivojlantirish jarayonlariga jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday har tomonlama yondashuv kelajak tibbiy mutaxassislarining nafaqat texnik ko'nikmalarga ega bo'lishini, balki tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasidagi doimiy o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lishini ham ta'minlaydi.

2. Asosiy bosqich: Sohaga oid kompetensiyalarni shakllantirish.

Tibbiyot sohasida kompetensiyalarni, ayniqsa, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini shakllantirish ko'p qirrali jarayondir. U turli ta'lim strategiyalarini o'z ichiga olib, simulyatsiyali ta'lim jarayonlarini integratsiya qilish, keys tahlili metodlarini qo'llash, tanqidiy fikrlash va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuvlar nazariy bilimlar va amaliy qo'llash o'rtasidagi bo'shliqni to'ldirib, tibbiyot yo'nalishi talabalarini haqiqiy klinik qiyinchiliklarga tayyorlashni maqsad qiladi.

Ta'lim yondashuvi	Tavsif
Simulyatsiyali ta'lim jarayonlari	<i>Simulyatsiya texnologiyalari tibbiy ta'limning asosiy tayanchiga aylanib, talabalarga xavfsiz va nazorat qilinuvchi muhitda klinik ko'nikmalarni mashq qilish imkonini beradi. Bu metod patsient xavfsizligini ta'minlash bilan birga klinik fikrlash va jamoaviy ish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Simulyatsiyadan foydalanish talabalarga haqiqiy klinik holatlarni takrorlaydigan realistik ssenariylarda ishtirok etish imkonini beradi, bu esa ularning nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini kuchaytiradi [9].</i>
Keys tahlili yondashuvi	<i>Haqiqiy vaziyatlarni keys tahlili orqali o'rganish tibbiy ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu yondashuv talabalarni nazariy bilimlarini patsientlarni diagnostika qilish va boshqarishda qo'llash orqali muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Keys tahlili talabalarni dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga undaydi. Bu kelajakdagi shifokor sifatida ularning muvaffaqiyati uchun muhimdir [10].</i>
Tanqidiy fikrlash va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirish	<i>Ilmiy muhokamalar va hamkorlikka asoslangan o'quv faoliyatlari tibbiyot yo'nalishi talabalari o'rtasida tanqidiy fikrlash va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu faoliyatlar talabalarni tengdoshlari bilan muloqot qilishi, bilim almashishi va tibbiyot konsepsiyalarini chuqurroq tushunishiga yordam beradi. Kompetensiyaga asoslangan o'quv dasturlari ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga urg'u beradi, chunki ular talabalarining kasbiy rivojlanishi va sog'liqni saqlash jamoasida samarali faoliyat ko'rsatishi uchun muhimdir [11].</i>
Kompetensiyaga asoslangan ta'limni integratsiya qilish	<i>Kompetensiyaga asoslangan tibbiy ta'lim (CBME) talabalarining klinik sharoitlarda zarur vazifalarni samarali bajara olishini ta'minlaydigan integratsiyalangan va kontekstlashgan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuv individuallashtirilgan bo'lib, vaqtga bog'liq emas. U talabalarga o'z tempida kompetensiyaga erishish imkonini beradi, bu esa ularning kasbiy faoliyatga to'liq tayyorligini ta'minlaydi [12].</i>

Simulyatsiya, keys tahlili va tanqidiy fikrlashga urg'u berish muhim bo'lsa-da, ushbu metodlarni joriy etish bilan bog'liq ayrim muammolar mavjud. Masalan, simulyatsiyali ta'limni amalga oshirish katta moliyaviy va infrastruktura resurslarini talab qiladi, bu esa har doim ham ta'lim muassasalarida mavjud emas. Shuningdek, keys tahlili va munozaralarning samaradorligi talabalarining ishtirok darajasi va o'qituvchilarning tashkil qilish ko'nikmalariga bog'liq.

Shunga qaramay, ushbu ta'lim strategiyalarini integratsiya qilish malakali va raqobatbardosh tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash uchun muhimdir. Ular talabalarni sog'liqni

saqlash sohasidagi murakkab vazifalarga tayyorlashda asosiy ahamiyat kasb etadi.

3. Mustaqil faoliyat bosqichi.

Tibbiyot texnikumlarida o'quvchilarning mustaqil ishlash va yangi texnologiyalarga moslashish qobiliyatini rivojlantirish klinik va ishlab chiqarish sharoitlarida yuz beradigan haqiqiy qiyinchiliklarga tayyorgarlik ko'rishda muhim ahamiyatga ega. Mustaqil faoliyat bosqichlari talabalarining mustaqillik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayon talabalarni amaliy jarayonlarga jalb qilish, ularni real muammolarni mustaqil hal qilishga undash va qaror daraxtlari hamda algoritmlar

tuzishga yo'naltirishni o'z ichiga oladi. Quyi-da tibbiy ta'limda mustaqil faoliyatni amalga oshirishning asosiy jihatlari bayon etilgan.

Mustaqil ishning ahamiyati:

Faol o'quvchilarni shakllantirish. Mustaqil ish talabalarni ma'lumotlarni passiv qabul qiluvchilardan faol qayta ishlovchi shaxslarga aylantiradi. Bu ularning yangi bilimlarni kasbiy muhitlarda egallash, qayta ishlash va qo'llash qobiliyatini oshiradi.

Kompetensiyalarni rivojlantirish. Mustaqil ish zamonaviy tibbiy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, standart va noan'anaviy vaziyatlarda qarorlar qabul qilish kabi umumiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayon klinik fikrlashni rivojlantirish, ijodiy tasavvur va aniq klinik holatlarda tibbiy taktikani modellashtirish qobiliyatini oshiradi [13].

Texnologiya va innovatsiyaning roli:

Moslashuvchan o'quv texnologiyalari. Moslashuvchan o'quv texnologiyalari va qo'llab-quvvatlovchi vositalar talabalarning mustaqil o'quv tajribasini yaxshilaydi, fanga oid va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiradi va ijodiylikni rag'batlantiradi [14].

Kompyuter o'quv texnologiyalari. Kompyuter o'quv texnologiyalari zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, talabalarga ma'lumotlarni tashkil qilish va qayta ishlash imkonini beradi. Bu mustaqil ishni samarali tashkil qilish uchun muhimdir [15].

Elektron ta'lim muhitidan foydalanish. Elektron ta'lim muhiti mustaqil ishni tashkil qilish uchun tuzilgan modellarni taqdim etib, kasbiy tayyorgarlik sifatini sezilarli darajada oshiradi [16].

Mustaqil o'quv jarayonida o'qituvchining roli:

Yo'naltiruvchi va metodik yordam. O'qituvchilar mustaqil ish jarayonini boshqarishda va unga yo'nalish berishda muhim rol o'ynaydi. Ular talabalarga topshiriqlarni tashkil qilish, metodik qo'llab-quvvatlash va ularning natijalarini baholashda yordam beradilar.

Differensial yondashuv. Talabalarning individual ehtiyojlarini inobatga olish uchun differensial yondashuv muhimdir. Bu topshiriqlarni ularning imkoniyatlari va maqsadlariga muvofiq ravishda muvofiqlashtirishni talab etadi.

4. Jamoaviy ishlash va konstruktiv muloqot bosqichi.

Tibbiyot texnikumlari o'quvchilarida jamoaviy ish va konstruktiv kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega. Ta'limning bu bosqichi talabalarni samarali jamoaviy ishlashga, turli kasb vakillari bilan konstruktiv muloqot qilishga va vazifalarni samarali muvofiqlashtirishga tayyorlashga qaratilgan. Asosiy vazifalar jamoaviy ish ko'nikmalarini shakllantirish, konstruktiv kommunikatsiyani rivojlantirish va kasbiy hamkorlik hamda vazifalarni muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan. Bu kompleks yondashuv talabalarni zamonaviy sog'liqni saqlash muhitining murakkabliklariga tayyorlashni ta'minlaydi.

Quyida ushbu ta'lim bosqichining asosiy jihatlari keltirilgan.

Jamoaviy ish ko'nikmalarini shakllantirish:

Ishonch va hamkorlik. Jamoa a'zolari o'rtasida ishonchni shakllantirish samarali jamoaviy ishlash uchun asosiy omil hisoblanadi. Ishonch hamkorlikni va o'zaro qo'llab-quvvatlashni rag'batlantirib, umumiy maqsadlarga erishishni osonlashtiradi.

Rollarni belgilash va mas'uliyatni aniqlash. Har bir jamoa a'zosining roli va mas'uliyatini aniq belgilash vazifalarni tashkil qilish va hisobdorlikni ta'minlashda muhimdir. Bu aniqlik tushunmovchiliklarning oldini olib, jamoa samaradorligini oshiradi.

Vazifalarni taqsimlash. O'quvchilar o'rtasida vazifalarni samarali tashkil qilish va taqsimlash har bir a'zoning kuchli tomonlaridan foydalanishga yordam beradi hamda ish yukini mutanosib taqsimlaydi.

Konstruktiv kommunikatsiyani rivojlantirish:

G'oya almashish va tinglash. O'quvchilarni g'oyalar bilan bo'lishish va bir-birlarining fikrlarini faol tinglashga o'rgatish konstruktiv kommunikatsiya uchun muhimdir. Bu ko'nikma turli nuqtayi nazarlarni tushunish va hamkorlik muhitini shakllantirishga yordam beradi.

Murosa qilish ko'nikmalari. Murosa qilish ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilarni mojarolarni konstruktiv hal qilishga o'rgatadi. Konstruktiv mojarolar turli nuqtayi nazarlarni uyg'unlashtirish orqali innovatsion yechimlar

ishlab chiqishga yordam beradi.

Munosabatlarni saqlash. Konstruktiv kommunikatsiya kasbiy munosabatlarni saqlashga yordam beradi, bu uzoq muddatli hamkorlik uchun juda muhimdir.

Kasbiy hamkorlik va vazifalarni muvofiqlashtirish:

Kasblararo hamkorlik. Shifokorlar, hamshiralar va farmatsevtlar kabi turli kasb vakillari o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil qilish, bemorlarga kompleks yordam ko'rsatish uchun zarur. Bu hamkorlik har bir kasbning rolini tushunish va ularning tajribasini uyg'unlashtirishni talab qiladi[17].

Vazifalarni muvofiqlashtirish. Jamoa ichidagi vazifalarni umumiy maqsadga yo'naltirib muvofiqlashtirish barcha harakatlarni muvofiqlashtirish va resurslarni samarali ishlashni ta'minlaydi. Bu, ayniqsa, sog'liqni saqlash sharoitlarida ko'zlangan natijalarga erishish uchun juda muhimdir[18].

Qiyinchiliklar va istiqbollar. Jamoaviy ish va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarda ayrim qiyinchiliklar uchrashi mumkin. Masalan, an'anaviy iyerarxiyalarning va psixologik xavfsizlikning yo'qligi samarali hamkorlikka to'sqinlik qilishi mumkin. Bu qiyinchiliklarni hal qilish uchun jamoa a'zolari o'z fikrlarini erkin bildirish va konstruktiv mojaralarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lgan muhit yaratish zarur. Bunday yondashuv jamoa dinamikasini yaxshilash bilan birga bemorlarga ko'rsatiladigan yordam sifatini ham oshiradi[19].

Jamoaviy ishlash va konstruktiv muloqot bosqichi o'quvchilarni kasbiy faoliyat jarayonida o'zaro hamkorlik qilishga, jamoada samarali ishlashga va vazifalarni muvofiqlashtirishga tayyorlaydi. Bu bosqichda shakllangan ko'nikmalar talabalarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi va ularni muvaffaqiyatli mutaxassis sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Liderlik va innovatsion faoliyat bosqichi.

Tibbiyot texnikumlari o'quvchilarida liderlik ko'nikmalari va innovatsion fikrlashni rivojlantirish jamoalarni boshqarish, strategik qarorlar qabul qilish va yangi g'oyalarni samarali amal-

ga oshirishga tayyorgarlik ko'rishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o'quvchilarni tibbiyot va boshqa sohalarda yetakchilik qilishga tayyorlaydigan kompetensiyalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Quyida ushbu maqsadlarga erishish uchun asosiy vazifalar va strategiyalar, ilmiy tadqiqotlar asosida keltirilgan.

Jamoalarni boshqarish va faoliyatni muvofiqlashtirish. Liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish tibbiy ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlanishi kerak, chunki bu ke-lajakdagi tibbiyot boshqaruvi rollarining asosini yaratadi. Masalan, Isfahan Universitydagi Young Innovative Leadership Program (YILP) yetakchilikni rivojlantirishni modullar va mentorlik muhokamalari orqali qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu yondashuv talabalarni jamoalarni samarali boshqarishga o'rgatadi[1].

Mas'uliyatli qarorlar qabul qilish. Liderlik o'quv dasturlariga jamoat faoliyati dasturlari kabi tajribaviy o'quv imkoniyatlarini kiritish zarur. Bunday dasturlar o'quvchilarda mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatlar talabalarga haqiqiy vaziyatlarda yetakchilik amaliyotini amalga oshirish imkonini beradi.

Jamoa salohiyatini aniqlash va rivojlantirish. Liderlik o'quv dasturlari jamoa a'zolarining kuchli tomonlarini aniqlash va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi kerak. Bu fanlararo yondashuvlar va hamkorlik asosida amalga oshiriladi, chunki bu innovatsion va qo'llab-quvvatlovchi jamoa muhitini shakllantirish uchun zarurdir[3].

Xulosa. Mustaqil ish zamonaviy tibbiy ta'limning poydevori bo'lib, u o'quvchilarni o'z bilimlarini mustahkamlash va yangi texnologiyalarga moslashish qobiliyati bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, talabalarni rag'batlantirish va o'quv jarayonini o'z-o'zini boshqarishga yordam berish uchun o'qituvchilarning qo'llab-quvvatlovi muhimdir. Texnologiyalarni integratsiya qilish esa an'anaviy ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirilib, kompleks o'quv tajribasini yaratish imkonini beradi. Bu yondashuv o'quvchilarni kasbiy o'sish uchun zarur bo'lgan doimiy ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vaezi, A., Khoshgoftar, M., Teimouri-jervekani, Z., & Haghjooy Javanmard, S. (2024). A qualitative report on experiences of participants in the young innovative leadership program. *BMC Medical Education*, 24. <https://doi.org/10.1186/s12909-024-05033-w>
2. Bhargava, A., SM, F., Srivastava, S. B. L., Gupta, R. K., Sharma, H., Basheer, A., & Mahdi, F. (2024). Instilling leadership skills in undergraduate medical students. *Asian Journal of Medical Sciences*, 15(11), 115–119. <https://doi.org/10.3126/ajms.v15i11.67565>
3. Onipko, V., & Yaprnets, T. (2024). Formation of readiness for innovative educational activities as a key competence of future specialists. *Ukrains'ka Profesijna Osvita*, 16, 71–78. <https://doi.org/10.33989/2519-8254.2024.16.314307>
4. Piñones Rivera, C., Liberona, N., Jiménez, V., & Corona, M. (2023). Beyond the classroom: The development of collective structural competency in pro-migrant activism. *Global Public Health*, 18(1), 2203732. <https://doi.org/10.1080/17441692.2023.2203732>
5. Semenov, E. V. (2023). Mobilization Approach to Science Management: between Ideology and Technology. *Upravleniye Naukoy: Teoriya i Praktika*, 5(2), 210–218. <https://doi.org/10.19181/smtip.2023.5.2.18>
6. Putri, S., Noor, M. A., Aini, D. N., Cahya, M. R. F., Mahoklory, S. S., & Nazara, D. S. (2024). Principals of Implementing Early Mobilization in Patients in Intensive Care Units. *International Journal of Health Sciences*, 2(3), 927–938. <https://doi.org/10.59585/ijhs.v2i3.437>
7. Gold-von Simson, G. (2022). The Biomedical Entrepreneurship Skills Development Program (BEEP): Educating a New Generation of Medical Innovators. *Scientia*. <https://doi.org/10.33548/scientia815>
8. Al Shahrani, A. S., Ibrahim, S. F., Alzamil, N. M., Soliman, E. S., Fayed, A., & Mirza, N. (2022). Developing, conducting and evaluating the internship preparatory program (lpp). *Annals of Medicine and Surgery*, 73. <https://doi.org/10.1016/j.amsu.2021.103215>
9. Kalyniuk, N. M. (2020). On the question of training of future medical specialists on the basis of interdisciplinary integration. 8(2), 44–52. <https://doi.org/10.30929/2307-9770.2020.08.02.04>
10. Levandovska, K. V. (2022). Formation of professional competence in medical students in distance education conditions. *Bukovins'kij Medichnij Visnik*, 26(4 (104)), 82–88. <https://doi.org/10.24061/2413-0737.xxvi.4.104.2022.15>
11. Manthey, D. E., & Fitch, M. T. (2012). Stages of competency for medical procedures. *The Clinical Teacher*, 9(5), 317–319. <https://doi.org/10.1111/J.1743-498X.2012.00561.X>
12. Salas Perea, R. S., Díaz Hernández, L., & Pérez Hoz, G. (2013). The competence-based curriculum in the formation of medical specialists. 27(3), 262–274.
13. Cate, O. (2011). Competency Based Medical Training and Evaluation. Definitions and Correlations with Real Clinical Practice. *Argentine Journal of Cardiology*, 79(5), 405–407. <https://doi.org/10.7775/RAC.V79I5.573>
14. Lisetska, I. S., & Dmytrenko, I. A. (2022). The role of independent work of students in training future highly qualified specialists. *Sučasna Pediatriâ. Ukraïna*, 7(127), 141–144. <https://doi.org/10.15574/sp.2022.127.141>
15. Maltabarova, N. A., Kokoshko, A., Abduldayeva, A., Shanazarov, N., & Smailova, G. (2019). Innovation Technologies in Student's Independent Activity and Creativity Development: The Case of Medical Education. *International Journal of Emerging Technologies in Learning (Ijet)*, 14(11), 32–40. <https://doi.org/10.3991/IJET.V14I11.10341>
16. Musina, Z., & Rakhimova, B. (2022). Organization of independent work of students with the use of computer learning technologies. *Alatoo Academic Studies*. <https://doi.org/10.17015/aas.2022.223.40>
17. Rodionov, M., & Liksina, E. V. (2022). Independent work in the electronic learning environment as an integral part of professional training of students. *Pedagogical Education and Science*, 6. <https://doi.org/10.56163/2072-2524-2022-6-135-141>
18. Shaker, M., Oppneheimer, J., Verdi, M., Anagnostou, A., Abrams, E. M., Blatman, K. H., Hand, M., Spengel, J. M., & Lang, D. M. (2024). Teamwork in Clinical Medicine. *The Journal of Allergy and Clinical Immunology: In Practice*. <https://doi.org/10.1016/j.jaip.2024.09.030>
19. Meeuwissen, S. N. E., Gijsselaers, W. H., Alexander, E. K., & Ramani, S. (2023). Understanding and strengthening collaboration in the workplace: How to work towards constructive conflicts. *The Clinical Teacher*, e13701. <https://doi.org/10.1111/tct.13701>

KASBIY TA'LIMDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHDA KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASINING AHAMIYATI

Qarshiyev Otajon Ilxomovich,
Oqdaryo tuman 1-son politexnikumi direktori
Mamasharipov Majid Teshayevich,

Oqdaryo tuman 1-son politexnikumi ishlab chiqarish ta'limi mutaxassisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar, qonunchilik yangiliklari va islohotlar, shuningdek, kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi va uning asosiy faoliyat yo'nalishlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar:

kasbiy ta'lim, ta'lim dasturlari, sanoat hamkorlari, kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi, faoliyat yo'nalishlari, moliyalashtirish manbalari.

Аннотация:

В данной статье представлена информация о проводимой в нашей стране работе, законодательных новшествах и реформах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки квалифицированных кадров в профессиональном образовании и внедрению международных образовательных программ, а также представлена информация о Фонде развития профессионального образования и его основных направлениях деятельности.

Ключевые слова:

профессиональное образование, образовательные программы, отраслевые партнеры, Фонд развития профессионального образования, направления деятельности, источники финансирования

Annotation:

This article provides information on the work, legislative innovations and reforms carried out in our country to further improve the system of training of qualified personnel in professional education and the introduction of international educational programs, as well as information about the foundation for the development of professional education and its main areas of activity.

Keywords:

professional education, educational programs, Industrial Partners, Foundation for the development of professional education, areas of activity, sources of financing.

Respublikada iqtisodiyot tarmoqlari uchun o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash hamda sohada xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish kasbiy ta'lim tizimi rivojlanishining asosi deyishimiz mumkin. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 2023-yil 11-sentabr-dagi PF-158-son Farmonida professional ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish bo'yicha 700 ta professional ta'lim muassasasida ta'lim sifatini oshirish va moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, 14 ta hududiy professional tayyorgarlik markazlarini tashkil etish, malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlar

ulushini 50 foizga, masofaviy yoki aralash shakllarda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari ulushini 30 foizga yetkazish, o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashda davlat grantini axborot texnologiyalari, qurilish, transport va logistika yo'nalishlarida 100 foizga yetkazish vazifasi belgilangan.

Mazkur sohada kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga olib chiqish, kasbiy ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish hamda hozirgi zamon talablari asosida shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dastur-



larini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmoni qabul qilindi.

Farmon ilovasi bilan negizida texnikumlar tashkil etiladigan kasbiy ta'lim tashkilotlari ro'yxati, texnikumlar faoliyatini moliyalashtirish tartibi, negizida maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari tashkil etiladigan kasbiy ta'lim tashkilotlari ro'yxati, kadrlar buyurtmachisi va sanoat hamkori sifatida texnikumlarga biriktiriladigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari ro'yxati, 2025/2026 o'quv yilidan boshlab xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilinadigan texnikumlar hamda xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilinadigan texnikumlar faoliyatini tashkil qilish tartibi, kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari va ularni sarflashning asosiy yo'nalishlari, shuningdek, 2025–2027-yillarda kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

O'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilishi kasbiy ta'lim tizimi rivojida muhim qadam bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-apreldagi 245-son qarori "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi.

Jamg'armaning asosiy faoliyat yo'nalishlari:

Jamg'arma mablag'lari kasbiy ta'lim tashkilotlarining uslubiy ta'minotini mustahkamlash, o'quv adabiyotlarni yaratish, chop etish va ularning kitob fondini to'ldirishga, kasbiy ta'lim tashkilotlari bino va inshootlarini zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash, o'quv binolari, talabalar turar joylari, sport inshootlari va boshqa infratuzilma obyektlarida qurilish, rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish, kasbiy ta'lim tashkilotlarining o'quv jarayonini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya, multimedia va tarmoq qurilmalari, texnikalari, vositalari hamda dasturiy ta'minotlarni xarid qilishga, o'quv laboratoriyalarini zarur materiallar va butlovchi qismlar bilan ta'minlash, kasbiy ta'lim sohasida tanlovlar o'tkazish hamda malakali mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, kasbiy ta'lim tizimida ta'lim jarayonini isloh qilish va takomillashtirish maqsadlarida xorijiy ekspert va konsultantlarni jalb etish, kasbiy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog xodimlarining malaka toifalarini baholashni tashkil etishda ishtirok etgan mutaxassislarni moddiy rag'batlantirish, "Kasbiy ta'lim" platformasini ishlab chiqish va lozim darajada ishlashini ta'minlash, kasbiy ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish, tizimga jalb qilinadigan investitsiya loyihalari doirasida loyiha, tanlov hamda shartnoma hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish va ro'yxatga olish, tovar qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan deklaratsiya-sertifikatsiya ishlari, vaqtinchalik ombordan foydalanish va konsalting xizmatlari uchun haq to'lash, kasbiy ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy, tarbiyaviy,



psixologik va boshqa o'quv-uslubiy loyihalarni tashkil etish va o'tkazish (ishchi guruhlarining ish haqi, xizmat safari va boshqa xarajatlari), pedagog-o'qituvchilar yoki o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan respublika tanlovlari g'oliblarini taqdirlash va rag'batlantirish, kasbiy ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirishda faollik ko'rsatgan kasbiy ta'lim tashkilotlarining rahbar xodimlari, pedagog-o'qituvchilari va boshqa xodimlarini moddiy rag'batlantirish, kam ta'minlangan oilalar va yetim bolalar toifasiga kiruvchi o'quvchilarni ijtimoiy himoyalash tadbirlari (bir yilda bir o'quvchiga bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) baravari miqdoridan oshmaydigan bir martalik moddiy yordam), vakillik tadbirlarini (xorijiy delegatsiyalarni kutib olish, transport xizmati, tarjimonlarni jalb qilish, sovg'a va suvenirlar sotib olish, ovqatlantirish) o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlariga ko'ra o'tkaziladigan sport-sog'lomlashtirish va boshqa tadbirlarni amalga oshirish, kasbiy ta'lim sohasiga mas'ul bo'lgan vazirlik rahbar va xodimlarini xorijiy boshqaruv idoralari, ta'lim tashkilotlari va boshqa tashkilotlarga tajriba o'rganish va

hamkorlik o'rnatish maqsadlarida xizmat safariga yuborishga ishlatilishi belgilanmoqda.

Jamg'armani shakllantirish manbalari etib quyidagilar belgilanmoqda:

- 2025-yil 1-mayga qadar davlat budjetidan – 50 milliard so'm;

- 2025-yil 1-sentabrga qadar Oliy ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan – 50 milliard so'm;

- 2026-yil 1-yanvardan kasbiy ta'lim tashkilotlarining to'lov-kontraktdan tushadigan mablag'lar qoldiq qismining 4 foizi;

- o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining pedagog kadrlarini navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun yig'implarning Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tushgan qismi; Hozirda attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun yig'implar miqdori BHMning 1 baravarini tashkil etadi. Ma'lumot uchun, 2024-yilda 8 050 nafar o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining pedagog kadrlari navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tkazilib vazirlik jamg'armasiga 1,2 mlrd so'mdan ortiq mablag' tushgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/uz/docs/-7166588#-7166720>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-apreldagi 245-son qarori "Kasbiy ta'lim jamg'amasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.

RAQAMLASHTIRILGAN TA'LIM MUHITIDA O'QUV JARAYONINI 3D TEXNOLOGIYASINING MODA DASTURLARIDA SAMARALI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI

G'ofurova Aziza Xidirnazar qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
G'ofurova Sojida Sayfullayevna
Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya:

Maqolada liboslarning samarali dizayn loyihasini yaratish uchun dizayn maktablari tomonidan yaratilgan yangi moda dasturlarining turlari va ulardan foydalanib raqamli ta'lim muhitida o'quv jarayonini tashkil etish omillari keltirilgan. Talabalarga dizayn loyihalashni o'rgatishda ushbu omillarning bir biriga bog'liqligi, shuningdek, raqamli o'quv muhitini samarali tashkil etish va rivojlantirishdagi roli haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar:

moda dasturlari, ta'lim, o'qitish, moda maktablari, dizayn maktablari, libos, omillar, dizayner, raqamlashtirish, ta'lim jarayoni.

Аннотация:

В статье представлены виды новых модных программ, создаваемых школами дизайна, и факторы организации образовательного процесса с их использованием в цифровой образовательной среде для создания эффективного проекта дизайна одежды. Приведена информация о взаимозависимости этих факторов при обучении студентов дизайну, а также их роли в эффективной организации и развитии цифровой среды обучения.

Ключевые слова:

программы моды, образование, обучение, школы моды, школы дизайна, одежда, факторы, дизайнер, цифровизация, образовательный процесс.

Annotation:

The article presents the types of new fashion programs created by design schools and the factors of organizing the educational process with their use in a digital educational environment to create an effective fashion design project. Information is provided on the interdependence of these factors in teaching students design, as well as their role in the effective organization and development of a digital learning environment.

Key words:

fashion programs, education, training, fashion schools, design schools, clothing, factors, designer, digitalization, educational process.

Jamiyatda raqamlashtirish ketayotgan bir davrda moda va dizayn maktablari tomonidan liboslarni dizayn loyihalashda qo'llaniladigan moda dasturlarining yaratilishi davr talabiga javob beradigan kadrlarni tayyorlashda asosiy omil hisoblanadi. Libos yaratish uchun dizaynerlarning o'z individual qiziqishlari mavjud bo'lib, zamon modasining konteksti va zamonaviy moda madaniyati haqida aniqroq tushunchaga ega bo'lishi lozim.

Rivojlanishning muhim sohalari hisoblangan ijtimoiy siyosat, iqtisod, atrof-muhit, fan va texnologiyalarni kuzatish moda asoschilarini ijodiy fikrlashga undaydi. Ayrim hollarda, aksincha, modaning boshqaruvchanlik funktsi-

yasi ko'zga yaqqol tashlanib barcha sohalarda o'zini namoyon etadi. San'at maktablaridagi moda sanoat standartlari dizaynga ijodiy va zamonaviy yondashuvi bilan o'ziga xos. Bu ijodiy fikr yuritish, o'z g'oya va tushunchalarni bir qator sanoat manbalari va amaliyotga singdirishga olib keladi. Dizayn maktablari o'quv dasturi doirasida dinamik jamoalarda fikrlash metodologiyasini kengaytirish, tajriba o'tkazish, ishlash muhitini o'zgartirish hamda g'oyalar almashish va yaratish uchun noyob imkoniyatni beradi. Dizayn jamoasi turli xil sanoat tajribasi, shuningdek, moda dizayni iste'dodini tarbiyalashga yordam beradigan akademik ko'nikmalar va tajribalarga ega[1].

Ular tomonidan yaratilgan va takomillashtirilgan moda dasturlari ta'lim hamda ishlab chiqarishni integratsiyalashtirishda katta ahamiyatga ega. Hamkorliklar orqali, o'z bilim, tushuncha va tajribalarini birga baham ko'rish maqsadida, yo'lga qo'yilgan yaxshi aloqalar talabalarning moda jamiyatiga dadil kirib borishini taminlaydi. Bu oliy ta'lim, kasb-hunar maktablarining me'yoriy hujjatlarida ham o'z aksini topishi lozim.


O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni kengaytirish o'qituvchilar va talabalarning o'zaro aloqasini kuchaytirish ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Respublikamiz olimlaridan ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha A.A.Abduqodirov, A.X.Abdulayevlar kabi bir qancha taqdiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. J.Ahmedov tomonidan axborotlashtirilgan ta'lim muhitining bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish mavzusidagi ilmiy tadqiqotda axborotlashtirilgan ta'lim muhitining o'рни va undan amaliyotda foydalanishning "Yo'l xaritasi" hamda tashkiliy-tuzilmaviy modeli ishlab chiqilib, ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari ilmiy jihatdan asoslangan[2].

Shunday qilib, dars jarayonida 3D Max texnologiyalaridan foydalanish, talabalar uchun o'qish jarayonini qiziqarli va samarali qilish bilan birga, ularning professionallik darajasini oshirishga xizmat qiladi.


Butun dunyo bo'ylab raqamlashtirish ketayotgan bir jarayonda moda va dizayn maktablari ham moda sanoati uchun ko'plab moda dasturlarini yaratish ularni ilm-fan rivoji bilan hamnafas takomillashtirish bo'yicha bosh qotirmoqda va boshqa soha vakillari bilan hamkorlikda natijalarga erishmoqda. Shunday yutuqlardan biri bu 3D Max texnologiyalari-dir. 3D Max texnologiyasi sanoatning barcha sohalarida qo'llanilishi mumkin, shuningdek, libos dizaynida 3D texnologiyasining moda dasturlaridan foydalanish o'quvchi talabalarining dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish va faolligini oshirishda o'z afzalliklari va imkoniyatlari bilan muhim rol o'ynaydi. Ushbu moda dasturlarini dizayn yo'nalishi bo'yicha mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim va kasb-hunar

maktablaridagi me'yoriy hujjatlariga bosqichma-bosqich kiritilishi va ta'limga joriy etilishi jahon miqyosida bellasha oldigan dizaynerlarni yetishtirib berish uchun asosiy qadam bo'ladi[3].


Libos dizayni yo'nalishida ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning uch jihatidan biri hisoblangan dizayn loyihalashning xilma-xil ushbu turli moda dasturlari orqali amalga oshiriladi. Bu moda dasturlari CLO3D, Marvelous Designer, Style3D, Assyst CAD dasturlari tashkil etadi. Bu dasturlarining ishlash prentsiplari bir-biriga yaqin bo'lib, funksiyasi kengligi jihatidan bir-biriga nisbatan afzalliklarga ega[4].



1-rasm. Marvelous Designer dasturining ishchi oynasi




2-rasm. Style3D dasturining ishchi oynasi



3-rasm. CLO3D dasturining matolar bilan ishlash papkasi.

Moda dasturlarini dars jarayoniga joriy etishda o'quv jarayonini yaratish zarurligini keltirib chiqaruvchi omillar mavjud bo'lib bu omillar bir birini to'ldiradi va o'quv jarayonini samarali tashkil etishni ta'minlaydi.



4- rasm. Raqamli o'quv muhitini samarali yaratish va rivojlantirish.

Talabalar uchun yaratilgan shart sharoit va ta'lim muhiti talabalarda ijodiy faollikni yuzaga chiqarishga imkon beradi. Sifatli kadrlar yetishtirishga qaratilgan shart sharoit va atrof-muhit eng muhim omili ekanligi tadqiqotchilardan Ya.A.Komenskiy va boshqalarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan.

Dars jarayonida 3D max texnologiyasining moda dasturlaridan unumli foydalanish dizayn yo'nalishi talabalarining liboslarni dizayn loyihalashga bo'lgan motivatsiyani oshirish, o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish, o'qish vaqtini tejash, o'quv materiallarini yanada sifatliroq taqdim etish, axborotlarni amaliy o'zlashtirish, shuningdek, har qanday jarayon va hodisalarni modellashtirish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish imkonini beradi[5].

Raqamli o'quv muhitini samarali tashkil etish va rivojlantirishning pedagogik omillari talabalarning qiziqishini oshirishga yordam beradi. Raqamli o'quv muhitida moda dasturlarining mavjud animatsiya, simulyatsiyalar kabi materiallari talabalarning faolligini oshiradi. Bu metodlar o'quvchilarning kuzatishi, tahlil qilish va tajriba qilish orqali bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Texnologik omillar esa ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur infratuzilma va vositalarni ta'minlaydi. Bu talabalar 3D texnologiyasining moda dasturi vositalaridan foydalana olishi, texnologik omil hisoblangan yangi texnologiyalarni samarali qo'llay olishda namoyon bo'ladi[6]. Ijtimoiy omillar esa raqamli ta'limning imkoniyatlarini yaratishda, talabalarning ta'lim jarayoniga bo'lgan ishtiyoqini oshirishda va jamiyatning qo'llab-quvvatlashini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy muhitning subyekti va obyekti orasidagi ijtimoiy munosabat, ijtimoiy faollikni keltirib chiqaradi. Bu o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi.

Ko'rsatib o'tilgan ta'limning raqamlashtirilgan muhitida o'quv jarayonini tashkil etish omillari o'z yo'nalishlari bo'yicha nafaqat bilimlarini boyitish, balki talabalarda tanqidiy fikrlash, mas'uliyatni oshirish, o'z-o'zini boshqarish, mustaqil ishlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Obidov X.M. Iqtisodiy integratsiya jarayonlariga oid ilmiy yondashuvlar tahlili//mustaqil tadqiqotchi "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021-yil
2. Axmedov J.R. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish//Ped.fan. dok. (PhD) diss.-Toshkent. 2020.59 b.
3. Гофурова А.Х., Гофурова С.С. Методика преподавания профильных предметов в области профессионального дизайна с использованием 3d-технологий //Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 1367-1373.
4. G'ofurova A.X., G'ofurova S.S. Boshlang'ich ta'limining zamonaviy tendensiyalari: Ta'lim tarbiya integratsiyasi// Dizayn talabalarining ijodiy faolligini 3D texnologiyasidan foydalanib rivojlantirishga yordam beradigan ta'lim muhitining modeli. III Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya Jizzax 4-may.2023 y 143 betlar
5. Саблина Н. А. Автореферат "Развитие художественно-творческой активности студентов-дизайнеров средствами компьютерного 3D моделирования" Москва, 2015г
6. Марченко, М. Н. Компьютерная графика / программы дисциплин специализации (для специальностей 030800 «Изобразительное искусство» и 052400 «Дизайн»). - Краснодар: КубГУ, 2002. - 22с.104.

KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Axmedov Akmal

Professional ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada professional ta'limda kasbiy-huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Raqamli texnologiyalar zamonaviy kasb-hunar ta'limi jarayonida o'quvchilarning kasbiy va huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etishi, bundan tashqari, innovatsion vositalar va pedagogik yondashuvlar orqali ta'lim jarayonini takomillashtirishning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar:

kasbiy-huquqiy kompetensiya, raqamli texnologiyalar, innovatsion ta'lim va huquqiy simulyatsiyalar, huquqiy savodxonlik, huquqiy maslahatchilik va yordam ko'rsatish, interaktiv ta'lim muhiti AR va VR texnologiyalari, sun'iy intellekt va analitika.

Аннотация:

В данной статье раскрываются возможности использования цифровых технологий для развития профессионально-правовых компетенций в процессе профессионального образования. Тот факт, что цифровые технологии открывают широкие возможности для развития профессионально-правовой компетентности учащихся в процессе современного профессионального образования, кроме того, анализируется важность совершенствования образовательного процесса посредством инновационных инструментов и педагогических подходов.

Ключевые слова:

профессионально-юридическая компетентность, цифровые технологии, инновационное образование и правовое моделирование, юридическая грамотность, юридические консультации и поддержка, интерактивная среда обучения, технологии AR и VR, искусственный интеллект и аналитика.

Annotation:

This article reveals the possibilities of using digital technologies for the development of professional and legal competencies in the process of professional education. The fact that digital technologies provide broad opportunities for the development of professional and legal competencies of students in the process of modern vocational education, in addition, the importance of improving the educational process through innovative tools and pedagogical approaches is analyzed.

Keywords:

professional and legal competencies, digital technologies, innovative education and legal simulations, legal literacy, legal consulting and assistance, interactive educational environment AR and VR technologies, artificial intelligence and analytics.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy kasb-hunar ta'limi jarayonida o'quvchilarning kasbiy va huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ular innovatsion vositalar va pedagogik yondashuvlar orqali ta'lim jarayonini takomillashtiradi. Ayniqsa, virtual va kengaytirilgan reallik, bulutli xizmatlar hamda adaptiv o'quv platformalari talabalarning bilim olish jarayonini interaktiv va amaliy qilishda muhim ahamiyatga

ega. Bunday texnologiyalar nafaqat mutaxassislikka oid bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, balki talabalarning tez o'zgarayotgan mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini ham ta'minlaydi.

Quyida kasb-hunar ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning asosiy imkoniyatlari keltirilgan.

Kasbiy malakani oshirishda raqamli texnologiyalar roli:

Interaktiv ta'lim muhiti: Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari ta'lim jarayonini jonli va qiziqarli qilish uchun samarali vositalar hisoblanadi. Masalan, talabalar amaldagi ish sharoitlarini simulyatsiya qiluvchi virtual laboratoriyalarda yoki real hayotga yaqin jarayonlarni ko'rsatuvchi simulyatsiyalarda ishtirok etishi mumkin. Bu o'quv jarayonining sifatini oshirish bilan bir qatorda, talabalarni murakkab vaziyatlarni tushunish va ularga tayyorgarlik ko'rish qobiliyatini rivojlantiradi[1].

Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari o'quv jarayonini jonli, dinamik va real hayotga yaqinlashtirilgan holda tashkil etishga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar talaba va o'qituvchi o'rtasidagi aloqani kuchaytirish, huquqiy jarayonlarni simulyatsiya qilish hamda amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun keng imkoniyat yaratadi. Quyida ularning ayrim afzalliklari keltirilgan:

Yaxshilangan ishtirok va natijalar: AR va VR texnologiyalari ta'lim jarayonida talabalarining qiziqishi va motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, huquqiy ta'limda AR yordamida sud jarayonlarini simulyatsiya qilish talabalarga qonunchilikni chuqurroq tushunish va murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilishni o'rganish imkonini beradi[2].

Huquqiy amaliyotlarni simulyatsiya qilish: VR muhitlarini qo'llash orqali talabalar amaliyotdagi huquqiy jarayonlar, masalan, sud muhokamasi yoki kelishuv shartnomalarini tahlil qilishda ishtirok etishlari mumkin. Bunday yondashuv talabalarining kasbiy tajribasini oshiradi va ularni mehnat bozoriga tayyorlaydi [2].(Hevko et al., 2023).

Haqiqiy dunyo sharoitida ta'lim: Virtual laboratoriyalar va AR simulyatsiyalari talabalarga amaliy jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Masalan, jinoyat hodisalari o'rganiladigan huquqiy mashg'ulotlarda AR yordamida hodisa joyini vizualizatsiya qilish orqali tahlil samaradorligini oshirish mumkin[3].

Raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari va muammolari:

1. Imkoniyatlar:

- Huquqiy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga yaqinlashtirish;
- O'quvchining tanqidiy fikrlash va

masalalarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish;

- Amaliy mashg'ulotlar uchun virtual muhitlarning joriy etilishi orqali ta'limni individuallashtirish.

2. Qiyinchiliklar:

- Raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun yuqori xarajatlar va infratuzilmani rivojlantirish zaruriyati;
- Uskunalar va dasturiy ta'minotni boshqarishdagi texnik muammolar;
- O'qituvchilar va o'quvchilarning raqamli savodxonlik darajasini oshirish zarurati.

Professional ta'lim jarayonida kasbiy-huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish dolzarb va samarali yondashuvdir. Quyida bu borada asosiy imkoniyatlar va yo'nalishlar keltiriladi:

1. Onlayn o'quv platformalari va virtual treninglar:

- Massive Open Online Courses (MOOCs): Coursera, Udemy, va Khan Academy kabi platformalarda huquqiy masalalar bo'yicha maxsus kurslar mavjud.
- Virtual treninglar: Real hayotdagi huquqiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkonini beruvchi treninglar orqali talabalarining amaliy ko'nikmalari shakllanadi.

2. Interaktiv o'quv materiallari:

- Elektron kitoblar, videodarsliklar va interaktiv testlar yordamida talabalarining huquqiy bilimlari mustahkamlanadi.
- Gamifikatsiya elementlari: o'yin formatidagi topshiriqlar orqali qiziqarli va samarali o'qitish.

3. Raqamli huquqiy laboratoriyalar:

- VR va AR texnologiyalar: talabalar huquqiy jarayonlarni virtual muhitda tajriba qilishlari mumkin.
- Yuridik hujjatlarni tahlil qilish va sud jarayonlarini modellashtirish uchun maxsus dasturiy ta'minotlar.

4. Onlayn masofaviy konsultatsiyalar:

- Huquqiy masalalar bo'yicha professional maslahat olish uchun chat-botlar va virtual yordamchilardan foydalanish.
- Talabalar o'z savollariga tezkor va ishonchli javob olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

5. Sun'iy intellekt va analitika:

- Sun'iy intellekt yordamida huquqiy hujjatlarni avtomatik tahlil qilish, tizimlashtirish va tegishli tavsiyalarni olish.

- O'quvchilarning o'zlashtirishini kuza-tish va ularga individual yondashuvni taklif etish uchun analitik vositalardan foydalanish.

6. Huquqiy ma'lumotlar bazalari va raqamli kutubxonalar:

- Talabalar milliy va xalqaro qonunchilik, sud qarorlari, ilmiy maqolalar va boshqa man-balarga tezkor kirish imkoniga ega bo'lishlari mumkin.

- O'zbekistonda mavjud Lex.uz, Norma kabi platformalardan foydalanish.

7. Ijtimoiy media va raqamli kommu-nikatsiya:

- Huquqiy masalalar bo'yicha ekspertlar va hamkasblar bilan muloqot qilish uchun ijti-moiy tarmoqlardan foydalanish.

- Professional tarmoqlarda tajriba al-mashish va yangi bilimlarni o'rganish.

Raqamli texnologiyalar professional ta'lim jarayonida o'quvchilarning kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda katta sa-lohiyatga ega. Ular talaba ishtirokini oshirish, amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash va mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar tayyorlash imkonini yaratadi. Biroq samarali joriy etish uchun infratuzilma yaratish, mod-diy-texnik ta'minlash va o'quv-metodik ma-teriallarni yangilash kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratish zarur. Shuningdek, ushbu texnologiyalarning imkoniyatlarini yanada chuqurroq o'rganish va ularni amaliyotga tat-biq etish uchun ilmiy izlanishlarni kuchaytirish talab etiladi.

Adaptiv ta'lim platformalari: Bunday platformalar o'quv jarayonini har bir tala-ba ehtiyojiga moslashtirish imkonini beradi. Masalan, shaxsiylashtirilgan o'quv konten-ti orqali o'quvchilar o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini inobatga olgan holda ta'lim olishi mumkin. Bu yechim, ayniqsa, murakkab yoki o'ziga xos kasbiy malaka talab qiluvchi so-halarda muhimdir [4].

Adaptiv ta'lim platformalari professional ta'lim jarayonida kasbiy-huquqiy kompeten-siyalarni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Ularning shaxsiylashtirilgan va interaktiv xususiyatlari o'quvchilarning o'quv natijalarini

yaxshilashga xizmat qiladi. Biroq ushbu plat-formalarni samarali joriy etish uchun infratu-zilmani yangilash, moddiy-texnik resurslarni kengaytirish va pedagogik kadrlarni tayyorlash kabi masalalarga e'tibor qaratish zarur. Bun-dan tashqari, ularning uzoq muddatli ta'sirini tahlil qilish va ta'lim jarayoniga integratsiya-sini yanada samarali tashkil etish uchun ilmiy izlanishlarni kuchaytirish talab etiladi.

Raqamli didaktikani qo'llash: geymifikat-siya, teskari o'qitish va boshqa interaktiv peda-gogik metodlar o'quvchilarning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, o'quvchilar turli raqamli o'yinlar yordamida ta'lim olib, o'z kompetensiyalarini yanada chuqurroq rivoj-lantirishlari mumkin[5].

Raqamli transformatsiya davrida profes-sional ta'lim jarayonida o'quvchilarning kas-biy-huquqiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar talab etiladi. Shunday vositalardan biri sifatida geymifikat-siya, ya'ni o'yin elementlarini ta'lim jarayo-niga integratsiya qilish samarali yondashuv hisoblanadi. Geymifikatsiya o'quv jarayonini yanada jozibali, interaktiv va samarali qilishda muhim rol o'ynaydi. U turli ta'lim kontekstla-rida, jumladan, huquqiy ta'lim, kasbiy tayyor-garlik, matematik tushunchalarni o'rganish va boshqa sohalarida o'zining samaradorligini namoyon etmoqda.

Imkoniyatlar va qiyinchiliklar. Adaptiv ta'lim platformalarining afzalliklari shubhasiz, ammo ularning samarali joriy etilishi uchun quyidagi masalalarni yechish zarur:

1. Imkoniyatlar:

- *Shaxsiylashtirilgan o'quv tajribasi orqali o'quvchining motivatsiya va qiziqishini oshirish.*
- *Har bir talaba uchun individuallashtirilgan o'quv yo'nalishini yaratish.*
- *Kasbiy-huquqiy ta'limda amaliy mash-g'ulotlarni interaktiv vositalar bilan boyitish.*

2. Qiyinchiliklar:

- *Platformalarni joriy etish uchun yuqori texnik xarajatlar va infratuzilmani yangilash zaruriyati.*
- *O'quvchi va o'qituvchilarning raqamli savodxonligi darajasini oshirish.*
- *Ma'lumotlarning maxfiyligi va texnologik tenglikni ta'minlash zarurligi.*

Xulosa. Kasbiy-huquqiy ta'limni raqam-



lashtirish zamonaviy bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish, amaliyotga moslashish va raqamli iqtisodiyotda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, uning samaradorligini ta'minlash uchun infratuzilmani yangilash,

o'quv dasturlarini moslashtirish va pedagogik qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish lozim. Raqamli vositalarning innovatsion qo'llanilishi o'quvchining kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati uchun asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Liudmyla Isak, Oleksandr Babak, Yevhen Hren. (2023). Digital Tools in Professional Education Training. Profesijna osvita: metodologija, teoriya ta tehnologiji, doi: 10.31470/2415-3729-2023-18-104-125
2. Ihor, Hevko., Se, Siaonan., Hongwei, Wu. (2023). Innovative interactive technologies in the training of professional education specialists by means of digital technologies. Journal of Education, Health and Sport, doi: 10.12775/jehs.2023.37.01.013
3. Kateryna Osadcha., O.V.Manzhula. (2023). Digitization for Professional Training of Future Specialists in the Field of Vocational and Technical Education. Osvitologichniy diskurs, doi: 10.28925/2312-5829.2023.11
4. Hanna, Kravchenko., Zoya, Ryabova., Halyna, Kossova-Silina., C., M., Zamoyskiy., Dariia, Holovko. (2024). Integration of information technologies into innovative teaching methods: Improving the quality of professional education in the digital age. Data & metadata, doi: 10.56294/dm2024431
5. A.Raimkulova, M.K.Sarybaeva. (2024). Digital Didactics as a Condition for the Formation of Professional Competencies of a Future Teacher.. Бюллетень науки и практики, doi: 10.33619/2414-2948/104/58
6. B.Abilova. (2024). Current issues of digital skills formation in modern education. Qaraqandy universitetini xabarshisi, doi: 10.31489/2024ped3/64-72

MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Hafizov Akmal Rustamovich,

Buxoro energetika, neft va gaz sanoati texnikumi direktori o'rinbosari

Annotatsiya:

Maqolada mediakompetentlik tushunchasi va uni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil etiladi. Mediakompetentlik media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun media-ta'lim texnologiyalari va interaktiv usullar muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajribalar asosida mediakompetentlikni rivojlantirish bo'yicha strategiyalar taklif etiladi.

Kalit so'zlar:

mediakompetentlik, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, media-ta'lim, raqamli kompetensiyalar, pedagogik sharoitlar.

Аннотация:

В статье рассматриваются медиакompetentность и педагогические условия её развития. Медиакompetentность включает медиаграмотность, критическое мышление и анализ информации. Эффективное обучение требует использования медиаобразовательных технологий и интерактивных методов. Представлены стратегии развития медиакompetentности на основе международного опыта.

Ключевые слова:

медиакompetentность, медиаграмотность, критическое мышление, медиаобразование, цифровые компетенции, педагогические условия.

Annotation:

The article examines media competence and its pedagogical development conditions. Media competence includes media literacy, critical thinking, and information analysis skills. Effective teaching requires media education technologies and interactive methods. Strategies for media competence development are proposed based on international experience.

Keywords:

media competence, media literacy, critical thinking, media education, digital competencies, pedagogical conditions.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari (OAV) va raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Axborot oqimining misli ko'rilmagan darajada ortishi har bir shaxsdan ushbu axborotni to'g'ri idrok etish, qayta ishlash, hamda uni tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini talab qilmoqda. Shu bois zamonaviy ta'lim tizimida media savodxonlik va mediakompetentlik kabi tushunchalar katta ahamiyat kasb etmoqda. Media savodxonlik deganda, xalqaro tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, shaxsning jamiyatdagi fuqarolik mas'uliyatini his qilgan holda faol va ongli ravishda media matnlarni qabul qilishi, yaratishi, tahlil va baholay olishi hamda zamonaviy medianing ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi tushuniladi. Mediakompetentlik esa pedagogik nuqtayi nazardan shaxsning ana shu media axborotlarni tanlash, ulardan foydalanish, tanqidiy


tahlil qilish, baholash, shuningdek, ularni ijodiy tarzda yaratish va uzata olish tayyorgarligini ifodalovchi integrativ sifatidir. Demak, mediakompetentlik shaxsning media muhitida nafaqat iste'molchi, balki faol ishtirokchi bo'la olish malaka va ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Mediakompetentlik bugungi axborot asrida shaxsning umumiy madaniyati va intellektual salohiyatining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Xususan, UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar XXI asrda ommaviy dezinformatsiya, noto'g'ri axborot tarqalishi va nafrat nutqlariga qarshi kurash hamda raqamli texnologiyalardan xabardor bo'lish uchun media va axborot savodxonligini rivojlantirishni eng muhim kompetensiyalardan biri deb e'tirof etmoqda. Ta'kidlash joizki, ta'lim jarayonida mediakompetentlikni shakllantirish nafaqat axborotni to'g'ri boshqarish, balki yosh avlodning mustaqil va tanqidiy tafakkurini rivoj-

lantirishga, ularni turli axborot ta'sirlaridan himoyalashga xizmat qiladi. Shu sababli mediakompetentlikni rivojlantirish masalasi pedagogika fanida dolzarb ahamiyat kasb etib, ta'lim amaliyotida unga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mediakompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar

Mediakompetentlikni shakllantirish uchun ta'lim jarayonida maxsus pedagogik yondashuv va strategiyalar qo'llanilishi zarur. Avvalo, mediata'lim tushunchasini kiritish muhim, ya'ni OAV va raqamli axborot manbalaridan foydalanish hamda ularni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ta'lim jarayonini tashkil etish. Zamonaviy pedagogikada media ta'lim texnologiyalari ta'lim sifati va samaradorligini oshiruvchi samarali vositalardan biri sifatida qaraladi. Xususan, pedagogikaning alohida yo'nalishi sifatida shakllanayotgan media-didaktika mediata'lim jarayonini boshqarish metodlarini, ta'lim oluvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish tamoyillarini o'z ichiga oladi. Mediakompetentlikni rivojlantirishning bir qancha yondashuvlari mavjud. Ulardan biri – media savodxonlik elementlarini o'quv fanlariga integratsiya qilishdir. Ya'ni, an'anaviy dars jarayonlariga media mazmundagi topshiriq va mashqlarni kiritish orqali o'quvchilarda axborotni tahlil qilish va media resurslardan foydalana olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, media ta'limni boshqa fanlar bilan birga olib borish yaxshi samara beradi. Masalan, xorijiy til (ingliz tili) darslarini media materiallari bilan boyitish o'quvchilarning ham til o'rganish, ham media bilan ishlash kompetensiyalarini oshiradi. Mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahliliga ko'ra, media ta'limni chet tili kursi bilan birlashtirish eng samarali va istiqbolli usullardan biri ekanligi qayd etilgan, chunki chet tilini o'qitish jarayoni mazmunan axborot almashinuvi jarayoniga asoslanib, unga media ta'limi materiallarini osongina integratsiya qilish mumkin. Boshqa yondashuv sifatida, mediakompetentlikni rivojlantirish uchun loyiha va tadqiqot metodlaridan foydalanishni keltirish mumkin. O'quvchilarga media mahsulot (masalan, sinf gazetasi, blog posti, videorolik va hokazo)

yaratish bo'yicha loyiha topshiriqlari berilishi, ularning media bilan ijodiy ishlash va mas'uliyatni his qilish ko'nikmalarini oshiradi. Shuningdek, ta'lim jarayonida real mediakontekstga oid muammolar ustida munozara va tahlil olib borish (masalan, yangiliklar xabarlarini tahlil qilish, reklama va axborotlarga tanqidiy yondashishni o'rgatish) tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi samarali usullardandir. Bunday faol va interaktiv yondashuvlar o'quvchilarning media madaniyatini shakllantiradi va media-malumotlarga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalaydi. Mediakompetentlikni rivojlantirish strategiyasini belgilashda, albatta, o'qituvchining roli juda muhim. O'qituvchining o'zi media savodxon bo'lishi, media vositalaridan pedagogik maqsadda samarali foydalana olishi kerak. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, o'qituvchilarning media-pedagogik kompetentligi ta'lim jarayonining muvaffaqiyati va o'quvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malaka oshirish dasturlarida mediata'lim va media savodxonlik masalalariga e'tibor qaratish–mediakompetentlikni rivojlantirishning eng asosiy yondashuvlaridan sanaladi. Milliy ta'lim tizimimizda ham so'nggi islohotlar doirasida pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o'zlashtirishi va dars jarayonida keng qo'llashi talab etilmoqda. Bu esa, pirovardida, o'quvchilarda media bilan ishlash malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Yuqoridagi yondashuvlar umumiy maqsadga–o'quvchi-yoshlarni media makondagi faol ishtirokiga tayyorlashga qaratilgan. Mediakompetentlikni shakllantirish pedagogik jarayonda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim: avvalo axborotlarni topish va ulardan foydalanish bo'yicha boshlang'ich ko'nikmalar, so'ng ularni tahlil etish, mazmunini tushunish va tanqidiy fikrlash, keyinchalik esa media mahsulot yaratish kabi murakkabroq kompetensiyalar izchil rivojlantirib boriladi. Bu jarayonda har bir yosh bosqichiga mos metod va vositalarni tanlash, o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olgan holda variativ (o'zgaruvchan) yondashuvni qo'llash muhimdir.



Ta'lim jarayonida mediakompetentlikni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar

Ta'lim muhitida mediakompetentlikni rivojlantirish ko'p qirrali sharoitlar majmuyini talab etadi. Eng avvalo, moddiy-texnik bazani ta'minlash shart: zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter sinflari, internet tarmog'i va proyektor kabi jihozlar bilan ta'minlangan o'quv xonalari mediata'limning samarali kechishi uchun asos bo'ladi. Axborot texnologiyalaridan ta'limiy jarayonda samarali foydalanish bugungi kun o'qituvchisining muhim vazifalaridan biri etib belgilangan. Shu bois, maktab va oliy ta'lim muassasalarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kutubxonalarni elektron resurslar bilan boyitish, media kontentdan foydalanish imkoniyatini yaratish kabi shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, mediakompetentlikni shakllantirishning psixologik-pedagogik sharoitlariga e'tibor berish lozim. Ta'lim muhitida erkin va ochiq muloqot muhitini yaratish, o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifoda etishi va media axborotlarni tanqidiy muhokama qila olishini qo'llab-quvvatlash zarur. O'quvchilarda mediata'limga qiziqish uyg'otish uchun darslarni interaktiv va ijodiy faoliyatga yo'naltirish muhimdir. Bunda rolli o'yinlar, munozaralar, media loyihalar orqali o'quvchilarning faolligini oshirish mumkin. Shuningdek, oilada va jamiyatda media-madaniyatni shakllantirish ham maktabdagi sa'y-harakatlar bilan uyg'un bo'lishi kerak – ota-onalar va mahalla hamjami-

yatini media-savodxonlikka jalb etish bolalarda mustahkam ko'nikmalar hosil bo'lishini ta'minlaydi. Mediakompetentlikni rivojlantirishning eng muhim sharti – bu kadrlar salohiyati, ya'ni o'qituvchilarning tayyorgarligi. Media ta'limni amalga oshiradigan pedagoglar yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi shart: ular na faqat media vositalardan foydalanishni, balki ularning ijtimoiy-ta'limiy ta'sirini ham chuqur tushunishi lozim. Tadqiqotlardan ko'rish mumkinki, o'qituvchi o'zi media pedagogik kompetentlikka ega bo'lsa, bu o'quvchilarning barcha fanlarni o'zlashtirishida ham ijobiy natija beradi, ularning media madaniyatli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Shu sabab, ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning malakasini oshirish kurslarida media savodxonlikni oshirishga qaratilgan maxsus trening va seminarlarni yo'lga qo'yish ayni muhimdir. Ta'lim jarayonining tashkiliy-metodik shartlari ham muhim ahamiyatga ega. O'quv dasturlariga mediakompetentlik bilan bog'liq maqsad-vazifalarni kiritish, davlat ta'lim standartlarida axborot va media savodxonlikka oid kompetensiyalarni aks ettirish lozim. Ayni paytda ayrim mamlakatlarda bo'lgani kabi milliy o'quv rejamizda ham media savodxonlik elementlarini majburiy komponent sifatida joriy etish taklifi dolzarbdir. Olimlarimiz maktab o'quvchilari media savodxonligiga mamlakatimizda hali yetarlicha e'tibor berilmayotganini qayd etib, media ta'limni ta'lim jarayoniga joriy etishni alohida zarur deb ta'kidlashmoqda.

Demak, mediakompetentlikni shakllantirish uchun institutsional darajada qo'llab-quvvatlovchi siyosat va qarorlar (masalan, tegishli normativ hujjatlar, o'quv dasturlariga o'zgartirishlar) hamda metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi talab etiladi. Yuqoridagi shart-sharoitlar majmuyi bajarilgandagina, ta'lim muas-

sasida haqiqiy media muhitini shakllantirib, o'quvchilarning media bilan ishlash malakalarini kompleks ravishda rivojlantirish mumkin bo'ladi. Aks holda, mediat ta'lim epizodik yoki yuzaki xarakterga ega bo'lib qolishi hamda kutilgan pedagogik natijaga erishilmasligi mumkin.

Mediakompetentlikni rivojlantirish shart-sharoitlari

Shart-sharoitlar	Tavsif
Moddiy-texnik baza	Mediata'lim uchun texnik jihozlar (kompyuter, internet, proyektor va boshqalar) bilan ta'minlash
Psixologik-pedagogik muhit	O'quvchilarning tanqidiy fikrlashi va media bilan bog'liq muhokamalar olib borishi uchun ochiq muloqot muhiti
O'qituvchilarning malakasi	Pedagoglarning mediakompetentligi, media texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari va metodik tayyorgarligi
O'quv dasturlari va standartlar	Media savodxonlik va mediakompetentlik elementlarini ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga kiritish
Oilaviy va jamiyatlardagi mediamadaniyat	Ota-onalar va jamiyat a'zolarining media madaniyatini oshirishga jalb etish va oilaviy mediata'limni rivojlantirish
Davlat siyosati va qo'llab-quvvatlash	Mediakompetentlikni rivojlantirishga oid davlat dasturlari, qonunchilik va institutsional qo'llab-quvvatlash

Mediakompetentlikni oshirish bo'yicha xalqaro tajriba va milliy o'ziga xoslik.

Bugungi globallashuv davrida dunyoning ko'plab mamlakatlarida media savodxonlikni oshirish bo'yicha keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimiga media va axborot savodxonligini integratsiya qilish yosh avlodni axborot xurujlari va manipulyatsiyalardan himoyalash, ularni ongli fuqarolar qilib voyaga yetkazishda muhim omildir. Masalan, Finlandiya tajribasi media savodxonlik bo'yicha jahon miqyosida ilg'or namunalardan biridir – ushbu mamlakatda media ta'lim maktabgacha ta'limdan boshlab barcha bosqichlarda uzviy ravishda o'quv dasturlariga kiritilgan. Natijada, Finlandiya 47 ta Yevropa va OECD davlati ichida media savodxonlik darajasini o'lchovchi Media Literacy Index reytingida doimiy ravishda birinchi o'rinni egallab kelmoqda. Ushbu indeks aholining soxta yangiliklarga qarshi turish qobiliyatini (media erkinligi, ta'lim sifati va ijtimoiy ishonch ko'rsatkichlari asosida) baholaydi va Finlandiya 2017-yildan beri har yili bu borada yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, AQSh, Kanada, Avstraliya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda ham mediasavodxonlikni maktab ta'limiga integratsiya qilish bo'yicha milliy si-

yosatlar ishlab chiqilgan bo'lib, o'quvchilarga erta yoshdan boshlab digital kompetensiyalarni o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Xalqaro tashkilotlar ham bu jarayonda faol ishtirok etmoqda. Xususan, UNESCO media va axborot savodxonligini global darajada targ'ib qilish hamda mamlakatlarga metodik ko'mak berish bo'yicha yetakchi rol o'ynamoqda. UNESCO har bir fuqaroda tanqidiy tafakkur va onlayn makonda xavfsiz faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantirish uchun Media va axborot savodxonligi (Media and Information Literacy, MIL) dasturlarini ilgari surmoqda. BMTning ushbu tashabbuslari doirasida har yili butun dunyoda Media va axborot savodxonligi haftaliklari, konferensiyalar va seminarlar o'tkazilib, pedagoglar va siyosatshunoslar o'z tajribalarini almashmoqdalar. Markaziy Osiyo mintaqasida ham media ta'lim masalalariga e'tibor oshmoqda. Jumladan, yaqinda UNESCO va Shveytsariya taraqqiyot agentligi hamkorligida O'zbekistonda mediakompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan uch yillik loyiha boshlandi. Ushbu loyihada davlat organlari va fuqarolar uchun axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, OAV qonunchiligini takomillash-

tirish va omma orasida media savodxonlikni yuksaltirish kabi yo'nalishlar belgilangan. Bu kabi xalqaro hamkorlikdagi dasturlar O'zbekistonda media madaniyatni oshirish va zamonaviy axborot muhitiga mos mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qilishi kutilmoqda. Mediata'lim orqali o'quvchilarda media ogohlik, mediasavodxonlik, media madaniyat va mediakompetentlik singari fazilatlar kamol topadi. Bu fazilatlar nafaqat ularning shaxsiy bilim doirasi va madaniy ulg'ayishiga, balki jamiyatda axborot xavfsizligi va sog'lom ijtimoiy fikrni shakllantirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, milliy mentalitet va qadriyatlarga mos mediata'lim modelini yaratish, uni xalqaro ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtirish O'zbekiston ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biridir. Masalan, yuqorida eslatib o'tilgan Finlandiya tajribasi yoki UNESCO tavsiyalari biz uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin, biroq ularni mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish talab etiladi. Bu borada O'zbekistonda so'nggi yillarda bir qator izlanishlar qilinmoqda, ilmiy konferen-

siyalar o'tkazilib, maqolalar chop etilmoqda. Mediakompetentlik konsepsiyasini yurtimiz ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya etish orqali yoshlarning global axborot makonida raqobatbardosh va ongli fuqarolar bo'lib etishishiga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mediakompetentlikni rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining muhim pedagogik vazifalaridan biriga aylangan. Media vositalarining ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishi, maxsus mediata'lim dasturlarining joriy etilishi va o'qituvchilarning bu sohadagi malakasini oshirish orqali biz yosh avlodga zamonaviy axborot muhitida to'g'ri yo'nalishda rivojlanishiga ko'maklashamiz. Mediakompetent shaxs – bu axborotni ongli ravishda izlay oladigan, baholay oladigan, kerak bo'lsa yangilik yaratishga qodir va media mahsulotlarining ijtimoiy ta'sirini anglay oladigan shaxsdir. Bunday barkamol avlodni tarbiyalash uchun ta'lim muhitida zarur shart-sharoitlarni yaratish, ta'lim mazmunini zamon talablari asosida boyitish va ilg'or pedagogik yondashuvlarni qo'llash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Erkinova, O. Q. (2023). Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining media savodxonligini oshirish. *Journal of New Century Innovations*, 38(2), 171-177. [Maqolada media savodxonlik tushunchasi va uni oshirish yo'llari yoritilgan. newjournal.org]
2. Nosirova, S. M. (2019). O'quvchi yoshlarning mediakompetentligini rivojlantirish muammosini yechish yo'llari. *Молодой ученый (Yosh olim)*, №51(289), 513-515. [Maqolada OAVning o'quvchilarga ta'siri va mediakompetentlikni rivojlantirish orqali ularning yechimi haqida so'z boradi. moluch.ru]
3. "Mediata'lim zamonaviy ta'limning ajralmas qismi sifatida." (2024). Ta'limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari to'plami, 36, 1-qism, 77-84. [Media ta'limning maqsadi va ahamiyati, shuningdek, uni chet tili darslariga integratsiya qilish tajribasi haqida. pedagoglar.org]
4. UNESCO. (2023). Transforming the Media Landscape in Uzbekistan. *UNESCO News* (3-noyabr, 2023). [O'zbekistonda hukumat va fuqarolar uchun mediakompetentlikni kuchaytirishga qaratilgan xalqaro loyiha haqida axborot. unesco.org]
5. UNESCO. (n.d.). Media and Information Literacy. Retrieved from UNESCO official website. [Media va axborot savodxonligini rivojlantirish bo'yicha UNESCO nuqtayi nazari va XXI asr chaqiriqlari tafsiloti. unesco.org]
6. Finland Toolbox. (2023). Media Literacy and Education in Finland. [Finlyandiyada media savodxonlik ta'limi siyosati va amaliyoti, hamda uning jamiyatga ta'siri haqida ma'lumot. toolbox.finland.fi]
7. DIPF (Leibniz Institute) (n.d.). Modelling and Measuring Media Pedagogical Competence (M3K Project). [O'qituvchilarning media pedagogik kompetentligi va uning ta'limdagi roli yuzasidan tadqiqot loyihasi tavsifi. dipf.de]

KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'QUVCHILARNI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

Atajanova Dilarom Bekdurdiyevna,

Professional ta'limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini innovatsion yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi muammolar haqida fikr yuritiladi. Kasbiy ta'lim tizimidagi islohotlar, mehnat bozorida raqobatbardosh malakali kadrlarga bo'lgan talab va bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion yondashuv asosida amalga oshirish zarurligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar:

kasbiy ta'lim tizimi, xalqaro tasniflagich, kasbiy faoliyat, ish beruvchi, innovatsion yondashuv.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются проблемы подготовки учащихся организаций профессионального образования к профессиональной деятельности на основе инновационного подхода. Констатируются реформы в системе профессионального образования, потребность в конкурентоспособных квалифицированных кадрах на рынке труда и необходимость реализации инновационных подходов при подготовке будущих специалистов к профессиональной деятельности.

Ключевые слова:

система профессионального образования, международная классификация, профессиональная деятельность, работодатель, инновационный подход.

Abstract:

This article discusses the problems of preparing students of vocational education organizations for professional activity based on an innovative approach. The reforms in the vocational education system, the need for competitive qualified personnel in the labor market and the need to implement innovative approaches in training future specialists for professional activity are stated.

Key words:

professional education system, international classification, professional activity, employer, innovative approach.

Zamonaviy jamiyat innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi, ularning imkoniyatlari insoniyat rivojlanishi va ko'plab kasbiy, iqtisodiy, ijtimoiy va maishiy muammolarni samarali hal qilish uchun xizmat qilishi lozim.

Faqatgina innovatsion makonda harakat qilish uchun zarur bilimga ega bo'lgan va globallashuv va integratsiyadan foydalana oladigan mutaxassislarga bunday sharoitlarda ishlashlari mumkin, ya'ni: ular raqobatbardosh va Davlat ta'lim standartida belgilangan natijalarni to'liq egallab, mehnat bozorida qo'llay olsa va o'z navbatida, ta'lim mazmunini o'zgartirish, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirishni ham taqozo etadi.

Kasbiy ta'lim tizimi ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talablarini qondirish, mehnat faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, mahalliy va xalqaro ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o'quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish – kasbiy ta'limning asosiy maqsadidir. Bu mamlakatda ishsizlik darajasini kamayti-

rish, ish o'rinlarining doimiyligini ta'minlash, mehnat bozorida tajribali kadrlarni yetishtirishga xizmat qiladi. Kasbiy ta'lim tashkilotlari hududlarning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik sharoitlarini, mehnat bozorining tegishli soha mutaxassislariga bo'lgan talabini, manfaatdor vazirlik va idoralarning kadrlarga bo'lgan ehtiyoji hamda oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni hisobga olgan holda faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimizda kasbiy ta'lim tizimi qiyin davrni boshdan kechirmoqda. Korxonalarning tayyorlanayotgan mutaxassislar bilan ta'minlashdan, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va kengaytirishda ko'maklashishdan, o'quvchilarni ishlab chiqarish amaliyoti uchun ish bilan ta'minlashdan bosh tortishi ta'lim muassasalari faoliyati barqarorligiga, malakali kadrlar va mutaxassislar tayyorlash sifatiga bevosita ta'sir qiladi.

Jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda, kasbiy ta'lim tobora muhim rol o'ynamoqda, bu insonning muvaffaqiyatli va samarali o'zini-o'zi anglashining kalitidir. Biroq kasbiy ta'lim tizimida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ba'zi kamchiliklar mavjud bo'lib, bularga:

- kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion didaktik ta'minotining yetarli emasligi;

- ish beruvchi tashkilotlarning kasbiy ta'lim tashkilotlari bilan kadrlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olmasligi;

- kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning kelgusi faoliyatida motivatsiyaga asoslangan kasbiy faoliyatga yo'naltirish ishlarini to'g'ri tashkil etilmaganligi;

- ish beruvchi tashkilotlar tomonidan kasbiy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda zarur kasb va mutaxassislar egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalar aniqlanmaganligi;

- kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqishda ba'zi ish beruvchi tashkilotlarning vakillari ishtirok etmasligi natijasida bo'lajak mutaxassislarning zarur kasbiy malakalarga ega bo'lmasligi kabi kamchiliklar aniqlandi.

Mazkur muammolarni hal qilish o'quvchi-

larning moslashuvchan salohiyatini oshiradi, nafaqat yoshlarning ijtimoiy-kasbiy xususiyatlarini mehnat bozori talablariga muvofiqlashtirishga yordam beradi (kasbiy funksiyani amalga oshirish), balki ularning ijtimoiy rivojlanishiga ham ko'maklashadi.

Bugungi kunda kasbiy ta'lim tizimi yangi ta'lim paradigmasiga mos kelishi uchun, o'quvchilarni maqsadli ravishda ijodiy shaxs sifatida shakllantirishni o'rganish juda muhim hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchini nafaqat ijtimoiy-kasbiy bilimlar bilan ta'minlash, balki unda tanlagan kasbiga xos sifatlar shakllanishiga ham yordam berishi lozim. Ta'kidlash joizki, bunda ta'lim jarayoni uchta asosiy maqsadlarni hal qilishi lozim:

- davlat manfaatlariga mos holda, o'quvchini bo'lajak mutaxassis sifatida kasbiy tayyorlash;

- o'quvchini jamiyat a'zosi sifatida shakllantirib, ijtimoiy tajriba va qadriyatlarini, me'yorlarni anglagan jamiyat manfaatlariga bilan hamohang faoliyat ko'rsatuvchi kadrlarni tayyorlash;

- o'quvchini faol, tashabbuskor, mantiqan fikrlovchi mutaxassis sifatida rivojlantirish.

Shu maqsadlarni amalga oshirish natijasida xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida xalqaro tasniflagichning kamida 3-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda ikki yilgacha muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida to'lov kontrakt yoki davlat buyurtmasi bo'yicha davlat granti asosida ta'lim olishlari mumkin. Texnikumlarda xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi va oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlanadi. O'quvchilarning o'qishlari kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda kamida ikki yil muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida to'lov kontrakt yoki davlat buyurtmasi bo'yicha davlat granti asosida amalga oshiriladi. O'rta maxsus ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yak-

ka tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishni davom ettirish huquqiga ega bo'ladilar.

Inson hayotiga kirib keladigan har qanday yangilik unda sergaklikni, hattoki norozilikni uyg'otadi. Shunga ko'ra, uzoq yillar davomida an'anaviy usullar bilan ishlab kelgan pedagoglar bugungi kunning o'zidayoq takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartlari asosidagi o'quv jarayonini talab darajasida tashkil eta olmaydilar. Eng avvalo, ta'limda biror bir o'zgarishlarni amalga oshirish uchun avval o'qituvchining kasbiy ongini tubdan o'zgartirish kerak.

Pedagoglarimiz darslarni yangi takomillashgan standart asosida tashkil etish uchun, avvalo, o'z faniga oid davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini sinchiklab o'rganishi, yangidan nashr etilgan darslik bilan tanishishi, taqdim etilgan o'quv dasturi asosida taqvim reja tuzib olishi kerak bo'ladi. Innovatsion yondashuvga asoslangan dars ishlanmalarida ham tegishli o'zgarishlar qilish lozim. Jumladan, dars texnologik xaritasida darsning maqsadi, jihozlari, o'qitish texnologiyasi va boshqalar o'zgarishi bilan birgalikda o'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kasbiy kompetensiyalar aniq holda belgilab olinadi. Shu bilan birga pedagog o'quvchilarda mazkur kompetensiyalar shakllanganligini aniqlay olish

ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. [3,28.].

Tahlillardan kelib chiqib, kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning yangi axborotlarini o'rganish, davr talablarini his etish, yangi bilimlarni izlab topish, ularni boyitish va amaliyotda qo'llay bilishi kerak deb hisoblash mumkin.

O'qituvchilarni innovatsion ta'lim muhiti talablari asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish:

1. *Bo'lajak mutaxassislarning mutaxassislik fanlari bo'yicha malaka talablarini shakllantirishda innovatsion yondashuvning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratish.*

2. *Innovatsion ta'lim muhiti talablari e'tiborga olingan holda o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha mutaxassislik fanlaridan elektron qo'llanmalardan foydalanish.*

Kasbiy faoliyatga tayyorlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi [3,28.].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. Diss. ... pedagogika fanlari doktori T.2007. – 44 b.
2. Ashurova S.Y. Yengil sanoat yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassislari tayyorlashda maxsus fanlarni modulli o'qitishning ilmiy-uslubiy asoslari ("Tikuvchilik ishlab chiqarish" yo'nalishi misolida): Ped. fan. nomz. ... - T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2004. - 132 b.
3. Raxmatullayeva D.R. Intellektual yoshlarni tayyorlashda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish // "O'zbekiston yoshlari: agrar soha rivojida mening hissam" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent davlat agrar universiteti. –T.: 2020, –B. 46-48.
4. D.Atajanova "Mehnat bozorida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish zaruriyati" "Professional ta'lim muassasalari boshqaruv va pedagog kadrlarini masofadan o'qitishni rivojlantirish" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy seminari, 2021-yil 23-iyun.
5. D.Atajanova, "Zamonaviy mehnat bozorida hunarli yoshlar bandligini ta'minlash masalalari" "Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishning dolzarb masalalari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2023-yil 26-oktabr.
6. D.Raxmatullayeva, Y.Raxmatov "Ta'limni raqamlashtirish asosida professional ta'lim tizimining o'qitish sifatini oshirish omillari" Ilmiy-metodik jurnal, 2024-3/2-son.

PROFESSIONAL TA'LIM O'QITUVCHILARI VA O'QUVCHILARI UCHUN SUN'IY INTELLEKTDAN TO'G'RI FOYDALANISH USULLARI

Sharopov Farrux Furqat o'g'li,

Buxoro energetika, neft va gaz sanoati texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada professional ta'lim tizimida ChatGPT kabi sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari tahlil qilingan. Unda o'qituvchilar uchun dars jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, hamda individual yondashuvni ta'minlash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, ChatGPT vositasidan foydalanish bo'yicha amaliy misollar keltirilib, uning o'quv jarayonidagi afzalliklari va cheklovlari muhokama qilingan. Mazkur maqola ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlarni izlayotgan o'qituvchilar va ta'lim texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar uchun foydalidir.

Kalit so'zlar:

Sun'iy intellekt, Case Study, ChatGPT, kontekst, Diskussiya, NLP – Natural Language Processing, Interaktiv.

Аннотация:

В статье анализируются способы эффективного использования технологий искусственного интеллекта, таких как ChatGPT, в системе профессионального образования. В нем освещаются возможности преподавателей сделать процесс обучения интерактивным и интересным, развить у учащихся навыки самостоятельного обучения и обеспечить индивидуальный подход. Также были приведены практические примеры использования инструмента ChatGPT и обсуждены его преимущества и ограничения в процессе обучения. данная статья будет полезна педагогам и специалистам в области преподавания образовательных технологий, которые занимаются поиском инновационных подходов в образовании.

Ключевые слова:

Искусственный интеллект, Пример, ChatGPT, контекст, Обсуждение, NLP – Обработка естественного языка, Интерактивный.

Annotation:

This article analyzes the effective use of artificial intelligence technologies such as ChatGPT in the professional education system. It highlights the possibilities for teachers to make the teaching process interactive and interesting, develop students' independent learning skills, and provide an individual approach. It also provides practical examples of using the ChatGPT tool and discusses its advantages and limitations in the learning process. This article is useful for teachers and educational technology specialists who are looking for innovative approaches in the field of education.

Key words:

Artificial Intelligence, Case Study, ChatGPT, context, Discussion, NLP – Natural Language Processing, Interactive.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 17-fevralda imzolangan farmonlari "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish doirasida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida mamlakatda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratish, iqtisodiyotning turli sohalari

barobarida ta'lim samaradorligini oshirishda ham raqamli texnologiyalardan foydalanishni tashkil etish ko'zda tutilgan. Sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar yaratib, o'qitish jarayonini raqamlashtirish imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini innovatsion vositalar bilan boyitishni talab qiladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari, xusu-

san, ChatGPT kabi dialoglashuvchi tildagi modellar, o'quv jarayonida yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. ChatGPT kabi ilg'or chatbotlar professional ta'limda o'qituvchilar va o'quvchilar uchun innovatsion vosita sifatida katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat ta'lim jarayonini optimallashtirish, balki o'qituvchilarning mehnatini yengillashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu mavzu zamonaviy ta'lim sohasida raqamli transformatsiyani amalga oshirish yo'lida muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

ChatGPT – bu OpenAI tomonidan yaratilgan sun'iy intellektga asoslangan dastur bo'lib, tilni qayta ishlash (NLP – Natural Language Processing) texnologiyasi yordamida matnni tahlil qilish, tushunish va mazmunli javob berishni amalga oshiradi [1, 29-30].

ChatGPT botdan dars mashg'ulotlarini olib borishda foydalanish uchun quyidagi metodlarni qo'llash mumkin. Ular interaktivlikni oshirish, talabalarning qiziqishini jalb qilish va ularning bilimlarini mustahkamlash-

ga yordam beradi:

1. Interaktiv savol-javob usuli–har bir mavzu bo'yicha o'quvchilarni o'ylantiradigan yoki ularning bilimlarini tekshiradigan savollarni tayyorlash hamda berilgan savollarni ChatGPT botdan foydalanib izlashlarini aytish va javoblarni qabul qilib olish yoki u yordamida mavzuga oid qiziqarli boshqotirma yoki test topshiriqlarini ishlab chiqish.

2. Case Study (Vaziyat tahlili) usuli-ChatGPT yordamida o'quvchilarga tegishli sohalar bo'yicha real hayotiy masalalar yoki vaziyatlarni o'qituvchi taqdim etadi hamda o'quvchilar ChatGPT bot orqali tahlil qilib natijalarni tushuntiradi.

3. Diskussiya va bahs-munozara tashkil qilish–turli vaziyatlarda qanday qarorlar qabul qilishni tahlil qilish uchun ChatGPT bilan muloqot qilish.

Bu metodlar darslarni yanada qiziqarli, samarali va interaktiv qilishga yordam beradi [3, 58-59].

Natijalar. ChatGPT–sun'iy intellekt asosida ishlovchi vosita bo'lib, foydalanuvchilar bilan tabiiy tilda muloqot qiladi va turli ma'lumotlarni yetkazib beradi.

ChatGPTning asosiy vazifalari

Vazifasi	Mohiyati
1. Matnni tushunish va javob berish	– ChatGPT matn shaklidagi savollarni tushunib, ularga mantiqiy va to'g'ri javob beradi; – oddiy suhbatlardan murakkab mavzulardagi tahlillargacha ishlashi mumkin.
2. Ma'lumot taqdim qilish	– foydalanuvchining savollariga javob berish uchun turli mavzular bo'yicha ma'lumot beradi; – ilmiy izlanishlar, texnologiyalar, tarix va boshqa ko'plab sohalar haqida izoh berishi mumkin.
3. Til o'rgatish:	– til qoidalarini tushuntiradi, tarjima qiladi va boshqa tillarni o'rganishda yordam beradi.
4. Ta'lim sohasida yordamchi sifatida	– o'quvchilarga murakkab mavzularni tushuntirish, savollarga javob berish, mustaqil ishlar va referatlar yozishda yordam beradi.

1. CHatGPTdan qanday foydalanish mumkin?

Tizimga kirish:

- ChatGPTga kirish uchun mobil ilova, veb-sayt yoki integratsiyalashgan platformadan foydalanish.

So'rovni shakllantirish:

- Aniqlik va tushunarli savollar bering;

- Murakkab savollarni qismlarga bo'ling.

Foydalanish sohasi bo'yicha misollar:

- **Ta'lim:** "Menga neft va gazni qayta ishlash to'g'risida soddalashtirilgan tushuncha bering."

- **Ish:** "Marketing strategiyasi rejasini yaratishga yordam bering."

• **Shaxsiy yordam:** *“Kundalik rejani samarali tuzish yo'llarini ko'rsating.”*

ChatGPTdan foydalanishni boshlashdan oldin, o'quvchilar quyidagi jihatlariga e'tibor qaratishlari lozim:

ChatGPTning vazifalari va cheklovlarini tushunish:

- Asosiy vazifasi: ChatGPT ma'lumot berish, savollarga javob berish va yordam ko'rsatish uchun ishlatiladi. U real o'qituvchi yoki mutaxassis o'rnini bosa olmaydi, balki qo'shimcha yordamchi sifatida ishlatiladi.

- Cheklovlar:

- ChatGPT har doim to'g'ri javob bermasligi mumkin. Javoblarni tekshirish va tasdiqlash zarur;

- Hozirgi kunda mavjud bo'lmagan yoki aniq ma'lumot talab qilinadigan savollarda xato qilishi mumkin [4, 77-79].

ChatGPTdan foydalanish maqsadini belgilash

Qanday savollarga javob olish yoki qanday vazifalarni bajarish kerakligini aniq belgilash. Masalan:

- O'qish uchun mavzularni o'rganish;
- Uy vazifalarini bajarishda yordam olish;
- Fikrlarni tahlil qilish yoki ma'lumotlar yig'ish [5, 67–69].

Savollarni to'g'ri va aniq shakllantirish:

- Savollarni qisqa, aniq va maqsadga yo'naltirilgan holda ifodalash lozim.

- to'g'ri savol: “Qayta ishlash jarayoni qaysi uskunada amalga oshiriladi?”

- noto'g'ri savol: “Bu 6 nima?” (Aniqlik yetishmaydi.)

Javoblarni tahlil qilish va tasdiqlash

Olingan ma'lumotlar yoki javoblarni boshqa manbalar bilan tekshirish tavsiya etiladi. Bu ayniqsa ilmiy yoki muhim qarorlar qabul qilish kerak bo'lgan holatlarda muhim.

ChatGPTning axloqiy va texnik ishlash qoidalariga rioya qilish

Axloqiy foydalanish: Yomon so'zlar yoki noto'g'ri ma'lumotlar so'rashdan saqlanish.

Haddan tashqari ishonmaslik: ChatGPT inson hissiyotlarini tushunmaydi va faqat texnik algoritmlar asosida ishlaydi.

Shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash:

- Hech qachon shaxsiy ma'lumotlar, parollar yoki maxfiy ma'lumotlarni ChatGPT bi-

lan bo'lishmaslik.

- Internetda foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

2. ChatGPTdan samarali foydalanish qoidalari.

Aniqlik va qisqalik: So'rovlarni aniq va qisqa shaklda ifoda qiling.

Masalan:

- notog'ri: *“Menga yordam kerak, bir narsa haqida o'ylayapman”.*

- to'g'ri: *“Neft va gaz sohasi haqida ma'lumot bering”.*

To'liq kontekst berish: Mavzuni batafsil-roq tushuntiring.

Masalan: *“Jahongir Sodiqovning ilmiy faoliyati haqida yozing”.*

Maxsus buyruqlardan foydalanish:

- *“Tushuntirib bering”.*

- *“Misol keltiring”.*

- *“Qadam-baqadam tushuntiring”.*

Teskari aloqa: Javobdan qoniqmasangiz, aniqlik kiritib, qayta so'rang.

Masalan: *“Bu juda umumiy. Iltimos, chuqurroq tahlil qilib bering” [2, 56-57].*

ChatGPT'dan samarali foydalanish uchun quyidagi qoidalariga amal qilish tavsiya etiladi:

Aniq maqsad qo'yish.

ChatGPT dan foydalanishdan oldin, nima uchun murojaat qilayotganingizni aniqlab oling:

- *ma'lumot olishmi?*

- *muammoni hal qilishmi?*

- *ijodiy yozuvlar yaratishmi?*

Maslahat: Belgilangan maqsad asosida savol yoki topshiriqni aniq va tushunarli shaklda berishga harakat qiling.

Savol va so'rovlarni to'g'ri shakllantirish.

- **Aniqlik:** Savollarni qisqa, to'g'ri va mazmunli shaklda yozing.

- to'g'ri: *“Tabiiy gazning fizik-kimyoviy xossalari haqida ma'lumot bering.”*

- noto'g'ri: *“Gaz haqida gapiring” (Juda umumiy).*

- *Iloji boricha kontekst qo'shing:*

Masalan, *“neft gaz texnikumi referati uchun neft mavzuda ma'lumot bering”.*

Murakkab topshiriqlarni bo'lib berish

Topshiriq murakkab yoki ko'p bosqichli bo'lsa, uni kichik qismlarga ajratib bering.

Javoblarni tahlil qilish va tasdiqlash:

1. Har bir javobni boshqa manbalar yordamida tekshiring.

2. Ayniqsa, ilmiy, texnik yoki tarixiy ma'lumotlarni olishda ehtiyot bo'ling.

3. Agar javob noto'g'ri yoki noaniq bo'lsa, qo'shimcha savol bering.

Foydalanish chegaralarini bilish

- Axloqiy qoidalar:

1. ChatGPTdan yomon niyatli maqsadlarda foydalanmang.

2. Noqonuniy yoki axloqiy jihatdan nojoiz bo'lgan savollar bermang.

3. Shaxsiy xavfsizlik: maxfiy ma'lumotlar, parollar yoki shaxsiy ma'lumotlarni kiritmang.

Qayta savol berish:

Agar javob yetarlicha aniq yoki to'liq bo'lmasa:

- "Bu javobni yanada batafsilroq tushuntirib bera olasizmi?"

- "Bu mavzuni boshqa uslubda tushuntirib bering."

Tilni o'rganishda foydalanish:

- Savollarni bir nechta tillarda berib, til qobiliyatingizni oshiring.

- Grammatika va uslub bo'yicha savollar bering.

Texnik ko'nikmalarni rivojlantirish:

- Dasturlash bo'yicha maslahat olish, kod yozish yoki xatolarni tuzatishda foydalaning.

- Qisqa texnik savollardan murakkab kod yechimlariga qadar yordam so'rashingiz mumkin.

Doimiy ravishda o'z fikringizni bildiring:

Agar ChatGPT siz kutgan javobni bermasa yoki boshqa uslubda javob berishini istasangiz, o'z talablaringizni aniqroq ko'rsating.

Misol: "Buni o'quvchilar uchun oddiyroq tilda tushuntirib bering".

Foydalanish vaqtini nazorat qilish:

ChatGPTdan samarali foydalanish uchun vaqtni boshqaring va ortiqcha foydalanib, boshqa faoliyatlarni cheklamang.

Muhokama. O'qituvchilar va talabalar uchun foydali tavsiyalarga quyidagillar kiradi:

- O'qituvchilar uchun:

Nazariy materiallarni tayyorlash.

Dars rejalari yaratish.

Talabalarga mustaqil ishlash uchun top-

shiriqlar tuzish.

- O'quvchilar uchun:

Konspektlar va qisqacha eslatmalar yaratish.

Referat, kurs ishlari yoki diplom ishlarini rejalashtirish.

Murakkab mavzularni soddalashtirilgan tilda tushuntirishni so'rash.

ChatGPT o'qituvchilar va talabalar uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu vositadan unumli foydalanish uchun quyidagi tavsiyalarni hisobga olish mumkin:

O'qituvchilar uchun foydali tavsiyalar:

1. Dars rejalashtirishda yordam:

Dars mavzusiga mos tayyor materiallar yaratishda foydalaning.

Misol: "Neftni qo'shimchalardan tozalash mavzusida qisqa reja tuzib bering".

• Faoliyatni rejalashtirishda yangi g'oyalar taklif qila oladi.

2. O'quv materiallarini tayyorlash:

• savol-javoblar, test savollari va topshiriqlarni yaratishda yordam so'rang.

Misol: "Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi fanidan testlar tuzib bering".

• ijodiy matnlar, masalan, hikoyalar yoki ssenariylarni yaratishda ham yordam beradi.

3. Talabalar uchun tushuntirish:

• qiyin mavzularni tushuntirishda ChatGPTga murojaat qiling. Talabalar tushunishi osonroq bo'lgan tarzda mavzuni qayta bayon qilishi mumkin.

Misol: "Rektifikatsion kanallarga oid hisoblashlardan o'quvchilar uchun oddiy tushuntirish bering".

4. Individual yondashuvni kuchaytirish:

• talabalar savollariga aniq va individual javob berishda yordamchi sifatida foydalaning.

Masalan, sinfdagi turli qobiliyatlarga ega talabalar uchun mos usullarni ishlab chiqishda foydalanishingiz mumkin.

5. O'z ustida ishlash:

• ta'lim sohasidagi eng so'nggi trendlar va metodikalarni o'rganish uchun savollar bering.

Misol: "O'qituvchilar uchun eng samarali o'qitish metodikalarini tushuntirib bering".

6. Interaktiv o'quv jarayonini yaratish:

• talabalar bilan qiziqarli suhbatlar yoki

muloqotlar uchun ChatGPTdan foydalanib, yangi savollar va misollar tuzing.

O'quvchilar uchun foydali tavsiyalar:

1. O'quv materiallarini o'rganish:

• Mavzularni tushunishda ChatGPTdan yordam so'rang.

Misol: "Nasos qanday ishlaydi?"

Murakkab mavzularni oddiy so'zlar bilan tushuntirib beradi.

2. Uy vazifalarini bajarish:

• uy vazifalarini tushunishda yordam so'rang, lekin faqat tayyor javob olishga emas, balki mavzuni tushunishga e'tibor qaratish.

Misol: "Nasosning ishlash prinsipi haqida ma'lumot bering".

3. Referatlar va esse yozish:

• Mavzular bo'yicha asosiy g'oyalar, rejalar va kontent taklifini olish uchun foydalaning.

Misol: "Gazning xossalari haqida qisqa referat yozishda yordam bering".

4. Testlarga tayyorgarlik:

• O'zingizni sinash uchun savollar tuzing yoki mavjud bilimlaringizni mustahkamlash uchun javoblar so'rang.

Misol: "Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi fanidan savollar bering".

5. Yangi til o'rganish:

• Ingliz, fransuz yoki boshqa tillarni o'rganishda so'z boyligini oshirish, grammatikani tushunish va mashqlarni bajarishda yordam so'rang.

Misol: "Menga ingliz tilida kunlik suhbatlar uchun iboralarni o'rgating".

6. Dasturlash va texnik ko'nikmalar:

• Kod yozishni o'rganish yoki texnik muammolarni hal qilishda ChatGPT yordam beradi.

Misol: "Python tilida oddiy kalkulyator

dasturi yozing".

7. Savodxonlik va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish:

• ChatGPT orqali grammatik xatolarni aniqlash va tahrir qilishda yordam oling.

Misol: "Mening inshomdagi grammatik xatolarni toping va tahrir qiling".

8. Murakkab masalalar bo'yicha yordam:

• Qiyin mavzularni oddiyroq usulda tushuntirishni so'rang yoki muammolarni bosqichma-bosqich hal qilishni o'rganing.

Misol: "Neftdan benzin ajratib olish texnologiyasini bosqichma-bosqich tushuntir".

Umumiy tavsiyalarga quyidagilar kiradi:

• Interaktivlikdan foydalaning: ChatGPT-ga qo'shimcha savollar berib, mavzuni yanada chuqurroq o'rganing;

• Tushunishga e'tibor bering: faqat tayyor javobni emas, tushunish uchun izohlar so'rash muhim;

• Cheklovlarni inobatga oling: olingan javoblarni boshqa manbalar orqali tekshirish odatini shakllantiring [3, 17-20].

Xulosa. ChatGPT ta'limda zamonaviy vosita sifatida o'qituvchilar va o'quvchilarga katta yordam beradi. U o'quv jarayonlarini interaktiv, samarali va qiziqarli qilish uchun imkoniyat yaratadi. Texnologiyani to'g'ri qo'llash orqali o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, o'qituvchilarning dars jarayonlarini rejalashtirish va materiallar tayyorlashdagi samaradorligini kuchaytirish, mustaqil ta'lim va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga erishiladi. Ammo ChatGPTdan foydalanishda maxfiylik va aniqlikni ta'minlash, shuningdek, uning cheklovlarini hisobga olish muhimdir. Bu vositadan oqilona foydalanish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Y.Abdurahmonov., Sh.Turdiqulova., A.Abduvaliyev., R.Musayeva., G.Barbu. Sun'iy intellekt: prognozlar, tarmoqlar va istiqbollar bo'yicha dayjest.
2. Q.Bekmuratov. Sun'iy intellekt. Oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun o'quv qo'llanma. - T.: «Aloqachi», 2019.
3. Искусственный интеллект (мировой рынок)// <https://www.tadviser.ru/index.php>
4. Y.Axraxonov. Ta'lim tizimida axborot vositasining o'rni. 2022.
5. A.Yo'ldashev., O.Nishonqulov, S.Yoldasheva. Ta'limdagi axborot texnologiyalari. //Scientific progress, 2021.
6. F.Sharopov. Professional ta'limda maxsus fanlarni o'qitishda sun'iy intellektidan foydalanish imkoniyatlari// Ilm sarchashmalari. Ilmiy-nazariy, metodik jurnal 2024-y. 84-bet.

KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI O'QUVCHILARIDA IQTISODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH SHARTLARI

Mingboyeva Yulduz Boboxolovna,

Jizzax politexnika instituti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya.

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida iqtisodiy kompetensiyalarini shakllantirishda o'quv dasturlari, o'qitish usullari va darsdan tashqari mashg'ulotlarning rolini hisobga olgan holda, iqtisodiy bilimlarni real hayotga integratsiyalash haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar:

iqtisodiy kompetentlik, professional ta'lim, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish, professional muassasalar, ta'lim amaliyoti.

Аннотация:

Рассматривая роль образовательных программ, методов обучения и внеаудиторной деятельности в формировании экономических компетенций учащихся профессиональных образовательных учреждений, рассмотрена интеграция экономических знаний в реальную жизнь.

Ключевые слова:

экономическая компетентность, профессиональное образование, разработка учебных программ, критическое мышление, принятие решений, профессиональные институты, образовательная практика.

Abstract:

The paper discusses the integration of economic knowledge into real life, taking into account the role of curricula, teaching methods, and extracurricular activities in the formation of economic competencies in students of vocational educational institutions.

Keywords:

Economic competence, professional education, curriculum development, critical thinking, decision-making, teaching methods, professional institutions, educational practices, real-world application.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishida muayyan darajada xizmat qiladi. Hozirgi kunda professional ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilarga bilim berishda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar mavjudligi, ular talaba iqtisodiy tafakkuri rivojiga ijobiy yoki aks ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlanadi.

Jamiyat va shaxsning iqtisodiy bilimi hamda madaniyati haqida fikr yuritish, tabiiyki

jamiyat hayotining iqtisodiy sohasini falsafiy jihatdan tahlil etishni taqozo etadi. Bino-barin, iqtisod jamiyat hayoti va uning taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda chuqur va mustahkam iqtisodiy tafakkur, bilim, ma'rifatga ega bo'lmasdan, ularni omilkorlik bilan amaliyotda qo'llamasdan turib, nafaqat jamiyat, davlat, balki oddiy insonning hayotiy faoliyatini ham tartibga solish va boshqarish mushkul.

Iqtisodiyot so'zi yunoncha oikonomos so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uy xo'jaligini boshqaradigan kishi degan ma'noni anglatadi.

Jamiyat hayoti, jarayon va hodisalarning iqtisodiy jihatini tushunish, T.V.Kondratenkoning fikricha, yosh avlodda murakkab bilimlarni egallash va ularning mazmuniga yaxlit qarashni shakllantirishni ta'minlaydi.

Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini o'qitishda iqtisodiy bilim, albatta, iqtisodiy ta'lim jarayonida shakllantiriladi. Iqtisodiy ta'lim esa integral tavsifga ega bo'lib, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik jihatlar bilan bog'liqlikda rivojlanib boradi. Iqtisodiy ta'lim - murakkab integral ta'lim jarayoni hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy madaniyatning mohiyatini bilish, shu jumladan, uni bashorat qilish, shakllantirish, saqlash va mustahkamlash usullarini hisobga olgan holda, insonning ijtimoiy ahamiyatga ega hayotiy qadriyatlarini baholash tizimi. Iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish natijasida shaxsning iqtisodiy madaniyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy xulq-atvori shakllanadi hamda hayotiy faoliyat davomida inson hayotining sifati bilan tartibga solinadi. Shaxsni individual darajada shakllantirish, o'z- o'zini anglashi va rivojlantirishi maqsadli, mazmunan, kognitiv, texnologik kabi bir qancha yo'nalishlarda olib boriladi. Iqtisodiy madaniyat pedagogik jarayonda insonning umumiy madaniyatining asosiy komponentlaridan biridir.

K.S.Doroxina har bir o'quv profili uchun iqtisodiy kompetensiyani shakllantirish samaradorligini ta'minlaydigan maxsus shartlarni (ta'lim texnologiyalarini tanlash, doimiy monitoring va boshqalar) ajratish kerak deb hisoblaydi.

Yevropa Komissiyasi tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, professional ta'lim bitiruvchilari ko'pincha oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qaraganda tezroq va kamroq ish kuchiga ega bo'lib, iqtisodiyotga hissa qo'shadilar.

Ushbu ijobiy tendensiyalarga qaramay, professional ta'limni jahon iqtisodiyotining o'zgaruvchan talablari bilan uyg'unlashtirishda muammolar saqlanib qolmoqda. Jahon Iqtisodiy Forumi ma'lumotlariga ko'ra, ko'plab professional ta'lim tizimlari kirish, tenglik, sifat va dolzarblik bilan bog'liq muammolarga duch keladi, bu esa talabalarni ishchi kuchi sifatida tayyorlashda ularning samaradorligiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Tahlillarga ko'ra, an'anaviy to'rt yillik daraja endi o'rta ta'limdan keyingi ta'limning standart varianti bo'lmasligi mumkin, shu sababli bugungi kunda jismoniy shaxslarni hozirgi mehnat bozori talablariga moslashtirilgan maxsus ko'nikmalar bilan ta'minlovchi qisqaroq, maqsadli o'quv dasturlariga e'tibor kuchayib bormoqda.

O'zbekistonda professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va jahon bozoriga integratsiyalashuviga strategik e'tibor qaratilishi iqtisodiy tamoyillar va amaliyotlarni yaxshi biladigan kadrlarni talab qiladi.

Iqtisod fani va ta'limga tegishli zaruriy talablar zamonaviy pedagogika fani va amaliyoti oldiga bir qator o'ta muhim vazifalarni qo'yadi hamda ularga to'g'ri yechim topish yosh avlodning to'laqonli va sog'lom turmush tarziga tubdan bog'liq bo'libgina qolmay, balki iqtisodiy bilimlarni olish va qo'llash jarayonidagi ishga qodirligiga aloqador.

Ushbu maqola professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning o'ziga xos jihatlarini o'rganish orqali professional ta'limning metodologiyasi, muammolari va istiqboldagi yo'nalishlarini o'rganishga qaratilgan.

Professional ta'limda iqtisodiy kompetensiya rivojlanishining keng qamrovli o'rganilishi uning ko'p qirrali manzarasini ochib berdi. Professional ta'limni rivojlantirish bo'yicha Yevropa markazi (Cedefop) tomonidan o'tkazilgan tizimli tahlil professional ta'lim hamda uning qisqa va o'rta muddatli ijobiy iqtisodiy samarasini ta'kidlab, professional ta'lim bitiruvchilari umumiy ma'lumotga ega bo'lgan tengdoshlariga nisbatan ko'pincha ish bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari va ish haqi ustamalariga ega bo'lishlarini ta'kidlaydi.

Adabiyotlarda professional ta'limda iqtisodiy kompetensiyalarni baholash uchun qo'llaniladigan bir qator usullar aniqlangan. Professional ta'lim va ta'limda empirik tadqiqotlar jurnallarida chop etilgan ilmiy tadqiqot ishlari iqtisodiy sohalar uchun psixometrik modelni ishlab chiqishni muhokama

qilib, nazariy bilim va amaliy qo'llash orqali kompetensiyalarni o'lchash muhimligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, ASEAN iqtisodiy hamjamiyatida professional ta'lim o'quv dasturlarini har tomonlama tahlil qilish malakani rivojlantirishda yaxlit yondashuvni aks ettiruvchi texnik ko'nikmalar va yumshoq ko'nikmalarning ustuvorligini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqot professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishni tahlil qilish uchun aralash usullardan foydalanadi. Tadqiqot loyihasi mavzuni har tomonlama tushunishni ta'minlash uchun sifat va miqdoriy ma'lumotlarni to'plash usullarini birlashtiradi.

Turli professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning iqtisodiy kompetensiyalarini baholash uchun so'rov vositasi ishlab chiqilgan. So'rov nazariy bilimlarni, amaliy qo'llashni va iqtisodiy kompetensiyaga tegishli yumshoq ko'nikmalarni o'lchaydigan narsalarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish uchun qo'llaniladigan pedagogik strategiyalar va o'quv dasturlari loyihalari haqida tushunchaga ega bo'lish uchun o'qituvchilar va o'quv dasturlarini ishlab chiquvchilar bilan chuqur suhbatlar o'tkazildi. Samarali o'qitish amaliyotlari, duch keladigan muammolar va malakani rivojlantirishda idrok etilgan natijalar bilan bog'liq takrorlanadigan mavzularni aniqlash uchun intervyu transkriptlarida tematik tahlil qo'llanildi.

Professional ta'limda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning kelajakdagi tendensiyalarini prognoz qilish uchun tadqiqotda bashoratli modellashtirish usullari qo'llanildi. Ta'lim amaliyotlari, mehnat bozori talablari va texnologik yutuqlarga oid mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o'rganish malaka talablaridagi potensial o'zgarishlarni va o'quvchilarni kelajakdagi iqtisodiy muammolarga tayyorlashda professional ta'limning o'zgaruvchan rolini loyihalashtiradi. Ushbu keng qamrovli metodologiya professional ta'limda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida batafsil tushuncha berishga qaratilgan

bo'lib, bu sohadagi manfaatdor tomonlar uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Professional ta'lim muassasalarida iqtisodiy kompetensiyalarning rivojlanishi tahlili empirik ma'lumotlar va bashoratli tushunchalar bilan tasdiqlangan bir qancha muhim xulosalarni ochib beradi.

Ishchi kuchining katta qismi professional malakaga ega. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) ma'lumotlariga ko'ra, OECD mamlakatlarida 25-34 yoshdagi shaxslarning taxminan uchdan bir qismi o'zlarining eng yuqori ta'lim darajasi sifatida professional malakaga ega bo'lib, professional ta'limning malaka oshirishdagi muhim rolini ta'kidlaydi. Yevropa Ittifoqida 2020-yilda 10 va undan ortiq xodimga ega korxonalarning 67,4 foizi o'z xodimlariga uzluksiz professional ta'lim berishgan. Bu ishchi kuchi doimiy malaka oshirishga jiddiy jalb etilganidan dalolat beradi.

Texnologik yutuqlar professional ta'limga yanada ta'sir qilishi kutilmoqda. O'quv dasturlarida virtual haqiqat va to'ldirilgan reallik kabi texnologiyalarning integratsiyalashuvi o'rganish tajribasini oshirishi va talabalarni o'zlari tanlagan sohalarning raqamli landshaftiga yaxshiroq tayyorlashi kutilmoqda.

Professional ta'lim muassasalarida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish dinamik soha bo'lib, muhim yutuqlar va davom etayotgan muammolar bilan ajralib turadi. Professional ta'limi bandlik va iqtisodiy natijalarga sezilarli hissa qo'shgan bo'lsa-da, foydalanish imkoniyatlaridagi nomutanosibliklarni bartaraf etish va o'quv dasturlarini rivojlantayotgan sanoat ehtiyojlariga moslashtirish uning ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun muhim bo'lib qolmoqda. Kelajakdagi tendensiyalar texnologik integratsiyaga e'tibor kuchayishini va jahon iqtisodiyotida professional malakali kadrlarning ahamiyatini yanada kengroq tan olishni ko'rsatmoqda.

Professional ta'lim muassasalarida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish ko'p qirrali ish bo'lib, uning samaradorligi va zamonaviy mehnat bozoridagi dolzarbligini shakllantiradigan turli omillar ta'sirida ushbu munozara yakunlari bo'limidan olingan nati-

jalarni umumlashtiradi, ularni kengroq ta'lim va iqtisodiy yo'nalishlar doirasida kontekstga aylantiradi hamda kelajakdagi siyosat va amaliyot uchun oqibatlarini o'rganadi.

Professional ta'lim aholi bandligi va iqtisodiy natijalarga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, professional ta'lim bitiruvchilari umumiy ma'lumotga ega bo'lgan tengdoshlariga qaraganda ko'pincha ish bilan ta'minlanish darajasi va ish haqi ustamalari jihatdan yuqori o'rinda turadi. Masalan, Yevropa Professional Ta'limni Rivojlantirish Markazi (Cedefop) ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqida professional ta'lim bitiruvchilari ish bilan ta'minlanganlik darajasi 80% ni tashkil etadi va bu umumiy bandlik darajasiga qaraganda 75% ga yuqori.

Bundan tashqari, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) professional malakaga ega bo'lgan shaxslarning umumiy ma'lumotga ega bo'lganlarga nisbatan umrbod ishsizlik darajasi pastroq va yuqori daromadga ega ekanligini ta'kidlaydi. Bu shaxsiy iqtisodiy harakatchanlikni oshirish va milliy iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishda professional ta'limning iqtisodiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Professional ta'lim sohasi malakali ishchi kuchiga bo'lgan talab ortib borayotgani tufayli sezilarli o'sishni boshdan kechirmoqda. Professional ta'lim bozori 2028-yilga kelib 1,1 trillion dollarni tashkil etishi va yillik o'sish sur'ati (CAGR) 8,5% ni tashkil qilishi kutilmoqda. Ushbu kengayish rivojlanayotgan iqtisodiy landshaftda amaliy, martabaga yo'naltirilgan ko'nikmalarning ahamiyati global e'tirofini aks ettiradi. Yev-



ropa Ittifoqida professional ta'lim dasturlari 2022-yilda o'rta ta'limdagi barcha o'quvchilarning 49 foizini tashkil etdi, bunda erkaklar ulushi ko'proq. Ushbu demografik tendensiya ayollarning professional ta'limda ishtirokini rag'batlantirish, shu orqali turli kasblarda gender tengligini ta'minlash uchun maqsadli strategiyalar zarurligini ko'rsatadi.

Ijobiy tendensiyalarga qaramay, professional ta'lim olishda nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, noqulay hududlardagi korxonalar yuqori darajadagi professional ta'lim imkoniyatlariga kirishda ijtimoiy-iqtisodiy to'siqlarni ko'rsatib, ilg'or amaliyot kurslarini taklif qilish ehtimoli kamroq. Bundan tashqari, kichik korxonalarning atigi 4 foizi yirik kompaniyalarning 72 foiziga nisbatan amaliyot kurslarini taklif qiladi, bu esa malaka oshirish imkoniyatlaridagi tengsizlikni kuchaytiradi. Ushbu muammolarni hal qilish professional ta'lim tizimining o'quvchilar va mehnat bozorining turli ehtiyojlarini qondirishini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Kelajakda professional ta'limga yangi texnologiyalarning integratsiyalashuvi muhim tendensiya bo'lishi kutilmoqda. O'quv dasturlariga virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) qo'shilishi o'rganish tajribasini oshirishi va o'quvchilarni o'zlari tanlagan sohalarning raqamli landshaftiga yaxshiroq tayyorlashi kutilmoqda.

Bundan tashqari, barqarorlik va yashil iqtisodiyot ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor ortib borishi kutilmoqda, bu esa o'z navbatida, ekologik mas'uliyatga global siljishni aks ettiradi. Professional ta'lim tizimlari yashil iqtisodiyot texnologiyalari va barqaror amaliyotlarni jamlagan o'quv dasturlarini o'z ichiga olishi, o'quvchilarni qayta tiklanadigan energiya va atrof-muhitni boshqarish kabi rivojlanayotgan sohalarda martaba uchun tayyorlashi kutilmoqda.

Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarida iqtisodiy kompetensiyani shakllantirish jarayonini takomillashtirish quyidagi bir qator shartlarga bog'liq:

- iqtisodiy ta'lim-tarbiya uzviyligi professional ta'lim muassasalari o'quvchi-



larga beriladigan bilimlarni yagona tizimda bir-biriga bog'laydi, shunda har bir o'quvchida ijobiy sifat o'zgarishlari vujudga kelishi;

- professional ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun tanlab olinadigan ilk iqtisodiy atamalar, tushunchalar asosida shakl-

lantiriladigan bilim olish mazmuni o'quvchiga eng yaqin bo'lgan faoliyat bilan bog'liq bo'lishi;

- professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida ilk iqtisodiy bilimlar asosida ta'lim olishini shakllantirishga zamin yaratuvchi, ularda ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga turtki bo'luvchi atama va tushunchalar, ularning iqtisodiy mohiyatini tushunishga yordam beruvchi savodxonlik mazmuni nazarda tutgan holda belgilanishi zarur;

- iqtisodiy ta'lim-tarbiya jarayonining uzviy tashkil etilishi va uzluksiz tizimning o'qituvchi pedagoglarning hamkorligi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
2. Tolipov B.X. "Shaxs iqtisodiy madaniyatida moddiy va ma'naviy omillar uyg'unligi" Falsafa.fan. nom. diss.—T.: 2009. —B.152.
3. Кондратенко, Т. В. (2017). «Экономическая компетентность в сформированности профессиональной компетентности будущего учителя технологий. Актуальные научные исследования в современном мире», (5-1), 40-43.
4. Дорохина, К. С. (2016). «Экономическая компетентность будущих бакалавров сервиса». In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 6, pp. 45-47). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2023). Spotlight on Vocational Education and Training. Retrieved from https://www.oecd.org/en/publications/spotlight-on-vocational-education-and-training_acff263d-en.html
6. Xamidova D.M. "Professional ta'lim tizimida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni"/ Ilim-fan, innovatsiya, Ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yil. 55-58 b.
7. European Commission. (2022). Vocational Education Statistics. Retrieved from https://ec.europa.eu/eurostat/statisticsexplained/index.php?title=Vocational_education_statistics
8. World Economic Forum. (2023). Technical and Vocational Training Systems for Sustainable Development Goals. Retrieved from <https://www.weforum.org/stories/2023/09/technical-vocational-training-systems-sustainable-development-goals>
9. Empirical Research in Vocational Education and Training (2015). Development of a Psychometric Model for Economic Domains. Springer. Retrieved from <https://link.springer.com/article/10.1007/s12186-015-9139-y>
10. Xamidova, D. (2023). "Texnikum o'quvchilarini o'qitishda iqtisodiy kompetensiyasini takomillashtirish mazmuni". Евразийский журнал академических исследований, 3(6), 167-169.
11. Ren Network. (2023). Unpacking the Key Trends in Vocational Education. Retrieved from <https://ren-network.com/unpacking-the-key-trends-in-vocational-education>
12. Times. (2023). Co-op Issues Wake-Up Call Over Access to Apprenticeships. Retrieved from <https://www.thetimes.co.uk/article/co-op-issues-wake-up-call-over-access-to-apprenticeshipsto-end-of-url-please-add-enterprise-network-nb5mlgjk2>

KASBIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNING KASBIY MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI

Xolxodjayeva Dilfuza Shoakrom qizi

Professional ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya:

Hozirgi globallashuv jarayonida kasbiy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish dolzarb masalaga aylanmoqda. Mazkur maqolada kasbiy ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar, jumladan, kommunikativ, integrativ va interaktiv yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, kasbiy ingliz tilini o'qitishda real hayotiy vaziyatlardan foydalanish, texnik terminologiyani o'zlashtirish va xalqaro mehnat bozoriga tayyorgarlik jarayonida muhim omillar yoritib beriladi. Maqolada avtomobilsozlik yo'nalishida ingliz tilini o'qitish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar:

kasbiy ingliz tili, kommunikativ yondashuv, integrativ yondashuv, interfaol metodlar, texnik terminologiya, kasbiy ta'lim, avtomobilsozlik, CLIL, xalqaro mehnat bozori, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация:

В условиях глобализации преподавание английского языка в профессиональных образовательных учреждениях становится актуальной задачей. В данной статье рассматривается значение современных педагогических технологий и методов, таких как коммуникативный, интегративный и интерактивный подходы, в обучении профессиональному английскому. Также анализируется использование реальных ситуаций, освоение технической терминологии и подготовка к международному рынку труда. В статье представлены практические рекомендации по обучению английскому языку в сфере автомобилестроения.

Ключевые слова:

профессиональный английский, коммуникативный подход, интегративный подход, интерактивные методы, техническая терминология, профессиональное образование, автомобилестроение, CLIL, международный рынок труда, компетентностный подход.

Annotation:

In the era of globalization, teaching English in vocational education institutions has become a crucial task. This article examines the importance of modern pedagogical technologies and methods, including communicative, integrative, and interactive approaches, in teaching professional English. It also analyzes the use of real-life situations, the acquisition of technical terminology, and preparation for the international labor market. The article provides practical recommendations for teaching English in the field of automotive engineering.

Key words:

professional English, communicative approach, integrative approach, interactive methods, technical terminology, vocational education, automotive engineering, CLIL, international labor market, competency-based approach.

Kirish. Hozirgi kunda globallashuv jarayonlari va xalqaro mehnat bozori talablari-ning o'sishi tufayli kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy tillar, ayniqsa, ingliz tilining roli tobora ortib bormoq-

da. Ingliz tili nafaqat chet el kompaniyalari va xalqaro biznes subyektlari bilan ishlashda, balki ilmiy-texnik yangiliklarni o'rganish, kasbiy mahoratni oshirish va malaka oshirish jarayonlarida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda[1]. Shu sababli, kasbiy ta'lim muas-

sasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida shakllantirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

1. Kasbiy ta'limda ingliz tilining ahamiyati. Kasbiy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u mutaxassislarning xalqaro standartlarga mos ravishda tayyorlanishini ta'minlaydi [2]. Kasbiy ingliz tili quyidagilar uchun ahamiyatli:

- Mutaxassislikka oid terminologiyani o'zlashtirish. Texnik va kasbiy sohalarda ishlatiladigan terminlar ko'pincha ingliz tilida bo'lib, ularni bilish mutaxassis uchun muhim hisoblanadi [3].

- Xalqaro manbalardan foydalanish. Ilmiy maqolalar, yo'riqnoma va darsliklarning aksariyati ingliz tilida bo'lib, ulardan samarali foydalanish uchun kasbiy ingliz tilini bilish talab etiladi [4].

- Professional muloqot va karyera imkoniyatlari. Xorijiy hamkasblar bilan ishlash, xalqaro kompaniyalarga ishga joylashish va xalqaro sertifikatlariga ega bo'lish imkoniyati ortadi [5].

2. Kasbiy ingliz tilini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari. Kasbiy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

Kommunikativ yondashuv – til o'rganish jarayonida asosiy e'tiborni nazariy qoidalarni yodlashga emas, balki real hayotdagi muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratadigan ta'lim metodidir. Ushbu yondashuv asosida til o'rganish muloqot qilish vositasi sifatida qaraladi, ya'ni o'quvchilar grammatika va lug'atni faqat nazariy o'rganish emas, balki amaliy tarzda qo'llash orqali o'zlashtiradilar [6].

Kasbiy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Til – muloqot vositasi. O'quvchilar tilni nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy foydalanish vositasi sifatida o'rganadilar. O'qitish jarayonida darslar asosiy e'tibor muloqot qilishga qaratilgan faoliyatlar asosida olib boriladi.

2. Reja asosida o'rganish (Task-Based Learning). O'quvchilarga turli kasbiy vaziyatlarga oid topshiriqlar berilib, ularga javob berish, muammoni hal qilish yoki muhokama qilish orqali ingliz tilidan foydalanishga imkoniyat yaratiladi.

3. Interaktiv muloqot. O'quvchilar o'zaro va o'qituvchi bilan faol muloqot qilish orqali til ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Kasbiy muhitga yaqinlashtirilgan ta'lim uslublari – rolli o'yinlar, muhokamalar, amaliy mashg'ulotlar qo'llaniladi.

4. Kontekstual yondashuv. Til o'rgatishda kasbiy kontekstdan foydalanish muhim. Masalan, avtomobilsozlik bo'yicha ta'lim olayotgan O'quvchilarga servis markazidagi mijoz bilan suhbat yoki texnik hujjatlarni tushunish kabi mashg'ulotlar berilishi mumkin.

5. Tilni tabiiy ravishda o'zlashtirish. O'quvchilarga real hayotiy suhbatlarni tinglash, ular asosida faoliyat yuritish va erkin muloqot qilish imkoniyati yaratiladi. Bu orqali o'quvchilar tabiiy tilda muloqot qilish ko'nikmasini hosil qiladilar.

Kasbiy ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvdan foydalanish usullari.

- **Rolli o'yinlar (Role-Playing Games).**

Kasbiy sohalarga oid turli rollarda harakat qilish orqali o'quvchilar kasbiy vaziyatlarni simulyatsiya qilishadi. Masalan: Mexanik xizmat ko'rsatuvchi muhandis va mijoz o'rtasidagi suhbat va xalqaro konferensiyada avtomobil innovatsiyalari haqida taqdimot qilish.

- **Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish (Problem-Solving Activities).**

O'quvchilar real kasbiy muammolarni muhokama qilib, ularni hal qilish yo'llarini ingliz tilida izohlashadi. Masalan, avtomobillarning texnik nosozliklari haqida ingliz tilida muhokama qilish.

- **Jamoaviy muhokama va bahslar (Debates & Discussions)**

Kasbiy mavzularga oid bahs-munozaralar

olib borish orqali o'quvchilarning muloqot qobiliyatlari rivojlantiriladi. Masalan, elektr va yoqilg'i dvigatelli avtomobillar bo'yicha muhokama.

Simulyatsion mashg'ulotlar (Simulation Exercises).

Ish muhitiga yaqinlashtirilgan mashg'ulotlar orqali o'quvchilar o'z kasbiy faoliyatlarida duch keladigan vaziyatlarni ingliz tilida o'rganadilar. Masalan, avtomobil ta'mirlash markazida chet ellik mijozga xizmat ko'rsatish.

Kommunikativ yondashuvning afzalliklari

Amaliy qo'llash – o'quvchilar tilni hayotiy sharoitlarda qanday ishlatishni o'rganadilar.

Faol ishtirok – o'quvchilar passiv emas, balki faol o'rganish jarayonida bo'ladilar.

Motivatsiya oshishi – haqiqiy muloqotga asoslangan darslar o'quvchilar uchun qiziqarli va foydalidir.

Kasbiy tayyorgarlik – o'quvchilar kasbiy sohada kerak bo'ladigan til ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

Integrativ o'qitish – integrativ o'qitish (Integrated Learning) – til o'qitish jarayonini kasbiy fanlar bilan bog'lagan holda olib borish metodikasi bo'lib, bunda o'quvchilar tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki kasbiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida o'rganadilar. Bu usul, ayniqsa, kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, til bilimlarini amaliyotda qo'llash va kasbiy terminologiyani samarali o'zlashtirish uchun muhimdir [7].

Integrativ o'qitishning asosiy tamoyillari

1. Kasbiy kontekstga asoslangan ta'lim – ingliz tili mashg'ulotlari kasbiy fanlar bilan bog'langan holda o'tiladi. Masalan, avtomobilsozlik yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchilar avtomobil muhandisligiga oid matnlarni o'qib, o'z kasbiga tegishli terminologiyani ingliz tilida o'rganadilar.

2. Til va kasbiy ko'nikmalarni parallel rivojlantirish – o'quvchilar bir vaqtning o'zida nafaqat ingliz tilini o'rganadilar, balki o'z sohalari bo'yicha ingliz tilida axborot olish va kasbiy faoliyatni bajarish ko'nikmalarini

shakllantiradilar.

3. Amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv – o'quvchilarga kasbiy faoliyatda uchraydigan real vaziyatlar beriladi va ular ushbu vaziyatlarni ingliz tilida tahlil qilish, muhokama qilish yoki hal qilish orqali o'z bilimlarini mustahkamlaydilar.

4. Multidisiplinarlik – ingliz tili darslari turli kasbiy fanlar bilan birga integratsiya qilinadi. Masalan, avtomobil muhandisligi kursi bilan birgalikda ingliz tili mashg'ulotlari shunday tashkil qilinadiki, unda o'quvchilar mashinalarning ishlash tamoyillari, texnik xizmat ko'rsatish qoidalari va xavfsizlik choralari ingliz tilida o'rganadilar.

Kasbiy ingliz tilini o'qitishda integrativ yondashuvning afzalliklari.

Kasbiy lug'at boyligi – o'quvchilar o'z sohalariga oid muhim atamalarni ingliz tilida o'zlashtiradilar.

Real hayotiy tajriba – tilni o'rganish kasbiy faoliyat bilan bog'langanligi sababli o'quvchilar uni haqiqiy sharoitda ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xalqaro mehnat bozoriga tayyorgarlik – o'quvchilar kasbiy ingliz tilini yaxshi bilganliklari sababli xalqaro ish bozorida raqobatbardosh bo'ladilar.

Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish – o'quvchilar chet ellik hamkasblar bilan ishlash, xalqaro konferensiyalar va texnik hujjatlarni o'qish uchun tayyorlanadilar.

Kasbiy ingliz tilini o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanish usullari

1. Kasbiy hujjatlar va texnik matnlarni tahlil qilish. O'quvchilarga ularning mutaxassislik sohalariga oid real hujjatlar, yo'riqnoma, texnik tavsiflar va standartlar beriladi. Masalan, avtomobil muhandisligi bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar avtomobil dvigatellari tuzilishi yoki servis xizmatlari haqida ingliz tilidagi matnlarni tahlil qiladilar.

2. Kasbiy fanlar bilan birlashtirilgan amaliy mashg'ulotlar. Masalan, avtomobilsozlik yo'nalishida o'qiyotgan o'quvchilarga ingliz tilidagi texnik chizmalar yoki muhandislik diagrammalari bilan ishlash topshirig'i beriladi. O'quvchilar texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ingliz tilidagi yo'riqnomalarni o'rga-

nadilar.

3. Rolli o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlar. O'quvchilarga servis markazida mijoz bilan muloqot, xalqaro avtomobil ko'rgazmasida taqdimot qilish, chet ellik mutaxassis bilan muhokama o'tkazish kabi real kasbiy vaziyatlar beriladi.

4. Texnik terminologiyani interaktiv o'rganish. O'quvchilarga kasbiy sohalariga oid atamalarni ingliz tilida o'rganish uchun onlayn lug'atlar, mobil ilovalar, vizual materiallar (chizma, diagrammalar, video darslar) taqdim etiladi.

5. CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodidan foydalanish. CLIL – bu kasbiy ta'lim jarayonida fan va tilni birgalikda o'qitish usuli bo'lib, bunda o'quvchilar texnik, muhandislik yoki boshqa kasbiy fanlarni ingliz tilida o'rganadilar. Masalan, "Automotive Engineering" fani doirasida dvigatel ishlash tamoyillari ingliz tilida tushuntiriladi.

Integrativ yondashuvning qo'llanilishi natijalari. O'quvchilar kasbiy sohada kerakli atamalarni o'zlashtiradilar va ularni ishlata oladilar. O'quvchilar real kasbiy vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanish qobiliyatini rivojlantiradilar. Xalqaro bozor va ish muhitiga tayyorlanadilar. Til o'rganishga nisbatan motivatsiya oshadi, chunki o'quvchilar tilni real sharoitda qo'llay olishlarini ko'radilar.

Interaktiv metodlar – bu o'quvchilarning o'zaro faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari bo'lib, ular mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va kasbiy faoliyatda tilni samarali qo'llash imkonini beradi. Kasbiy ingliz tilini o'qitishda interfaol yondashuv o'quvchilarni real kasbiy vaziyatlarga jalb qilish, ularni mustaqil fikrlashga undash va chet tilda muloqot qilish malakasini rivojlantirishga yordam beradi[8].

Interaktiv metodlarning asosiy turlari

1. Muammoli ta'lim (Problem-Based Learning – PBL). O'quvchilarga kasbiy sohalariga oid muammolar beriladi va ular ushbu muammolarni ingliz tilida tahlil qilib, muhokama qilib, hal qilish yo'llarini izlaydilar. Masalan, avtomobilsozlik yo'nalishidagi o'quvchilar "Mashina dvigatelida muammo yuzaga keldi, mijoz bilan qanday muloqot qil-

lasiz?" kabi vaziyatni ingliz tilida muhokama qiladilar. Bu usul nafaqat til bilimlarini rivojlantirish, balki tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun ham samarali hisoblanadi [2].

2. Rolli o'yinlar (Role-Playing Games – RPGs). O'quvchilarga turli kasbiy vaziyatlar beriladi va ular ushbu vaziyatlarda harakat qilishadi. Masalan, avtomobil xizmat ko'rsatish markazida mijoz va mexanik o'rtasidagi suhbatni ingliz tilida olib borish topshirig'i beriladi. Ushbu metod orqali o'quvchilar chet tilda muloqot qilish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish, muayyan kasbiy vaziyatlarga tayyorlanish imkoniga ega bo'ladilar [3].

3. Loyiha metodlari (Project-Based Learning – PjBL). O'quvchilarga kasbiy faoliyat bilan bog'liq loyiha yaratish topshirig'i beriladi va ular ushbu loyihani ingliz tilida taqdim qiladilar. Masalan, "Avtomobil qismlarining ishlash tamoyillari" mavzusida taqdimot tayyorlash va uni guruh oldida himoya qilish. Bu metod orqali O'quvchilar jamoaviy ishlash, o'z fikrlarini aniq ifodalash, chet tilida taqdimot qilish kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantiradilar [4].

4. "Aqliy hujum" (Brainstorming). O'qituvchi muayyan kasbiy muammolar yoki savollarni o'rtaga tashlaydi va o'quvchilar ularni guruh bo'lib ingliz tilida muhokama qilib, yechim topishga harakat qiladilar. Masalan, "Kelajak avtomobillari qanday bo'lishi kerak?" mavzusida guruh muhokamasi. Bu metod orqali ijodiy fikrlash, muloqot qilish va tezkor qaror qabul qilish malakalari rivojlanadi[5].

5. Debat va munozaralar (Debate & Discussion). O'quvchilar turli mavzularda ingliz tilida bahslashadilar va o'z nuqtayi nazarlarini himoya qiladilar. Masalan, "Ichki yonish dvigatellari ekologiyaga qanday ta'sir ko'rsatadi?" mavzusida bahs olib borish. Bu usul orqali o'quvchilar dalillar bilan ishlash, chet tilida fikr bildirish, savollarga tezkor javob qaytarish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Interaktiv metodlarning afzalliklari

– O'quvchilarni til muhitiga jalb qiladi, ya'ni ingliz tilida real kasbiy vaziyatlarni muhokama qilishga o'rgatadi.

– Muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi, shuning uchun o'quvchilar ish joyida ingliz tilida erkin gaplasha oladilar.

– Jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, chunki ko'pgina interfaol metodlar guruhda ishlashni talab qiladi.

– Ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi, bu esa kasbiy rivojlanish uchun muhim.

– O'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, bu esa tilni tez va samarali o'rganish imkonini beradi.

Kasbiy ingliz tilini o'qitishda duch kelinayotgan muammolar va ularning yechimlari.

Kasbiy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonida bir qator muammolar mavjud:

O'quv dasturlarining kam moslashuvchanligi – ko'plab kasbiy ta'lim muassasalarida ingliz tili umumiy o'quv rejalari doirasida o'qitilib, kasbiy komponent yetarli darajada aks ettirilmaydi[9].

Pedagoglarning kasbiy ingliz tilida yetarlicha tayyorgarligi yetishmasligi – ayrim

o'qituvchilar kasbiy sohalar bo'yicha yetarli tajribaga ega emaslar [10].

O'quvchilar motivatsiyasining pastligi – ba'zi o'quvchilar ingliz tilining kasbiy o'sishda qanday foyda keltirishini to'liq anglamaydilar[11].

Ushbu muammolarni hal qilish uchun:

- kasbiy ingliz tilini o'qitish dasturlarini takomillashtirish va moslashtirish;

- o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini ishlab chiqish;

- o'quvchilarni kasbiy faoliyatda ingliz tilidan foydalanish ahamiyati haqida xabardor qilish va ularga motivatsion yondashuvlarni qo'llash lozim.

Xulosa. Kasbiy ta'lim muassasalarida ingliz tilini samarali o'qitish o'quvchilarning kelajakdagi mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy metodlarni qo'llash, interaktiv yondashuvlar va kasbiy yo'naltirilgan o'qitish orqali o'quvchilarning ingliz tilida erkin so'zlashish va kasbiy faoliyatida undan foydalanish qobiliyatlari rivojlantirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
3. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. Cambridge University Press.
4. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A Learning-Centered Approach. Cambridge University Press.
5. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman.
6. Brown, H. D. (2000). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
7. Nation, I. S. P. (2001). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.
8. Ellis, R. (2003). Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford University Press.
9. Basturkmen, H. (2010). Developing Courses in English for Specific Purposes. Palgrave Macmillan.
10. Tomlinson, B. (2011). Materials Development in Language Teaching. Cambridge University Press.
11. Dornyei, Z. (2001). Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge University Press.

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA RAQAMLI BAHOLASH TIZIMLARINING PEDAGOGIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Maxkamova Zulfiya Tursunpulatovna,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim transformatsiyasi jarayonida raqamli baholash tizimlarining pedagogik va didaktik xususiyatlari tahlil qilingan. Raqamli baholash tizimlarining mohiyati, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri va pedagogik-didaktik imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli baholash tizimining an'anaviy baholash tizimiga nisbatan afzalliklari va mavjud kamchiliklari xolisona tahlil qilingan bo'lib, ikki tizimning solishtirma jadvali ham taqdim etilgan. Xulosa qismida raqamli baholash tizimlarini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiya va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli baholash, ta'lim transformatsiyasi, pedagogik xususiyatlar, didaktik xususiyatlar, elektron baholash, ta'lim jarayoni, formativ baholash, summativ baholash, pedagogik nazorat, raqamli texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические и дидактические особенности цифровых систем оценивания в процессе трансформации образования. Рассмотрена сущность цифровых систем оценивания, их влияние на образовательный процесс и педагогико-дидактические возможности. Также были объективно проанализированы преимущества и существующие недостатки цифровой системы оценивания по сравнению с традиционной системой оценивания, а также представлена сравнительная таблица двух систем. В разделе «Заключение» представлены практические рекомендации и предложения по внедрению цифровых систем оценивания.

Ключевые слова: цифровое оценивание, трансформация образования, педагогические особенности, дидактические особенности, электронное оценивание, образовательный процесс, формирующее оценивание, итоговое оценивание, педагогический контроль, цифровые технологии.

Abstract: This article examines the pedagogical and didactic characteristics of digital assessment systems within the process of educational transformation. It analyzes the essence, impact, and pedagogical-didactic potential of digital assessment methods. Additionally, the article objectively reviews the advantages and limitations of digital assessment systems compared to traditional assessment methods, supported by a comparative analysis table. Practical recommendations for the effective implementation of digital assessment systems in education are presented in the conclusion.

Keywords: digital assessment, educational transformation, pedagogical features, didactic characteristics, electronic assessment, educational process, formative assessment, summative assessment, pedagogical supervision, digital technologies.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlari jadal davom etmoqda. Bu o'zgarishlarning muhim tarkibiy qismi sifatida baholash tizimlari ham tubdan yangilanmoqda. Ta'lim jarayonini raqamli transformatsiya qilish jarayonining

muhim tarkibiy qismlaridan biri bilimlarni baholash tizimidir. An'anaviy baholash usullariga nisbatan raqamli baholash usullari ta'lim jarayonining turli bosqichlarida bilim va ko'nikmalarni real vaqt rejimida, tezkor va xolis baholash imkonini beradi. Ta'lim sifati

va samaradorligini oshirish uchun baholash jarayonini raqamlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu bois raqamli baholash tizimlarini joriy etish va takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ta'lim transformatsiyasi sharoitida raqamli baholash tizimlarining mohiyati, ularning pedagogik va didaktik xususiyatlari hamda afzallik va kamchiliklari tahlil qilinadi. Huquqiy va metodik hujjatlar ham ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishni kuchaytirmoqda, bu esa baholashni avtomatlashtirish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Mavzuning dolzarbligi xalqaro va milliy tadqiqotlarda ta'kidlanmoqda. Jumladan, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, Sh.S.Sharipov kabi olimlar ta'lim jarayonida baholashni modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalariga katta e'tibor qaratganlar. Ular baholash tizimining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rnini o'rganib, ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir qiluvchi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Ta'lim transformatsiyasi sharoitida baholash tizimlarining raqamli shaklga o'tishi nafaqat baholash sifatini oshirish, balki har bir o'quvchining individual o'quv trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlanmoqda. Shu bois, mazkur maqolaning maqsadi – ta'lim transformatsiyasi jarayonida raqamli baholash tizimlarining pedagogik va didaktik xususiyatlarini tahlil qilish hamda mazkur sohadagi imkoniyat va muammolarni ochib berishdan iborat. Ushbu maqolada mazkur masala bo'yicha ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib, raqamli baholash tizimining mohiyati, uning pedagogik va didaktik afzalliklari hamda cheklovlari, an'anaviy baholash bilan taqqoslovi yoritib beriladi.

Raqamli baholash tizimi (e-assessment yoki elektron baholash) – baholash va imtihon jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishdir. Boshqacha qilib aytganda, test, nazorat ishi, so'rovnama va boshqa baholash vositalarini kompyuter, planshet yoki mobil qurilmalar orqali o'tkazish tushuniladi. Raqamli baholashda barcha topshiriqlarni tayyorlash, tarqatish, yig'ish va natijalarni qayta ishlash jarayonlari axborot

texnologiyalari yordamida amalga oshadi. Masalan, onlayn testlar, virtual tahlillar, elektron jurnallarda baholarni avtomat qayd etish kabi jarayonlar shu turdagi baholashga kiradi. Raqamli baholash tizimlarining ahamiyatli jihat – baholash siklini raqamli inqilob talablari darajasida yangilash va innovatsiyalarni tatbiq etish imkoniyatidir.

Klassifikatsiya: Ilmiy adabiyotlarda raqamli baholash turlari bir necha mezonlar asosida tasniflanadi. Masalan, maqsadiga ko'ra: formativ baholash (o'quvchini rivojlantirishga qaratilgan jarayondagi baholash) va summativ baholash (mazmun o'zlashtirish darajasini yakuniy baholash) farqlanadi. Shuningdek, texnik jihatdan: onlayn testlar, elektron portfolio, kompyuterlashgan adaptiv testlar, veb-kvizlar, forumlarda baholash, video taqdimotlar kabi ko'rinishlar mavjud. Masalan, Gomez va hammualliflar raqamli baholash usullarini juda keng qamrovda tasniflab, quyidagilarni sanab o'tgan: onlayn so'rovnoma, viktorinalar va testlar; esse va keys-stadi tahlillari; elektron portfolio; raqamli taqdimotlar; individual va guruhli loyihalar; reflektiv yozuv daftarlari; o'zaro baholash (peer assessment) va o'zini o'zi baholash; o'yinlashtirilgan (gamification) topshiriqlar; onlayn forumlarda muhokama va blog postlari; multimedia yaratish (video, podkast va h.k.) kabi shakllar. Keltirilgan tasnif raqamli baholashning qamrovi keng ekanini, ya'ni faqat test yoki topshiriq bilan cheklanmasdan, turli bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni baholashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Pedagogik xususiyatlar. Raqamli baholash tizimlari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator pedagogik afzalliklarga ega. Eng avvalo, bunday tizimlarda baholash natijalari tezda shakllanib, o'qituvchi va o'quvchilarga darhol ma'lum bo'ladi. Natijada o'qituvchi butun guruh yoki alohida o'quvchining o'zlashtirish darajasini tezkor tahlil qilib, zarur pedagogik tuzatishlar kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, elektron jurnal yoki test platformasi orqali o'quvchilarning kim qaysi mavzuda qiynalayotgani aniq ko'rinadi va o'qituvchi shu asosda dars rejasini o'zgartirishi,

5.	Amaliyot samaradorligini oshirish	- Tezkor tahlil va testlar - Simulyatsiya tizimlari	Amaliyot jarayonini tahlil qilish va o'quvchilarga real muhitda ishlash imkoniyatlarini taqdim etish, simulyatsiya tizimlari yordamida ko'nikmalarni oshirish	Tahlil va testlar o'quvchilarning ko'nikmalarini mustahkamlash uchun qo'llanilishi mumkin
6.	Pedagogik yondashuvlarni moslashtirish	- Individual ehtiyojlarni inobatga olish	O'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olib, kasbiy tayyorgarlikda farqlarni hisobga olish	Har bir o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlari qarang o'quv jarayonini moslashtirish zarur

Tahlil. Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish: ta'limda raqamli vositalarni qo'llash, o'quvchilarda kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'rganadilar. Bu o'quvchilarning kasbiy

faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur.

Amaliyot rahbarlarining malakasi: o'qituvchilar raqamli texnologiyalarni o'rganishi bo'yicha malakali treninglar o'tkazish va yangi metodlarni o'rganish muhimdir. Bu o'qituvchilarga o'quvchilarni samarali tarzda tayyorlash imkonini

beradi. Ularning malakasini oshirish orqali o'quvchilarning amaliyotdagi muvaffaqiyatini ta'minlash mumkin.

Innovatsion pedagogik yondashuvlar: flipped-classroom va masofaviy ta'lim kabi innovatsion metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini oshiradi. O'quvchilar o'z vaqtida mustaqil o'rganish va nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Amaliyot samaradorligini oshirish: amaliyot jarayonida o'quvchilarning ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish, tezkor tahlillar va testlar orqali ular uchun samarali o'quv tajribasini yaratish mumkin. Simulyatsiya tizimlari yordamida o'quvchilar amaliyotda real sharoitlarda ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Pedagogik yondashuvlarni moslashtirish: o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab ta'lim jarayonini moslashtirish zarur. Bunda differensiyallashgan yondashuv yordamida o'quvchilarga to'g'ri pedagogik yordam ko'rsatiladi, bu esa ularning muvaffaqiyatini oshiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning amaliyotga yo'naltirilishida ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun bir qator muhim omillar mavjud. Birinchi navbatda, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Bu jarayon o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'rgatadi, ularni zamonaviy raqamli vositalar bilan ishlashga tayyorlaydi.

O'quvchilarning amaliyotga yo'naltirili-shida innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash, masalan, flipped-classroom, loyihaga asoslangan ta'lim va simulyatsiyalar yordamida amaliyotga yo'naltirish samarali natijalar beradi. Bu metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini oshirib, ularning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amaliyot samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olib, pedagogik yondashuvlarni moslashtirish zarur. Differensiyallashgan yondashuv o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva A. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
2. Jabbarov F. (2019). Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash: nazariy va amaliy yondashuvlar. Toshkent: Sharq.
3. Kamilov B. (2021). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning samaradorligi. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.
4. Ismailov D. (2022). Pedagogika va raqamli texnologiyalar: Integratsiya jarayonlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
5. Nazarov R. (2021). Amaliyotga yo'naltirishning pedagogik xususiyatlari va metodlari. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
6. Pardayev X. (2020). Pedagogik faoliyatda raqamli axborotlarni qayta ishlash. Tashkent: O'zbekiston pedagogika akademiyasi.
7. Qodirov U. (2018). Ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari. Tashkent: O'zbekiston nashriyoti.
8. Sadullayeva N. (2023). Ta'limdagi innovatsion yondashuvlar: Raqamli texnologiyalar va amaliyot. Toshkent: Ziyo-Nurlibek nashriyoti.
9. Teshabayev A. (2022). O'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda innovatsion metodlarning ro'li. Andijon: Andijon davlat universiteti nashriyoti.

MEHNAT BOZORI TALABLARI ASOSIDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ORQALI MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Gafurova Zeboxon Orifjonovna,

Professional ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya:

Maqolada mehnat bozori talablari asosida differensial yondashuv orqali mutaxassislarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari tadqiq etilgan. Differensial yondashuvning nazariy-metodologik jihatlari tahlil qilinib, ushbu yondashuv orqali mehnat bozori ehtiyojlariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari ochib berilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kasbiy ta'limdagi o'rni va ahamiyati ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan hamda mavzu bo'yicha nazariy qarashlar va amaliyot uyg'unligi tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari asosida kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar:

mehnat bozori, differensial yondashuv, kasbiy ta'lim, innovatsion mexanizmlar, kasbiy kompetensiyalar, raqobatbardoshlik, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация:

В статье исследуются инновационные механизмы формирования профессиональных компетенций специалистов посредством дифференцированного подхода, исходя из требований рынка труда. Анализируются теоретические и методологические аспекты дифференцированного подхода, а также раскрываются возможности подготовки с помощью этого подхода конкурентоспособных специалистов, соответствующих потребностям рынка труда. В статье на основе научных источников обосновывается роль и значение современных педагогических технологий в профессиональном образовании, анализируется гармония теоретических взглядов и практики по данной теме. По результатам исследования разработаны конкретные рекомендации по совершенствованию системы профессионального образования.

Ключевые слова:

рынок труда, дифференцированный подход, профессиональное образование, инновационные механизмы, профессиональные компетенции, конкурентоспособность, педагогические технологии.

Abstract:

The article examines innovative mechanisms for forming professional competencies of specialists using a differentiated approach aligned with labor market requirements. The theoretical and methodological aspects of differentiated instruction are analyzed, highlighting opportunities for training competitive specialists responsive to labor market demands. The role and significance of contemporary pedagogical technologies in vocational education are substantiated through scientific sources, emphasizing the integration of theoretical insights and practical applications. Based on research findings, specific recommendations for improving vocational education systems are developed.

Key words:

labor market, differentiated approach, vocational education, innovative mechanisms, professional competencies, competitiveness, pedagogical technologies.

Kirish. Zamonaviy mehnat bozori sharoitida ish beruvchilar muvaffaqiyatli va talabgir mutaxassis bo'lishini ta'minlaydigan

kompetensiyalarga nisbatan yangi talablarni qo'ymoqda. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, bugungi mehnat bozori zamonaviy

mutaxassisning zarur kompetensiyalarni aniqlashda yangi yondashuvni talab etmoqda. Boshqacha qilib aytganda, kadrlar tayyorlash tizimi o'zgaruvchan bozor sharoitiga moslashishi, mutaxassislarda faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikma va umumkasbiy kompetensiyalarni ham shakllantirishi lozim. Shunday sharoitda, kasbiy ta'limda differensial yondashuvni qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuv har bir o'quvchining individual xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadi hamda mehnat bozorining yangi talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirishga xizmat qiladi. Differensial yondashuv orqali kasbiy

kompetensiyalarni shakllantirish masalasi nafaqat mahalliy, balki xalqaro darajadagi tadqiqotlarda ham o'z aksini topmoqda. Zero, global iqtisodiyot va texnologiyalar rivoji sharoitida ta'lim tizimini innovatsion mexanizmlar asosida yangilash, uni mehnat bozori talablari bilan hamohang qilish dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturlari va islohotlari doirasida kasbiy ta'limni bozor ehtiyojlariga moslashtirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shu bois mazkur mavzudagi ilmiy tahlil mutaxassislarning raqobatbardoshlikka erishishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini shakllantirishda differensial yondashuvning ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Nazariy tahlil. Pedagogikada differensial yondashuv deganda o'quv jarayonini talaba yoki tinglovchilarning individual xususiyatlari (qobiliyati, tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari va h.k.) ga moslab tashkil etish tushuniladi. Bunday yondashuv har bir o'quvchining salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun qulay shart-sharoit yaratishga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, differensial yondashuv o'qituvchiga har bir o'quvchining bilim va ko'nikmalarini baholab, ortda qolayotganlarga yordam berish hamda yuqori iqtidorli talabalarning ijodiy rivojlanishiga ko'maklashish imkonini beradi. Jumladan, darajali differensiya texnologiyasida "kuchsiz" talabaga muvaffaqiyatga erishish istiqbolini ko'rsatish, "kuchli" talabaga esa ijodiy o'sish uchun qo'shimcha sharoit yaratish imkoni mavjud bo'ladi. Shu tariqa, differensial yondashuv har bir o'quvchining imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalangan holda uning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun optimal sharoit yaratadi, o'quvchilarning kasbga tayyorgarlik darajasidagi tafovutlarni yumshatadi hamda tanlangan mutaxassislikka qiziqish darajasini hisobga oladi. Nazariy nuqtayi nazardan, bunday yondashuv ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida ko'rilmogda. Raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun ta'lim tizimi doimiy ravishda yangilanib borishi, xususan, innovatsion pedagogik texnologiya va mexanizmlarni joriy etishi talab etiladi. Kompetensiyalarga asoslangan yondashuv-kasbiy ta'limda yangi standart va talablar asosida o'quv dasturlarini shakllantirish konsepsiyasi – shu kabi innovatsion mexanizmlardan biri sifatida e'tirof etilmogda. Mehnat bozoriga moslashuvchan mutaxassislarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga kasbiy standartlarni integratsiya qilish, ish beruvchilar bilan hamkorlikda o'quv dasturlarini yangilab borish samarali yo'l hisoblanadi. Masalan, Rossiya tajribasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida mehnat bozorida eng talabgir 50 ta kasb va mutaxassislik bo'yicha yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish hamda WorldSkills xalqaro standartlari asosida bitiruvchilarni baholash amaliyoti yo'lga qo'yilgani mazkur yo'nalishdagi innovatsion sa'y-harakatlardandir. Shunday qilib, kasbiy ta'limda fan, innovatsiya va ishlab chiqarishning uzviyligiga erishish uchun turli mexanizmlar – klasterli yondashuv, dual ta'lim, modulli o'qitish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va boshqalar nazariy jihatdan asoslanmogda va amaliyotga tatbiq etilmogda. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, zamonaviy mutaxassisga qo'yilayotgan talablar faqat texnik bilimlarni emas, balki muloqotga kirisha olish, muammolarni hal etish, jamoada ishlash kabi umumiy kompetensiyalarni ham qamrab olmogda. Xususan, L.A. Ivanova zamonaviy mehnat bozori sharoitida nadprofessional (umumkasbiy) kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor

qaratish lozimligini ta'kidlaydi va bunda ko'nikma va malakalarni "qiyinlik darajasi bo'yicha toifalash" (qatlamli differentsiatsiya) tamoyili asosida rivojlantirish muhim, deb hisoblaydi. Shu nuqtayi nazardan, har bir o'quvchiga individual yondashuv va ta'lim natijalarini personallashtirish nafaqat pedagogik, balki iqtisodiy jihatdan ham o'zini oqlashi mumkin, zero bunda bitiruvchilar mehnat bozoriga mos ravishda tayyorlanadi.

Metodologiya. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoniga differensial yondashuvni tatbiq etish uchun ta'lim metodlarini qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Avvalo, o'quv guruhlari tarkibidagi talabalarning ta'lim olish sur'ati va qobiliyatiga ko'ra farqlash (gomogen guruhlariga ajratish yoki yakka tartibda ishlash) usullarini qo'llash mumkin. Darajali topshiriqlar tizimi joriy etilganda, har bir tinglovchi o'z saviyasiga mos vazifalarni bajaradi: bunda qobiliyati sustroq o'quvchilar asosiy mustaqil ishlar orqali zarur minimal kompetensiyalarga erishsa, iqtidorli talabalar murakkabroq ijodiy yoki tadqiqot vazifalari orqali o'z mahoratlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday differensial yondashuv ham sust, ham kuchli talabalarning salohiyatini ochishga xizmat qilib, umumiy natijadorlikni oshiradi. Differensial yondashuvni amaliyotga joriy etish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish juda muhimdir. Jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi masofaviy ta'lim platformalari, multimedia trenajyorlar, keys-stadi va proyektlarga asoslangan o'qitish metodlari har bir o'quvchiga individual trayektoriya bo'yicha bilim olish imkonini yaratadi. Bunday vositalar orqali o'qituvchi o'quv materialini bir necha shaklda (matn, video, interaktiv simulyatsiyalar) taqdim etib, talabalarning o'ziga xos o'rganish uslubiga moslashishi mumkin. Zamonaviy kasbiy ta'limda virtual laboratoriyalar, onlayn kurslar va veb-seminarlar orqali ham bilim va ko'nikmalarni differentsiallashtirib berish tajribalari oshib bormoqda. Bu innovatsion mexanizmlar ta'lim jarayonini individuallashtirishga hamda o'quvchi mustaqilligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Differensial yondashuv samarasi ko'p jihatdan o'quv dasturlarining mehnat bozori talablariga nechog'li mos ekaniga

bog'liq. Shu bois, metodologiyada kasbiy standartlarga tayangan holda o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish tamoyili muhim o'rin tutadi. Masalan, Novosibirsk viloyati kasbiy ta'lim tizimi tajribasida yuqori sifatli kadrlar tayyorlash uchun har bir shaxsning qobiliyatini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'lim texnologiyalarini joriy etish zarurligi ta'kidlangan bo'lib, bu talablarga eng to'g'ri javob beradigan usul sifatida darajali differentsiya texnologiyasi ko'rsatilgan. Ya'ni, o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga oluvchi ta'lim tashkil etish orqali kasbga tayyorgarlik sifati oshishi mumkinligi amalda tasdiqlangan.

Shuningdek, kasbiy standartlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari qo'llanilmoqda. Xususan, "Worldskills" kabi xalqaro kompetensiya standartlari asosida o'quvchilarni baholash va malakasini tasdiqlash amaliyoti xalqaro miqyosda keng yoyilmoqda. Bunday yondashuv o'quv yurtlariga bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini xalqaro talablar asosida baholash, shu orqali o'quv dasturlarini doimiy takomillashtirib borish imkonini beradi. Ta'kidlash joizki, kasbiy standartlar va bozor talablarini o'quv jarayoniga moslashtirishda ish beruvchilar bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Ayni paytda ko'plab korxonalar va tashkilotlar ta'lim mazmunini shakllantirish va qayta ko'rib chiqishda bevosita ishtirok etmoqda – bu esa kasbiy ta'limning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Pedagog olimlar ham kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda yangi metod va vositalarni qo'llash zarurligini ilmiy asoslab bermoqdalar. Masalan, dizaynerlik yo'nalishida mutaxassislar tayyorlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak dizaynerlarda talab etiladigan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun maxsus texnika va usullarni qo'llash lozim bo'ladi. Xususan,

A.N.Menshikova ta'kidlashicha, ijodiy va kasbiy kompetensiyalarni taraqqiy ettirish uchun talaba mustaqil ravishda ijodiy vazifalarni anglay olishi, ma'lumotni qayta ishlash va undan samarali foydalanib, muammolarni hal etish yo'llarini topishiga qaratilgan maxsus mashg'ulotlar tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu kabi metodik yondashuvlar ta'lim dasturlariga kiritilsa, mutaxassislarda nafaqat nazariy bilim, balki doimiy kasbiy va shaxsiy rivojlanishga xizmat qiluvchi ko'nikmalar ham shakllanadi.

Natijalar va tahlil. Differensial yondashuv asosida joriy etilgan o'quv-tarbiya metodlarining samaradorligini tasdiqlovchi ilmiy va amaliy dalillar mavjud. Xususan, ta'lim jarayonini individuallashtirish orqali olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bitiruvchilarning umumiy tayyorgarlik sifati sezilarli darajada oshadi va ular yangi mehnat vazifalariga tezroq moslasha olishadi. Novosibirsk yengil sanoat kollejida o'quv amaliyati darslarida darajali differensiya texnologiyasini qo'llash tajribasi talabalarning kasbiy mahorat bo'yicha tanlov va chempionatlarda yuqori natijalarga erishib kelayotgani orqali o'z samarasini ko'rsatgan. Ma'lumotlarga ko'ra, mazkur kollej o'quvchilari maxsus "Tikuvchilik texnologiyasi" yo'nalishida Worldskills chempionatlarida barqaror ravishda yuqori natijalarga erishmoqda, bu esa o'quv jarayonida differensial yondashuvni qo'llashning samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bu usulni tatbiq etgan guruhlarda amaliy mashg'ulotlarni o'zlashtirish natijalari dinamikasi ham tahliliy ravishda ijobiy tomonga o'zgarib qayd etilgan (ya'ni, donish talabalar ham, qiynalayotgan talabalar ham o'z ko'rsatkichlarini yaxshilashgan). Boshqa tadqiqotlarda ham differensial yondashuv asosidagi ta'limning afzalliklari urg'ulanadi. Masalan, tajribaviy guruhlarda har bir talaba o'z qobiliyatiga mos topshiriqlar bilan band bo'lgan holda o'quv mavzularini chuqurroq o'zlashtira olgani, natijada ularning mustaqil ishlarga ijobiy munosabati va mas'uliyati oshgani kuzatilgan. Ayrim tadqiqotlar

differensial yondashuv joriy etilgan o'quv muassasalarida bitiruvchilarning ishga joylashish ko'rsatkichlari yuqoriroq ekanini, chunki ular mehnat bozorida talab etiladigan amaliy ko'nikmalarga ega ekanliklari ta'kidlanadi. Albatta, bunday natijalarga erishishda ta'lim jarayonini to'g'ri rejalashtirish, o'qituvchilarning yuqori malakali va har bir o'quvchining ehtiyojiga yo'naltirilgan ish usulini qo'llay olishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mehnat bozori nuqtayi nazaridan olib qaralganda ham differensial yondashuv asosida tayyorlangan kadrlar o'zlarining keng ko'lamli kompetensiyalari bilan ajralib turadi. Bunday bitiruvchilar muammoni hal qilishda ijodiy yondashish, jamoada ishlash, moslashuvchan qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatlari bois ish beruvchilar tomonidan qadrlanadi. Zero, ular ta'lim davomida turli darajadagi vazifalarni bajarib ko'rgani va real ish sharoitiga yaqinlashtirilgan muhitda mashq qilgani sababli, ish joyida yangi sharoitlarga tez moslasha oladi. Shu ma'noda, differensial yondashuv asosidagi innovatsion mexanizmlar mehnat bozori va ta'lim o'rtasidagi "mahorat tafovuti"ni kamaytirishga, ya'ni kadrlar malakasi bilan ish beruvchining talablari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Hozirgi global iqtisodiyot va tezkor texnologiyalar davrida kasbiy ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, mutaxassislarda zarur kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun differensial yondashuv muhim innovatsion mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yondashuvni keng joriy etish orqali ta'lim muassasalari bitiruvchilari o'rtasida raqobatbardoshlikni oshirish, ularni ish bozoriga tez va muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkoniyati ortadi. Kasbiy ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga muvofiq qayta tashkil etish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

O'quv dasturlarini takomillashtirish: Ta'lim mazmunini doimiy ravishda mehnat bozorida o'zgarishlar va yangi talablardan kelib chiqib yangilab borish lozim. Bu borada

ish beruvchilar va sektor mutaxassislari bilan hamkorlikda malaka talablarining prognoziga asoslanib, o'quv rejalariga tuzatishlar kiritib borish tavsiya etiladi. Shuningdek, har bir mutaxassislik bo'yicha kasbiy standartlar va kvalifikatsiya talablarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish zarur.

Differensial yondashuvni institutsional-lashtirish: ta'lim muassasalarida differensial yondashuvni qo'llashni rasmiy metodika sifatida joriy etish, uning prinsiplarini o'quv reja, dastur va dars jarayonlariga tatbiq etish kerak. Jumladan, talabalarning bilim va ko'nikma darajasini muntazam diagnostika qilib borish va shu asosda guruhlash, qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish mexanizmini yo'lga qo'yish lozim. Bu har bir talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini ta'minlaydi.

Pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash: differensial yondashuv va innovatsion ta'lim texnologiyalarini samarali tadbiq etish uchun o'qituvchilarning o'zi yuqori malakali bo'lishi talab etiladi. Shu sababli, pedagog kadrlarni zamonaviy metodlar bo'yicha qayta tayyorlash, malaka oshirish kurslarida differensial o'qitish texnologiyasi, AKT vositalaridan foydalanish, kompetentlikka asoslangan baholash usullariga o'rgatish zarur. O'qituvchiga har bir o'quvchi bilan individual ishlash madaniyatini singdirish, ularni motivatsiyalash bo'yicha psixologik-pedagogik bilimlar bilan qurollantirish ham muhimdir.

Material-texnik bazani kuchaytirish: Innovatsion yondashuvlarni joriy etish ko'p jihatdan ta'lim muassasalarining texnik jihozlanishiga ham bog'liq. Shunday ekan, o'quvlaboratoriyalari, simulyatsion markazlar, kompyuter texnologiyalari, Internet tarmog'iga ulanish kabi imkoniyatlarni kengaytirish lozim. Masofaviy va blended-learning (aralash ta'lim) usullarini joriy etish uchun zarur platformalar va kontentlar yaratishga e'tibor qaratish dardkor.

Ish beruvchi va ta'lim hamkorligini kuchaytirish: Mehnat bozori talablari bilan hamnafas ta'lim tizimini yaratish uchun ish beruvchilar bilan uzviy aloqalarni yo'lga qo'yish zarur. Korxona va tashkilotlar ishtirokida stajirovkalar, dual ta'lim dasturlari, mahorat darslari tashkil etish, bitiruvchilarni ishga joylashtirishga ko'maklashuvchi mexanizmlarni rivojlantirish lozim. Bu ham ta'lim sifatiga, ham bitiruvchining ishga tayyorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Mehnat bozori talablari asosida kadrlar tayyorlash kasbiy ta'lim tizimidan izchil yangilanish va moslashuvchanlikni talab etmoqda. Differensial yondashuv va innovatsion ta'lim mexanizmlarini qo'llash orqali o'quvchi salohiyatini ochib berish, unda bozorda talabgir kompetensiyalarni shakllantirish mumkin. Bu esa uzoq muddatda mamlakatning inson kapitalini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash va innovatsion taraqqiyotga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Иванова Л.А. Современный рынок труда: тенденции формирования надпрофессиональных компетенции.– Ilmiy maqola. (2019 yildan keyingi davr). [Zamonaviy mehnat bozori: nadprofessional kompetensiyalarni shakllantirish tendensiyalari].
2. Абританова О.А., Глукова Н.В. Об актуальности использования дифференцированного подхода на занятиях по учебной практике для эффективного формирования профессиональных компетенций (2021). – Новосибирск вилояти ўрта махсус таълими таърибасидан.
3. Menshikova A.N. Development of professional competences of future designers based on an individually differentiated approach in professional design education (2023). – Vestnik of Kostroma State University, 29(1), 122-131. [Bo'lajak dizaynerlarni kasbiy ta'limda individuallashtirilgan differensial yondashuv asosida professional kompetensiyalarni rivojlantirish].
4. Eshkurbonov A. Maktabgacha ta'lim tizimi rahbar xodimlarining raqobatbardoshligini ta'minlash modeli (2023). – Society and Innovations, 4(7/S), 230-236. [Maktabgacha ta'lim tizimi rahbar xodimlari raqobatbardoshligini ta'minlash modeli: kasbiy kompetensiya va bozor talablari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlili].

TA'LIM TASHKILOTLARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA XORIJIY TAJRIBALAR

Jalilova Hulkar To'rayevna,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda xorijiy tajribalarning ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin bo'lgan ko'plab samarali usullari va yondashuvlari tahlil qilingan. O'quvchilarga chet tilini o'rgatish muammosi, ularning mohiyati va tartibga solinishini ilmiy usullardan foydalangan holda har tomonlama muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirish va bunda xorijiy tajribalar orqali sohani yanada chuqurroq o'rganish yoritilgan. O'quvchilar uchun chet tilini o'qitish sifatini oshirishning asosi xorijiy tajribalarni, shuningdek, texnologiyalar hamda aloqa ko'nikmalarining o'quv jarayonida qo'llanilishi va ta'limni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar:

tahlil, ingliz tili, usul, ta'lim tizimi, xorijiy tajriba, o'qitish va xorijiy amaliyot, texnologiya, aloqa ko'nikmalari.

Аннотация:

В данной статье анализируются множество эффективных методов и подходов к преподаванию английского языка, которые могут быть успешно применены в образовательной системе зарубежных стран. Рассматривается проблема обучения учащихся иностранному языку, реализации их сущности и регулирования всесторонне скоординированным образом с использованием научных методов, а также более тщательного изучения данной области с помощью зарубежных экспериментов. Основой для повышения качества преподавания иностранного языка учащимся является акцент на применении зарубежного опыта, а также технологий и коммуникативных навыков в учебном процессе и развитии образования.

Ключевые слова:

анализ, английский язык, методика, образовательная система, зарубежный опыт, преподавание и зарубежная практика, технология, коммуникативные навыки.

Abstract:

This article analyzes many effective methods and approaches that can be successfully used in the educational system of foreign experiences in teaching English. The problem of teaching a foreign language to students, their nature and organization in a comprehensively coordinated manner using scientific methods and in-depth study of the field through foreign experiences are highlighted. The basis of improving the quality of foreign language teaching for students is the use of foreign experiences, as well as technologies and communication skills in the educational process, and attention is paid to the development of education.

Key words:

analysis, English language, method, educational system, foreign experience, teaching and foreign practice, technology, communication skills.

Xorijiy tillarni kasbiy - sohaviy maqsadlarda o'rganish va xorijiy tajribalarni ta'lim jarayonida qo'llash orqali ta'limni rivojlantirish hozirgi kunda eng dolzarb va maxsus tadqiqotlar obyektiga aylangan masalalardan biri hisoblanadi. XX asrning 60-yillariga kelib ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borildi. T.Xatchinson va A. Uoters [1] "Ingliz tilini o'qitish katta

bir daraxtning ildizi bo'lsa, ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish uning bir katta shoxi", - deb ta'kidlaganlar, shunday ekan ta'limda hozirgi kunda xorijiy tajribalarga asoslangan holda yangi metodlar ishlab chiqilmoqda. Respublikamizda professional ta'lim sohasida ingliz tili chet tili fani sifatida o'qitiladi va uning foydaliligi davlat miqyosida ekanligi ham aynan shu sohaning rivojlanib borishiga jiddiy ta'sir qilmoqda.

Ingliz tilining ham boshqa tillar kabi o'qitish metodikasi va ta'lim berish jarayonida o'ziga xos murakkabligi va muammolari mavjud. Bu muammo grammatikaga asoslangan o'qitish yondashuvlari bilan bog'liq, bunda o'qish va o'qitish jarayoni o'quvchilarning grammatik bilimlarni egallashiga va grammatik tuzilmalarni manipulyatsiya qilish qobiliyatiga qaratilgan. Biroq ko'pincha o'quvchilar ingliz tilidan mazmunli foydalanishga imkon beradigan bir qator sohaga oid ilmiy konferensiya va uchrashuvlarda faol ishtirok eta olmaydilar. Masalan, sinfda ingliz tilini o'rganishga yo'naltirilgan faol mashqlar, tegishli uslubiy tarkib, o'quvchilarning o'zaro ta'siri, mazmun va g'oyalar integratsiyasi va bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash kabi tajribalar yetishmaydi. Binobarin, o'quvchilarning ingliz tilidagi matnlar mazmunini tushunishi

va eslab qolishi, ingliz tili darslarida faol qatnashishi va darsda mashqlar bajarishda qiynalayotgani ham bejiz emas.

Shuo'rinda K. Hayland [2] umumakadem ingliz tilini o'qitish zaruratini isbotlovchi quyidagi sabablarni keltiradi:

- ingliz tilidagi ilmiy leksikani, ilmiy uslubni o'rgatish;

- ingliz tilini bilish darajasi yuqori bo'lmagan o'quvchilarga maxsus akadem bilimlarni o'qitishdan avval boshlang'ich bosqich sifatida o'rgatish;

- umumakadem leksikani rivojlantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlardan keng foydalanish, til va nutq kompetensiyalarini rivojlantirish;

- ilmiy matnni o'qish, tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga oid mashqlarni bajarishga o'rgatish.

Bir qator xorijiy mamlakatlarda tilni o'rgatish va bilish darajasini baholash standartlari mavjud. Masalan, AQSHda "XXI asrda chet tillarini o'rganish milliy standartlari" ishlab chiqilgan bo'lib bu standart 1986-yilda qabul qilingan. Yevropada 2001-yilda "Tillar bo'yicha umumiy Yevropa ma'lumotnomasi" (CEFR) qabul qilingan. CEFR ma'lumotnoma tizimi bo'lib quyidagi uchta asosiy maqsadni ko'zlaydi:

- mutaxassislarni Yevropada til dasturlari, o'quv dasturlari, test sinovlari, darsliklar va boshqalarni ishlab chiqish uchun baza bilan ta'minlash;

- Yevropadagi turli ta'lim tizimlari bilan o'zaro hamkorlikda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mutaxassislarga yordam berish;

- har bir ta'lim darajasida o'quvchilarning til o'rganishdagi yutuqlarini baholash orqali har bir o'quvchining tilni bilish darajasini aniqlashga yordam berish.

CEFR Yevropa va boshqa mamlakatlardagi chet tilini o'rganuvchilarning tilni bilish darajasini tavsiflash uchun qo'llaniladigan qo'llanmaga aylandi. Ushbu xalqaro standart Yevropadagi barcha tillarga taalluqli o'rganish, o'qitish va baholash usullarini o'z ichiga olgan ta'lim muassasalariga yoki ishga joylashish uchun nomzodlarning til ko'nikmalarini baholashni osonlashtiradi. CEFRda individual ta'lim, o'qitish va baholash darajalari oltita bilim darajasi bilan belgilanadi: A1, A2, B1, B2, C1, C2. CEFR til faoliyatini axborotni qabul qilish (tinglash va o'qish), ishlab chiqarish (gapirish va yozish), o'zaro ta'sir (gapirish va yozish) va vositachilik (tarjima) ka ajratadi[3].

Har bir CEFR darajasida Yevropa Kengashi [4] tomonidan ishlab chiqilgan "Global shkala" mavjud bo'lib, u til bilimi va ko'nikmalarini baholash uchun foydali hisoblanadi va ushbu darajalar quyidagi jadvalda keltirilgan.



Asosiy foydalanuvchi	Beginner level A1	Boshlang'ich darajasi aniq turdagi ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan tanish kundalik iboralar va juda oddiy iboralarni tushuna oladi va ishlata oladi. O'zini va boshqalarni tanishtira oladi va o'zi yashaydigan joy, tanigan odamlari va o'zida bor narsalar kabi shaxsiy ma'lumotlarga oid savollarga javob bera oladi. Agar boshqa odam sekin va aniq gapirsa va yordam berishga tayyor bo'lsa, oddiy tarzda o'zaro aloqada bo'lishi mumkin.
	A2	Eng muhim sohalarga oid jummalarni va tez-tez ishlatiladigan iboralarni tushuna oladi (masalan, shaxsiy va oilaviy juda oddiy ma'lumotlar, xarid qilish, mahalliy geografiya, ish bilan ta'minlash). Tanish va odatiy masalalar bo'yicha oddiy va to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot almashishni talab qiladigan oddiy va odatiy vazifalarda muloqot qila oladi. O'zining kelib chiqishi, yaqin atrofi va yaqin atrofdagi masalalarni oddiy so'zlar bilan tasvirlab bera oladi.
Mustaqil foydalanuvchi	B1 Pre-intermediate darajasi	Ishda, maktabda, dam olishda va hokazolarda muntazam ravishda uchrab turadigan tanish masalalar bo'yicha aniq standart kiritishning asosiy fikrlarini tushuna oladi. Til so'zlashadigan hududda sayohat qilish paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'p vaziyatlarni hal qila oladi. Tanish yoki shaxsiy qiziqish mavzulari bo'yicha oddiy bog'langan matn ishlab chiqishi mumkin. Tajribalar va voqealar, orzular, umidlar va ambitsiyalarni tasvirlay oladi, fikrlar va rejalar uchun qisqacha sabablar va tushuntirishlar bera oladi.
	B2 o'rta daraja	Murakkab matnning aniq va mavhum mavzulardagi asosiy g'oyalarni, shu jumladan o'z mutaxassisligi bo'yicha texnik munozaralarni tushuna oladi. Ma'lum darajada ravonlik va o'z-o'zidan o'zaro aloqada bo'lishi mumkin, bu esa ona tilida so'zlashuvchilar bilan muntazam muloqotni har ikki tomon uchun ham qiyinchiliksiz amalga oshirish imkonini beradi. Turli xil variantlarning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsatib, mavzularning keng doirasi bo'yicha aniq, batafsil matn ishlab chiqadi va dolzarb masala bo'yicha nuqtayi nazarni tushuntira oladi va dolzarb masala bo'yicha nuqtayi nazarni tushuntira oladi.
Tajribali foydalanuvchi	C1 ilg'or daraja	Keng doiradagi talabchan, uzunroq matnlarni tushuna oladi va yashirin ma'noni tan oladi. O'z fikrini ravon va o'z-o'zidan ifodalay oladi, iboralarni aniq izlamaydi. Tildan ijtimoiy, akademik va professional maqsadlarda moslashuvchan va samarali foydalana oladi. Murakkab mavzularda aniq, yaxshi tuzilgan, batafsil matn yaratish, tashkiliy naqshlar, konnektorlar va birlashtiruvchi qurilmadan nazorat ostida foydalana oladi.
	C2 malakali daraja	Eshitilgan yoki o'qilgan deyarli hamma narsani osongina tushuna oladi. Turli og'zaki va yozma manbalardan olingan ma'lumotlarni umumlashtira oladi, argumentlar va hisoblarni izchil taqdimotda qayta tiklaydi. O'z fikrini o'z-o'zidan, juda ravon va aniq ifoda eta oladi, murakkabroq vaziyatlarda ham nozik ma'no tuslarini farqlay oladi.

CEFRda tilni bilish darajalarini yana uchta keng darajaga guruhlash mumkin; ya'ni til o'rganuvchilar til bilimi va malakasiga ko'ra 3 xil guruhga bo'linadi: asosiy foydalanuvchi (A1, A2), mustaqil foydalanuvchi (B1, B2) va malakali foydalanuvchi (C1, C2)[5].

Xorijiy til o'rganuvchi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirishning qulay va samarali usullarini aniqlash, til bilish darajasini tekshirish va baholashda AKTning o'rni beqiyosdir. Chet tilini o'rganishda AKTdan foydalanish o'qitishni intensivlashtirish va individuallashtirishga yordam beradi, o'quvchining fanga qiziqishini oshiradi, tezkor natijalarga erishish imkonini beradi va shaxsning tilni bilish darajasini xolisona baholash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, AKT o'quvchilarda chet tilidan muloqot vositasi sifatida foydalanishda yuzaga kelishi

mumkin bo'lgan psixologik to'siqni bartaraf etishga yordam beradi. Yangi texnologiyalar o'quvchiga ta'lim jarayonida chet tilining har bir darajasi bo'yicha o'z malakasini chuqurlashtirish imkonini beradi. Bularning barchasi katta ijobiy natijalarga olib keladi.

Bu har bir o'rganuvchiga chet tilini bilish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi va ularning o'rganish motivatsiyasiga ta'sir qiladi [6].

Malayziya va Indoneziya mamlakatlarida o'quvchilarni hayotiy vaziyatlarda ingliz tilidan mutanosib foydalanishga va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydigan kommunikativyondashuvga e'tibor qaratiladi. Boshqa mamlakatlarda, xususan, Markaziy Osiyo va Sobiq Ittifoq davlatlarida ingliz tili grammatikasi va yozma tomoniga katta e'tibor beriladi. Ushbu farqlarni o'rganish

o'qituvchilarga o'z o'quvchilari uchun eng mos usullarni tanlashga imkon beradi. Bundan tashqari, xorijiy tajriba interaktiv o'qitish usullaridan keng foydalanishni ham o'z ichiga oladi. Masalan, o'yinlar, interaktiv o'yinlar, loyihalar va boshqa tadbirlar berilgan materialni yanada samarali o'zlashtirishga yordam beradi va o'quvchilarni qiziqtiradi. Bunday usullar o'quv jarayonini yanada qiziqarli va esda qolarli qilishga yordam beradi. Hozirgi kunda esa zamonaviy texnologiyalar ingliz tilini o'qitishning xorijiy tajribalari bilan uyg'un tarzda amalga oshirilib kelinmoqda. Onlayn platformalar, til o'rganish ilovalari, video darsliklar ham ingliz tilini o'rganishni yanada qulayroq va interaktiv qiladi. Bunday texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning e'tiborini jalb etish va o'rganish jarayonini samaraliroq qilishga yordam beradi. S.Y.Neyman fikricha, "Masofaviy o'qitishning asosiy g'oyasi bir-biridan uzoq masofada bo'lishiga qaramay, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida interaktiv aloqani o'rnatishdan iborat[7]. Masofadan o'qitishni ideal holda tashkil etish, nafaqat bilimlarni uzatish imkonini beradi, balki o'qitish jarayonining masofadan turib muvaffaqiyatli nazorat qilishni ham ta'minlaydi".

Mavzuning yana bir ahamiyatli tomoni esa ingliz tilini o'qitish va xorijiy tajriba asosida uni amalga oshirish sifatli ta'limni rivojlantirish uchun muhim qadamdir.



Turli mamlakatlardan eng yaxshi amaliyot va usullarni tanlab, o'qituvchilar ingliz tilini muvaffaqiyatli o'rganishga yordam beradigan yanada qiziqarli va samarali darslarni yaratishlari mumkin. Ingliz tilini o'qitishda xorijiy tajribalarni tahlil qilish bizga ta'lim tizimida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali usul va yondashuvlarni yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Olingan natijalarni tahlil qilish va ingliz tilini o'qitish amaliyotida xorijiy tajribani qo'llash istiqbollari to'g'risida shunday xulosaga kelish mumkinki, ingliz tilini o'qitishning xorijiy tajribasini tahlil qilish natijalari ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin bo'lgan ko'plab samarali usul va yondashuvlardan dalolat beradi. Chet ellik o'qituvchilarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, interfaol o'qitish usullaridan foydalanish, texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish, aloqa ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor berish va ta'limni individuallashtirish talabalar tilni yanada samarali o'zlashtirishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hutchinson T. and Waters A. English for specific purposes. A learning centered approach. Cambridge university press. 1993.
2. Hyland K. English for academic purposes. 2006. 302-p
3. Council of Europe. Use of the CEFR (25.12.2022) <https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages/level-descriptions>
4. Abidin, N and Hashim, H. (2021) Common European Framework of Reference (CEFR): A Review on Teachers' Perception & Plurilingualism. Creative Education, 12, 727-736. DOI: 10.4236/ce.2021.124051.
5. David, L. (2006). The common European Framework of Reference for Languages: Content, purpose, origin, reception and impact. Language Teaching, 39(03), 167-190.
6. Council of Europe. (n.d.). Global scale - Table 1 (CEFR 3.3): Common Reference levels. Retrieved from <https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages/table-1-cefr-3.3-common-reference-levels-global-scale> on 11 avgust 2022.
7. Нейман С.Ю. Принципы построения системы дистанционного обучения иностранном языкам. "Санкт-Петербургский образовательный вестник "Журнал, № 2. 2017.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA KASBIY FAOLIYAT UYG'UNLIGINI TA'MINLASH

Ravshanov Bexruz Xasanovich,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada kasbiy ta'lim muassasalarida sport mashg'ulotlari va raqamli texnologiyalar integratsiyasi orqali sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish masalalari yoritilgan. Interaktiv mobil ilovalar, virtual murabbiylik tizimlari, sog'liq monitoringi vositalari orqali o'quvchilarda jismoniy faollikka bo'lgan qiziqishni oshirish va salomatlik madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil etilgan. Raqamli vositalar orqali sportga zamonaviy yondashuv o'quvchilarning o'z ustida ishlashga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

Kalit so'zlar:

kasbiy ta'lim, sog'lom turmush tarzi, sport mashg'ulotlari, raqamli dasturlar, mobil ilovalar, jismoniy faollik, salomatlik madaniyati.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются вопросы формирования культуры здорового образа жизни в профессиональных образовательных учреждениях на основе взаимодействия спортивных тренировок и цифровых технологий. Проанализированы возможности использования интерактивных мобильных приложений, виртуальных тренеров и систем мониторинга здоровья для повышения интереса учащихся к физической активности и укрепления их здоровья. Современный цифровой подход к спорту способствует росту мотивации учащихся к самосовершенствованию.

Ключевые слова:

профессиональное образование, здоровый образ жизни, спортивные тренировки, цифровые технологии, мобильные приложения, физическая активность, культура здоровья.

Abstract:

This article explores the formation of a healthy lifestyle culture in vocational education institutions through the integration of sports training and digital technologies. It analyzes the use of interactive mobile applications, virtual coaching systems, and health monitoring tools to enhance students' interest in physical activity and promote a culture of well-being. A digital approach to sports encourages students to be more motivated toward self-development and maintaining a healthy lifestyle.

Key words:

vocational education, healthy lifestyle, sports training, digital applications, mobile apps, physical activity, health culture.

Kirish. Bugungi kunda sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, yosh avlod, ayniqsa kasbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarda sog'liqni asrash va jismoniy faollikni oshirish orqali ijtimoiy hayotga faol integratsiya qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, sport mashg'ulotlari va zamonaviy raqamli texnologiyalarni birlashtirish orqali sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilarining kun tartibida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish, ularda doimiy jismoniy faollikni rag'batlantirish va bu jarayonni raqamli vositalar bilan boyitish orqali sog'lom hayot tarzini odatga aylantirish mumkin. Bu borada interaktiv mobil ilovalar, smart-soatlar, sog'liq monitoring tizimlari va virtual murabbiylik modellarining o'rni katta.

Ushbu maqolada aynan kasbiy ta'lim muassasalari kontekstida sport mashg'ulotlari va raqamli dasturlar o'zaro hamkorligi asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari,

metodlari va natijalari tahlil qilinadi.

Shunday qilib, kasbiy ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalar va sog'lom turmush tarzini integratsiya qilish orqali kasbiy kompetensiyani rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi. Bu nafaqat mehnat bozorida

raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, balki yoshlarning jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash, ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga zamin yaratish uchun ham muhimdir.

Metodologiya. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi:

Tahlil usuli: mavjud ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar va ilg'or xorijiy tajribalar o'rganildi.

So'rovnoma: 4 ta kollej va texnikumlarda tahsil olayotgan 300 nafar o'quvchi o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada sport faoliyati, raqamli texnologiyalardan foydalanish, sog'lom turmush tarziga nisbatan munosabat kabi jihatlar qamrab olindi.


Eksperiment: 1 yil davomida bir guruh o'quvchilar sport mashg'ulotlarida 36 soatlik "Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash va ularning kompetentligini rivojlantirish" dasturi, uning raqamli ta'lim kontentlari, interaktiv mobil ilovalar, metodik ta'minot va sog'liq monitoringi qurilmalaridan foydalanishdi. Bu davr mobaynida ularning jismoniy holati, qatnashuv faolligi va o'zgarishlar kuzatildi.


Suhbatlar: jismoniy tarbiya o'qituvchilari, trenerlar va IT mutaxassislari bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar olib borildi.

Ushbu metodlar orqali aniq ilmiy asosga ega xulosalar chiqarildi.

36 soatlik "Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash va ularning kompetentligini rivojlantirish" o'quv kursi modulining maqsadi raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida o'quvchining o'quv faoliyatida kasbiy rivojlanishining pedagogik shartlarini asoslash hisoblanadi. Modulni o'qitishda Flipped Classroom (teskari sinf) metodidan foydalanilgan. Ushbu metodda o'quvchilar nazariy materiallarni mustaqil ravishda onlayn o'rganadilar, amaliy mashg'ulotlarda esa ular o'z bilimlarini sinovdan o'tkazadilar va ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Dastur

o'zlashtirish darajasini nazorat qilish imkonini beruvchi to'liq, mantiqiy yakunlangan tematik mavzulardan iborat. Dastur bo'yicha mashg'ulotlar o'quv vaziyatlari muhokamasi va tahlili, kasbdoshlar tajribasi bilan tanishish, kichik guruhlarda ishlash, boshqa metodlarni o'zida mujassam etgan amaliy mashg'ulotlar shaklida amalga oshiriladi. Shu bilan birga mazkur o'quv dasturini o'qitish maqsadida uning raqamli ta'lim kontentlari ishlab chiqildi. Raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan mazkur platforma bo'lajak mutaxassislarni uchun mustaqil ta'limga yo'naltirilgan.





1, 2-rasmlar. "Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash va ularning kompetentligini rivojlantirish" platformasining imkoniyatlari.

Mazkur dastur tugatilgach quyidagi natijalarga erishildi:

- o'quvchining kasbiy rivojlanishida raqamli texnologiyalarining imkoniyatlari aniqlandi;
- raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida o'quvchini kasbiy faoliyatga tayyorlashning tarkibiy-funksional modeli joriy etildi;
- o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida dars ishlanmalari, o'quv-uslubiy materiallar hamda dasturiy ta'minot ishlab chiqildi va ta'lim jarayoniga tatbiq etildi;
- axborot faoliyati jarayonida o'quvchilarning mutaxassisning kasbiy rivojlanishida gnostik, amaliy, tuzatuvchi o'qitish usullarini bosqichma-bosqich joriy etildi va tajriba-sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqotimiz doirasida dars mashg'ulotlari o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun biz tomondan qo'llanilgan "Asynchronous training" innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'tkazildi.

Asynchronous training – bu o'quvchilarning bir xil materialni turli vaqt va joylarda o'rganishi haqidagi g'oya. Bu atama ko'pincha onlayn ta'lim bilan bog'liq bo'lib, unda o'quvchilar o'qish, topshiriq yoki faoliyatni o'z tezligida va o'zlari tanlagan vaqtda bajarishadi. Bu yondashuv, ayniqsa, o'quvchilar turli vaqt zonalarida yashasa yoki texnologiyadan foydalanish imkoniyati cheklangan bo'lsa foydali bo'ladi.

Asynchronous training afzalliklari quyidagilardan iborat:

Moslashuvchanlik. O'quv modullarini ishlab chiqish muddatlari mavjudligiga qaramay, o'quvchilar kurslarni o'z tezligida olishlari mumkin, chunki har qanday vaqtda materiallardan foydalanish imkoniyati mavjud; Internetning sifati darsni o'zlashtirishga unchalik ham xalaqit bermaydi. Bu shuni anglatadiki, o'quvchi onlayn translyatsiyaning bir qismini o'tkazib yubormaydi, balki ulanish tiklanganidan keyin ma'ruzani ko'rishga qaytishi mumkin.

Keng geografiya. o'quvchilar turli vaqt zonalariga qaramasdan, qulay vaqtda vazifalarni bajarishlari mumkin;

Boshqarish qulayligi. Kurs muallifi yoki o'qituvchi kundalik eshittirishlarga vaqt ajratmaydi, lekin, masalan, boshqa kurslarni ishlab chiqishi mumkin.

O'rganishning barcha turlarini (ham onlayn, ham oflayn) ikkita katta guruhga bo'lish mumkin: sinxron va asinxron. Ushbu bo'linish, nomidan ko'rinib turibdiki, subyektlar va o'zaro ta'sir obyektlari o'rtasida axborotni qabul qilish va jo'natishning sinxronlashuviga asoslanadi. Oddiy qilib aytganda, sinxron o'rganish – bu axborotni qabul qilish va uzatish deyarli bir vaqtning o'zida sodir bo'lishi. Bunga ma'ruza, vebinar, hozirda ommabop bo'lgan ijtimoiy tarmoqlardagi jonli efirlar va chatlar kiradi. Ya'ni, tinglovchi (o'quvchi) ma'lumotni darhol qabul qiladigan va savol berish yoki o'qituvchining topshirig'ini bajarish imkoniyatiga ega bo'lgan vositalar.

Asinxron masofaviy ta'lim – bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa o'z vaqtida

kechiktirilgan formatdir. Ishtirokchilar jismoniy makonda kesishmaydi va virtualda bir-birlarini «koʻrmaydilar». Shu bilan birga, kurs oʻz funksiyalarini bajaradi: oʻquvchilar bilim oladi, fikr-mulohazalar oladi (test natijalari asosida tizimdan yoki oʻquvchilarning mustaqil ishlarini tekshirishda oʻqituvchi) va maʼlum bir taʼlim trayektoriyasi boʻylab harakatlanadi.

Asinxron taʼlim formati bilan oʻqituvchi va oʻquvchilar oʻrtasida aloqa yoʻqligi odatda qabul qilinadi. Bu shunday emas: oʻqituvchi va oʻquvchilar taʼlim platformasi ichida elektron pochta yoki messenger orqali muloqot qilishlari mumkin.

Asinxron oʻquvning asosiy xususiyatlari

Asinxron taʼlimning asosiy xususiyati shundaki, u odatdagi cheklovlardan koʻproq yoki kamroq «ajratilgan». Yaʼni, vaqt, joy yoki oʻqituvchi va oʻquvchilar oʻrtasidagi hamkorlikka bogʻliq emas. Mustaqil oʻrganishning bu muhim mavzusi oʻquv jarayonini tubdan oʻzgartiradi.

Agar sinxron taʼlim sharoitida oʻqituvchi maʼlum bir mavzuni real vaqt rejimida oʻrganayotgan boʻlsa, asinxron taʼlim sharoitida oʻquvchi, qoida tariqasida, mustaqil vositachilik ishlari uchun resurslar bilan taʼminlanadi.

Asinxron taʼlim odatda texnologiyani talab qiladi va oʻquvchilar hamda oʻqituvchilar ushbu vositalardan foydalanish imkoniyatiga ega boʻladi yoki ular bilan qanchalik tajribali ekanligiga bogʻliq.

Asinxron oʻquvning foydalari:

- keng geografiya. Asinxron taʼlim dunyoning istalgan nuqtasidan oʻquvchilar uchun mavjud.

- moslashuvchanlik. Oʻquvchilar oʻzlarining muntazam mashgʻulotlariga qoʻshib, oʻzlarining oʻqish jadvalini tanlashlari mumkin.

- hamkorlik. Kursni boshlash uchun guruhni jalb qilish shart emas – oʻquvchilar istalgan vaqtda kursni boshlashi va tugatishi mumkin.

Muhokama. Olingan natijalar shuni koʻrsatmoqdaki, kasbiy taʼlim muassasalarida sport mashgʻulotlarini raqamli texnologiyalar bilan birlashtirish orqali sogʻlom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari

mavjud va bu juda samarali yondashuvdir.

Avvalo, platforma va mobil ilovalar oʻquvchilarda individual reja asosida sport bilan shugʻullanish imkonini beradi. Statistik maʼlumotlarga koʻra, oʻquvchilarning aksariyati sport mashgʻulotlarini mobil ilovalar orqali osonroq va qiziqarli deb baholagan. Ayniqsa, oʻzining natijalarini monitoring qilish imkoniyati motivatsiyani oshirishda muhim omil boʻlmoqda.

Bundan tashqari, virtual murabbiylik tizimlari orqali uy sharoitida yoki darsdan soʻng mustaqil shugʻullanish uchun koʻplab variantlar mavjud. Bu esa sportga boʻlgan yondashuvni individuallashtirishga xizmat qiladi.

Raqamli vositalar orqali sportni ommalashtirish kasbiy taʼlim muassasalarida sogʻlom turmush tarzini keng targʻib qilish, salomatlik madaniyatini mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari, bu yondashuv yoshlarning ruhiy va jismoniy salomatligini mustahkamlash bilan birga, ularni oʻz ustida ishlashga undaydi.

Shuningdek, oʻquvchilar tomonidan koʻp foydalanilayotgan mobil texnologiyalar orqali ijobiy odatlar – harakatlilik, vaqtni toʻgʻri taqsimlash, ovqatlanishni nazorat qilish, dam olishni rejalashtirish kabi elementlar shakllanmoqda.

Xulosa va takliflar.

- kasbiy taʼlim muassasalarida sport va raqamli texnologiyalar integratsiyasi mustahkamlanishi kerak. Bu orqali sogʻlom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish samaradorligi ortadi.

- interaktiv sport ilovalari oʻquv dasturlariga qoʻshilishi lozim. Maxsus yoʻriqnomalar va mashgʻulotlar orqali oʻquvchilarni raqamli sport bilan tanishtirish zarur.

- jismoniy tarbiya mashgʻulotlari raqamli vositalar bilan uygʻunlashtirilishi lozim. Bu orqali oʻqituvchilar darslarni zamonaviy formatda tashkil etishlari mumkin.

- raqamli platformalarda musobaqalar, chellenjlar va reyting tizimlari tashkil etilishi mumkin. Bu oʻquvchilarning raqobatbardoshligini oshiradi.

- IT mutaxassislari bilan hamkorlikda kasbiy taʼlim uchun maxsus sport platformalari ishlab



chiqilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, sport mashg'ulotlari va raqamli dasturlar hamkorligi orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish kasbiy

ta'lim muassasalarida dolzarb va istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Bu esa yoshlarning salomatligi, jismoniy va ruhiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Равшанов Б.Х. Подготовка будущих специалистов к профессии с помощью информационно-коммуникационных технологий // Научно-исследовательский журнал "Педагогическое образование". № 2, Том 6, 2025.
2. Ravshanov B.X. Jismoniy tarbiya ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining elektron ta'lim bazasidan foydalangan holda kasbiy mahoratini takomillashtirish. "Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio". Ilmiy metodik jurnal № 6/2. Qaraqalpaqstan. 2023.
3. Ravshanov B.X. Kasbiy ta'limda infokommunikatsion texnologiyalar asosida mutaxassislar tayyorlashning global tendensiyalari // O'zbekistonda professional ta'lim. Ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. Toshkent: 2024. 4-son. 70-74-b.
4. Ravshanov B.X. Jismoniy tarbiya darslarining sifat-samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash va uning afzalliklari //international sciences, education and new learning technologies. – 2024.
5. Ravshanov B.X. Increasing professional skills of physical education graduates using an electronic educational base. Educational Research in Universal Sciences. Multidisciplinary scientific journal, 2024 – ISSN 2181-3515: volume 3. special issue 1.
6. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped.fan.dok.diss. – T., 2007.-305 b.
7. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi. Ped. Fan. Dokt. Diss. Toshkent. 2017. - 337 b.
8. Кравцова А.Ю. Совершенствование системы подготовки будущих учителей в области информационных и коммуникационных технологий в условиях модернизации образования (на материале зарубежных исследований): дис... д-ра пед. наук. М.: 2004. 267 с.
9. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan.dokt. Diss. –T., 2007.-349.
10. Taylaqov N. I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari dok.dissertatsiyasi. T. 2006 y. 331b.
11. U.Y.Yuldashev, R.R.Boqiyev, F.M.Zokirova. Informatika. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik T, 2002 y.

KASBIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH USULLARI

O'rinov Yigitali Muratovich,

Professional ta'limni rivojlantirish instituti bo'lim boshlig'i, iqtisod fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada kasbiy ta'lim muassasalarining rivojlanishi, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, moliyaviy barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyotining turli sohalari uchun raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, kasbiy ta'lim muassasalarining faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, ularning moliyaviy ta'minotini mustahkamlash va turli manbalar hisobidan moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi dolzarb masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar:

ta'lim, ta'lim sifati, moliyalashtirish, byudjetlari mablag'lari, byudjet tashkilotlari, shartnoma, xarajatlar, kasbiy ta'lim, maqsadli grantlar va subsidiyalar, davlat-xususiy sheriklik, to'lov kontrakt asosida.

Аннотация:

В данной статье освещаются такие актуальные вопросы, как развитие профессиональных образовательных учреждений, укрепление их материально-технической базы, обеспечение финансовой устойчивости, подготовка конкурентоспособных, высококвалифицированных кадров для различных отраслей экономики, эффективная организация деятельности профессиональных образовательных учреждений, укрепление их финансового обеспечения и совершенствование механизмов финансирования за счет различных источников.

Ключевые слова:

образование, качество образования, финансирование, бюджетные ассигнования, бюджетные организации, контракты, расходы, профессиональное образование, целевые гранты и субсидии, государственно-частное партнерство, оплата на контрактной основе.

Abstract:

This article covers current issues such as the development of professional educational institutions, strengthening their material and technical base, ensuring financial stability, training competitive, highly qualified personnel for various sectors of their economy, effective organization of the activities of professional educational institutions, strengthening their financial supply and improving financing mechanisms at the expense of various sources.

Key words:

education, quality of education, financing, budget funds, budgetary organizations, contract, expenses, professional education, targeted grants and subsidies, public-private partnership, payment under contract.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim sohasini rivojlantirishning zamonaviy xususiyatlari, ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, ajratilgan mablag'lardan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi yangi va ilg'or usullardan foydalanishni taqazo etadi. Ushbu holat davlat tomonidan ta'lim sohasida olib borilayotgan siyosatning birlamchi vazifalariga kiradi va u quyidagilarni ta'minlashga yo'naltiriladi:

- ta'lim olish imkoniyati;
- ta'lim sifati va natijalari;

- ehtiyojlari bir xil o'quvchilarni mablag'lar bilan bir xil ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilarni esa ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mablag'lar bilan ta'minlashni nazarda tutuvchi tenglik;

- ichki va tashqi samaradorlik.

Har bir mamlakat ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari, budjet tizimining xususiyatlari va ta'lim tizimini boshqarish tamoyillaridan kelib chiqib ta'lim sohasini moliyalashtirishning u yoki bu usullarini qo'llaydi. Shu bilan birga, aksariyat ta'lim tizimlarida ta'lim muassasalarini

moliyalashtirishning bir nechta keng qo'llaniladigan usullarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

- o'tgan davr ko'rsatkichlari asosida moliyalashtirish - bu usul tashkilot budjetini o'tgan davr xarajatlari darajasida (inflyatsiyani hisobga olgan holda) mazkur muassasa moliyalashtirilayotgan tegishli budjet imkoniyatlaridan kelib chiqib aniqlashni ko'zda tutadi;

- alohida shartnomalar asosida moliyalashtirish - har bir ta'lim muassasasi belgilangan mezonlarga muvofiq zarur resurslarga bo'lgan o'z ehtiyojlarini asoslab berishi lozim. Ushbu resurslarga bergan buyurtmasi talablarga mos kelgandagina ega bo'ladi;

- xarajatlar asosida moliyalashtirish - faoliyatini bajarish uchun tashkilot tomonidan sarflangan xarajatlarni qoplash, ya'ni binolar, inshootlarni saqlash, ularni joriy ta'mirlash, ishchi-xodimlar ish haqi xarajatlari va h.k.

(bunday usul "xarajatli" hisoblanib, bugungi kunga qadar ta'lim muassasalarini budjet tomonidan moliyalashtirish amaliyotida ustuvorlik qilmoqda);

- formula asosida moliyalashtirish - bu usul moliyaviy mablag'larni belgilangan me'yorlar tizimini har bir ta'lim muassasasiga ma'lum tartibda qo'llash va oshkora asosida taqsimlash imkonini beradi.

Kasbiy ta'lim muassasalarining xarajatlar smetasi asosiy moliyaviy hujjat hisoblanadi. Unga muvofiq, muassasaning tegishli ijtimoiy (masalan, ta'lim) xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun mablag'lar ajratiladi. Maktabgacha va maktab hamda kasbiy va oliy ta'lim muassasalarining tarmoqlarga bo'lingan tizimi budjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibiga muvofiq respublika, viloyat, tuman (shahar) mahalliy budjetlari mablag'lari hisobidan (idoraviy va hududiy bo'ysinuviga bog'liq holda) moliyalashtiriladi (1-rasm).

Smeta turlari		
Budjet tashkilotlar xarajatlar smetasi		Tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkilotlar xarajatlari bo'yicha ko'zda tutilga budjetdan ajratilgan mablag'lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi
Budjetdan mablag'lar smeta	tashqari bo'yicha	Tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkil bo'lish manbalari va ushbu mablag'lardan qonunchilikka muvofiq foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda budjetdan tashqari daromadlar tushumlarining prognoz hajmlari aks ettiriladi
Markazlashgan bo'yicha smetasi	tadbirlar xarajatlar	Rejalashtirilayotgan yilda vazirliklar, idoralar, hokimiyat boshqarmalari va bo'limlari tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan tadbirlar bo'yicha tashkilotlarning markazlashgan (maqsadli) tadbirlari uchun tuzilgan hujjat

1-rasm. Budjet tashkilotlarining xarajatlari smetasi turlari

Bunda yuridik maqomga ega tashkilotlar o'z moliyaviy rejalarini mustaqil ravishda xarajatlar smetasi ko'rinishida ishlab chiqadilar va amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlaydilar. Moliyalashtirish formulasi har bir tashkilotda ajratilayotgan resurslar miqdorini aniqlashda hisobga olinishi lozim bo'lgan omillarni aniqlash imkonini yaratadi.

Oxirgi o'n yilliklarda formula asosida moliyalashtirishga bo'lgan e'tibor tobora ortib

bormoqda. Hozirgi vaqtda ushbu usul ko'pgina mamlakatlarda resurslarni adolatli taqsimlash maqsadida ta'lim muassasalari uchun u yoki bu darajada qo'llaniladi. Moliyalashtirish formulasini davlat va ta'lim tashkiloti o'rtasidagi o'ziga xos kelishuv sifatida ko'rish mumkinki, unga ko'ra, ta'lim tashkilotlari zarur ta'lim natijalarini ta'minlash va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish evaziga kelishilgan miqdordagi moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanadilar.

Budjet mablag'larini ta'lim sohasiga taqsimlashda jon boshiga moliyalashtirish formulalarini qo'llash mablag'larni bir tekis taqsimlash, ulardan oqilona, samarali, oshkora foydalanish va oldindan bashorat qilish kabi afzalliklarga ega.

Ta'lim muassasalarini jon boshiga moliyalashtirish bir o'quvchi (talaba, tarbiyalanuvchi) uchun o'rnatilgan xarajatlar me'yorlari, o'quvchilar soni va ta'lim muassasalari xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus koeffitsientlarga asoslangan moliyalashtirish tizimi.

Ko'pgina davlatlarda, ayniqsa, MDH mamlakatlarida (Armaniston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston) mablag'lar bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlari me'yorida kelib chiqqan holda beriladi. Moliyalashtirish formulasining asosini o'zgaruvchi ko'rsatkichlar tashkil etadi va ular yordamida quyidagi mablag'lar hisoblanadi:

- o'quvchilarning bazaviy ta'limi uchun mablag'lar, bunda moliyalashtirish formulasi o'z ichiga turli sinflar va turli tipdagi ta'lim muassasalarida ta'lim qiymatini aks ettiruvchi turli koeffitsientlarni olishi mumkin;

- alohida maktablarda ta'lim olish yoki ayrim fanlar chuqur o'rgatiladigan maktablar xarajatlari aniqlash;

- rivojlanishda nuqsoni bor, nogironlik, tilni yaxshi bilmaydigan, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari og'ir o'quvchilarning qo'shimcha ehtiyojlari uchun mablag'lar hajmini aniqlash;

- ta'lim muassasasining hajmi yoki joylashuvi (alohida ajralib qolgan maktablar yoki aholi punktlari, maktablarning o'quvchilar bilan ta'minlangan, maktab xonalari va hovlilari, ularning jismoniy tavsiflari va hokazo) bog'liq tavsiflarni moliyalashtirish.

Ushbu o'zgaruvchi ko'rsatkichlarning moliyalashtirish formulasiga kiritilishi resurslarni barcha o'quvchilar o'rtasida teng taqsimlash imkonini beradi. Ammo resurslarni jon boshiga moliyalashtirish asosida taqsimlashning samaradorligini ta'minlash uchun ta'limning belgilangan darajasini ta'minlash, resurslar miqdori va narxidan kelib chiqqan holda ularning miqdoriy tahlilini olib borish zarur. Aks holda, sarflanayotgan xarajatlar va ta'lim sifati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash qiyin kechadi.

Kasbiy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun bu muassasalar barqaror va samarali moliyaviy manbalarga ega bo'lishi lozim. Ushbu bo'limda kasbiy ta'lim tizimini moliyalashtirishning mavjud usullari tahlil qilinadi.

Kasbiy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning bir necha asosiy manbalari mavjud:

Davlat budjeti mablag'lari – davlat budjetida kasbiy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag'lar.

Xususiy sektor mablag'lari – korxonalar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan homiylik mablag'lari va investitsiyalar.

O'quvchilar to'lovlari – kontrakt asosida o'qiydigan o'quvchilar tomonidan to'lanadigan mablag'lar.

Xalqaro grantlar va kreditlar – chet el tashkilotlari va xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ajratiladigan grant va kredit mablag'lari.

Qo'shimcha daromad manbalari – kasbiy ta'lim muassasalarining tijorat faoliyati, masalan, xizmatlar ko'rsatish, ilmiy-innovatsion loyihalar va ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan mablag'lar.

Moliyalashtirish usullari - kasbiy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish quyidagi asosiy usullar orqali amalga oshiriladi:

Budjet mablag'lari orqali moliyalashtirish - davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar orqali kasbiy ta'lim muassasalarining faoliyati qo'llab-quvvatlanadi. Bu usul ijtimoiy jihatdan muhim kasblar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashni rag'batlantirish uchun ishlatiladi.

Maqsadli grantlar va subsidiyalar - Ta'lim muassasalarining ma'lum bir yo'nalishda rivojlanishi uchun ajratiladigan mablag'lar bo'lib, ko'pincha innovatsion dasturlar va loyihalarni moliyalashtirishda ishlatiladi.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida moliyalashtirish - Ushbu usul xususiy sektorning kasbiy ta'limga investitsiya kiritishiga imkon yaratadi. Korxonalar va ta'lim muassasalari hamkorlik qilib, maxsus dasturlar (dual ta'lim va boshqalar)ni yo'lga qo'yishlari mumkin.

To'lov kontrakt asosida moliyalashtirish – O'quvchilarning kontrakt to'lovlari kasbiy ta'lim muassasalarining barqaror moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro moliyaviy institutlar va donor tashkilotlar orqali moliyalashtirish - Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratiladigan grant va kredit mablag'lari kasbiy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy-innovatsion va tadbirkorlik faoliyati orqali moliyalashtirish – kasbiy ta'lim muassasalari tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borish, startaplar yaratish va tijorat xizmatlari ko'rsatish orqali qo'shimcha daromad manbalariga ega bo'lishi mumkin.

Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi orqali moliyalashtirish – Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-apreldagi 245-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi. Nizom Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish, Jamg'arma faoliyatini boshqarish, uning mablag'larini taqsimlash, hisobi va hisobotini yuritish tartibini belgilaydi.

Xulosa. Kasbiy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimi barqaror va samarali bo'lishi uchun moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish zarur. Davlat budjeti mablag'lari bilan birga, xususiy sektor investitsiyalari va xalqaro grantlardan

samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Moliyalashtirishning turli usullaridan oqilona foydalanish kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirishda va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 03.09.1999 yil 3-sentyabrdagi 414-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-apreldagi 245-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida"gi nizom.
4. Malikov T.S. Moliya: O'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: "Iqtisod-moliya", nashriyoti, 2018 y. – 268 b.
5. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. Moliyaviy tizim: Zamonaviy talqin: o'quv uslubiy qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2016, - 116 b.
6. Qosimova. G Ijtimoiy soha: boshqarish va moliyalashtirish. Monografiya. Toshkent.: 2015. 173 bet.
7. Odilov F. //Ijtimoiy soha xarajatlarini byudjetdan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.// Biznes-ekspert jurnali, 2017-yil 4-son. -B. 3-5.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEK MATBUOTI TARIXIDAN

Mavlyanov Komiljon G'iyosovich,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqochisi

Annotatsiya: Maqola ikkinchi jahon urushi yillarida frontlarda chop etilgan o'zbek tilidagi front gazetalari va ular sahifalarida O'zbekiston xalqining fashistlar Germaniyasi hamda Yapon militarizmi ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasining qay darajada yoritilgani masalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek matbuoti, jahon urushi, front gazetalari, jurnallar, fashizm, natsizm, militarizm, g'alaba, sanoat, qishloq xo'jaligi.

Аннотация: В статье рассказывается о фронтовых газетах на узбекском языке, издававшихся на фронтах в годы Второй мировой войны, и о том, в какой степени на их страницах освещался вклад народа Узбекистана в победу над фашистской Германией и японским милитаризмом.

Ключевые слова: узбекская пресса, мировая война, фронтовые газеты, журналы, фашизм, нацизм, милитаризм, победа, промышленность, сельское хозяйство.

Abstract: The article discusses front-line newspapers published in the Uzbek language during the years of World War II and the extent to which they covered the contribution of the Uzbek people to the victory over fascist Germany and Japanese militarism on their pages.

Key words: Uzbek press, World War, Front newspapers, magazines, fascism, Nazism, militarism, victory, industry, agriculture.

O'zbekiston mustaqil davlat maqomiga ega bo'lgandan keyin tariximizni, ayniqsa, o'ta soxtalashtirib talqin etilgan sovet davri tarixini, xususan, ikkinchi jahon urushi yillari tarixini mafkuraviy qarashlardan holi tarzda o'rganish zaruriyati tug'ildi. Fashistlar Germaniyasini mavh etilishi, militaristik Yaponiyaning taslim etilishi, ikkinchi jahon urushida shonli g'alabaning qo'lga kiritilishida O'zbekiston xalqi, harbiylarining salmoqli hissasini, o'zbek jangchilarining frontda ko'rsatgan jasoratlarini, g'alaba yo'lida to'kilgan qon va yo'qotishlarni, urush yillarida front va front ortida xalqimiz ko'rsatgan mislsiz qahramonliklar tarixini xolisona, milliy istiqlool g'oyasi asosida maxsus tadqiq etish zaruriyati paydo bo'ldi. Afsuski ba'zi davrlarda ikkinchi jahon urushini bizning yurtimizdan olisda bo'lgan, O'zbekistonning bu urushga mutlaqo aloqasi bo'lmagan urush sifatida talqin qilishga urinishlar ham bo'ldi.

O'zbekiston xalqining ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki, ularning fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasini xolisona va adolat nuqtayi nazardan o'rganish tarixiy xotira hamda kelajak uchun ham muhimdir.

Ikkinchi jahon urushi XX asrda insoniyat

tarixida dunyo aholisi boshiga mislsiz talofat, ko'plab ma'naviy hamda moddiy yo'qotishlarga sabab bo'lgani tarixdan ma'lum. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu urush va unda o'zbekistonliklarning ishtiroki masalasiga to'xtalib shunday fikrlarni ilgari surgan:** *"Hech shubhasiz, bu dahshatli urush, butun insoniyat qatori bizning xalqimizga ham mislsiz kulfat va yo'qotishlar olib keldi. Ikkinchi jahon urushida minglab yurtdoshlarimiz Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi, minglab otalarimiz, bobolarimiz jangavor orden va medallar bilan mukofotlandilar. Xalqimiz front ortida fidokorona mehnat qilib, urush maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog', dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berdi. O'ta og'ir va mashaqqatli yillarda xalqimizning insonparvarlik va bag'rikenglik fazilatlarini yaqqol namoyon bo'ldi. El-yurtimiz mamlakatning urush bo'layotgan g'arbiy hududlaridan evakuatsiya qilingan turli millatga mansub 1 millionga yaqin bolalar, ayollar va keksalarga boshpana berib, bir burda nonini ular bilan baham ko'rdi.*

O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan zavodlarda keksalar, ayollar, o'smir bolalar tun-u kun mashaqqatli mehnat qilgani – haqiqiy fidoiylilik, qahramonlik namunasi desak, aslo xato bo'lmaydi.

Bunday misollar buyuk g'alaba biz uchun naqadar qimmatga tushgani, xalqimiz dunyoni fashizm balosidan xalos etishga qanday katta hissa qo'shganini yaqqol ko'rsatadi. Tarixning ana shunday beshafqat va suronli sinovlaridan yorug'yuz bilan, har tomonlama munosib o'tgan xalqimizga har qancha ta'zim qilsak, har qancha tasannolar aytsak arziydi, albatta"[1.396-397], deya bildirgan fikr mulohazalari o'zbek xalqining urushga qo'shgan hissasi va ishtiroki benihoya salmoqli ekanini ko'rsatadi.

G'alaba yo'lidagi xalqimizning mashaqqatli mehnati, o'zbek xalqining yuksak insonparvarligi, o'zbekistonliklarning urush jangohlaridagi jasoratlari bo'yicha birlamchi manbalar asosida yoritish bugungi kun tarixchilari oldidagi muhim dolzarb mavzular sirasiga kiradi. Darhaqiqat, urush yillarida O'zbekiston ommaviy axborot vositalari ham ommani front uchun, g'alaba uchun safarbar etishda, xalqni g'oyaviy – siyosiy jihatdan tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilgan edi. **O'sha damlarda O'zbekiston SSRda 200ga yaqin gazeta, shundan 124 tasi o'zbek tilida, 52 ta jurnal, shundan 19 tasi o'zbek tilida nashr etilgan edi. Gazetalarning bir gallik adadi 900 ming shundan 600 ming nusxasi o'zbek tilida chiqardi[2.487]. Gazeta va jurnallarning sahifalarida frontdagi vaziyat, respublika mehnat jamoalarining fidokorona mehnati, mehnat zafarlari yoritilar edi. 1942-yilning ikkinchi yarmida barcha frontlarda o'zbek, qozoq, tojik, gruzin, arman va boshqa sobiq Ittifoq xalqlari tillarida front gazetalar chiqarila boshlandi, jurnalist va poligrafiya kadrlari bilan ta'minlandi.**

Ikkinchi jahon urushi frontlarida nashr etilgan gazeta va jurnallarning asosiy muxbirlari esa jangohlarda qaxramonlik ko'rsatayotgan oddiy askar hamda ofitserlar bo'lib, ularning maktublari, maqolalari, qalb so'zlari gazeta va jurnallarning mazmunini boyitgan, ta'sirini kuchaytirib, o'quvchini hayajonga solgan.

Undan tashqari bu davrda O'zbekistondan bir guruh yozuvchi va jurnalistlari sovet armiyasi

siyosiy boshqarmalari ixtiyoriga yuborildi. Bulardan To'liqin Rustamov va Rasul Muhammadiy sovet armiyasi bosh boshqarmasida inspektor, Jalolxon Azizxonov, Rustam Abduraxmonov, Adham Rahmat, Sharif Bo'tayev, Muhamadjon Murodov, Yo'lchi Bilolov va boshqalar front gazetalarida muharrir o'rinbosarlari bo'lib xizmat qildilar. Nazir Safarov, Mirzakalon Ismoilov, Zinnat Fatxullin, Meli Jo'ra, To'g'on Ernazarov, Sulton Jo'ra va boshqalar harbiy muxbirlar sifatida va jurnalistikaning boshqa jangovor sohalarida faoliyat ko'rsatdilar.

1942-yilning oktabr oyida VKP(b) Markaziy Komitetining ko'rsatmasiga muvofiq, Qizil Armiyaning Bosh siyosiy Boshqarmasida tajribali jurnalistlar, yozuvchilardan milliy matbuot gruppasi tashkil etildi, unga frontlarda SSSR tarkibidagi xalqlar tillarida chiqarilayotgan gazetalar redaksiyalariga har tomonlama yordam berib turish va Moskvaning o'zida – Bosh Siyosiy boshqarmada o'zbek, qozoq, tojik, gruzin, arman, qirg'iz, tatar, ozarbayjon tillarida kitoblar, operativ bukletlar va "Qizil Armiya agitatorining bloknoti" oylik jurnallarini chiqarish vazifasi yuklandi[7.4].

Shu bilan frontda jang qilayotgan jangchilar ruhiyatini ko'tarish uchun matbuotning asosiy turlari bilan ta'minlangandi. Bundan tashqari ikkinchi jahon urushi yillarida urush frontlarida ham o'zbek tilida 14 ta front va 2 ta brigada gazetalar ham chop etib borilganki, ular sahifalarida e'lon qilingan maqola va xabarlar ham urush yillari tarixini yoritishda alohida o'rin egallaydi. Jumladan, "Vatan uchun", "Suvorovchi", "Sovet jangchisi", "Qizil askar haqiqati", "Vatan sharafiga uchun", "Dushmanga qarshi olg'a", "Front haqiqati", "G'alaba bayrog'i", "Qizil armiya", "Bong" kabi gazetalar aynan ikkinchi jahon urushi frontlarida nashr etilgan[2.164].

Bugunga kelib ikkinchi jahon urushi yillari tarixini chuqur tahlil qilishda, front gazetalar sahifalarida e'lon qilib borilgan maqola, xabarlar hamada ma'lumotlar muhim birlamchi manba sanaladi. Bu gazetalarining jamlanmasi esa Andijon davlat universiteti professori R.T.Shamsutdinov tomonidan 2017-, 2020-yillarda "Akademnashr" nashriyotida nashr etilgan "Ikkinchi jahon urushi va front gazetalar" nomi ostidagi besh tomli kitoblarda e'lon qilindi[4].

Bu kitob sahifalarida o'rin olgan gazetalar sahifalarida bosilgan ma'lumotlar, o'zbekistonliklarning ikkinchi jahon urushi yillarida

frontda hamda front ortidagi fidokorona kurashi tarixini hali to'liq ochib berilmagan qirralarini yoritishda, O'zbekiston tarixining urush davri tarixini yoritilishidagi kemtik jihatlarini to'ldirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

Ikkinchi jahon urushi yillarida muntazam ravishda nashr etilgan front gazetalar sahifalarida namanganliklarning harbiy jasoratlari haqidagi xilma xil ocherklar, maqolalar, tezislar, hikoyalar va esdaliklar e'lon qilingan. Urushdagi Namangan farzandlari ishtirok etgan jang sahnalarini haqqoniy tarzda tasvirlangan. Ikkinchi jahon urushidagi siyosiy va madaniy hayotga doir ma'lumotlar esa o'sha davr nuqtayi nazari bilan yoritilgan. Front gazetalaridagi turli xil maqola, ocherk, statistik ma'lumotlar, xabarlar, ilmiy tadqiqotlar va boshqa materiallardan oqilona va tanqidiy foydalanish Namanganning ikkinchi jahon urushidagi tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

“Ikkinchi jahon urushi va front gazetalar” kitobining birinchi jildida “Vatan uchun” gazetasi 1942-1945-yillardagi 28 ta soni, “Suvorovchi” gazetasi 1944-yildagi 36 ta soni, “Sovet jangchisi” gazetasi 1945-yildagi 30 ta soni hamda “Qizil askar haqiqati” gazetasi 1944-1945-yillardagi 64 ta soni berilgan[5].

“Ikkinchi jahon urushi va front gazetalar” kitobi ikkinchi jildida “Vatan sharafiga uchun” gazetasi 1944-1945-yillardagi 88 ta soni, “Dushmanga qarshi olg'a” gazetasi 1944-yildagi 64 ta soni, “Front haqiqati” gazetasi 1944-yildagi 36 ta soni hamda “G'alaba bayrog'i” gazetasi 1945-yildagi 29 ta soni berilgan.

Ikkinchi jahon urushi frontlarida o'zbek tilida chiqqan gazetalar front va front ortidagi O'zbekiston xalqining fidokorona mehnati va jasorati, buyuk g'alabaga qo'shgan ulkan hissasini

to'la qonli yoritishda noyob manbalardan biridir. Gazetalarda e'lon qilingan materiallar asosida yaratilgan besh jildlik ushbu kitob sahifalaridagi ma'lumotlar orqali keng kitobxonlar, O'zbekistonlik jangchilarning ikkinchi jahon urushi frontlarida ko'rsatgan jasoratlari va xalqimizning front orqasida turib o'zining fidokorona mehnati bilan umumiy dushman ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasini yanada teran anglash hamda urush daxshatlari haqidagi bilimlarini yanada boyitish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

1942-yil fevralida ilk bor gruzin, arman va ozarbayjon tillarida, keyinchalik boshqa tillarda ham front gazetalarini chiqarish yo'lga qo'yiladi[4.10].

O'rta Osiyodan urushga safarbar qilingan yigitlarning aksar qismi G'arbiy frontga yuborilganligi uchun shu front qoshida o'zbek, qozoq, tojik va turkman tillarida gazetalar nashr etila boshlandi, ular haftada 2-marta, standart qog'ozning yarim formatida, 4 sahifali bo'lib chiqadi. Urush yillarida milliy tillarda jami 14 ta front, 2 ta brigada gazetalar chiqib, ularning soni 100 dan ortiq bo'lgan[5.21]. Ushbu front gazetalar orasida o'zbek tilida yuqorida qayd etilgan gazetalar, jangchilarning ruhiyatini ko'tarish maqsadida muntazam chop etilib borilgan.

Xullas, ikkinchi jahon urushi frontlarida chop etilgan ushbu gazetalar O'zbekiston tarixining sovetlar davri tarixini, ayniqsa, ikkinchi jahon urushi yillari xususan, urushning sobiq ittifoq hududiga ko'chgan 1941–1945-yillardagi tarixini o'rganishda, o'zbekistonliklarning g'alabaga qo'shgan munosib hissasini haqqoniy yoritishda, urush jangohlarida shahid bo'lgan, noma'lum ketgan Vatandoshlarimiz nomlarini aniqlashda muhim manbalar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1 jild. – Toshkent O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –Toshkent: Sharq, 2000.
3. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). –Toshkent Sharq, 2009. –B.164.
4. Shamsutdinov R. Ikkinchi jahon urushi va front gazetalar. 1-2-3-kitoblar.
5. Shamsutdinov R. Ikkinchi jahon urushi va front gazetalar. Birinchi kitob. –Toshkent: Akademnashr, 2017.
6. Ernazarov T., Akbarov A. Истории печати Узбекистана (1925-1952 гг.). –Tashkent, 1972.
7. Jangohlarda toblangan qalam. Ulug' Vatan urushi harbiy muxbirlarining esdaliklari (To'plovchi: To'liqin Rustamov). –Toshkent: O'zbekiston, 1986

KASBIY TA'LIM ISLOHOTLARI

Проблемы подготовки мобильных и конкурентоспособных кадров

2

P.X.Джурпеев

O'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda kasb-hunar ta'limi tizimini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish

6

N.B.Yusupov

Kasbiy standartlarni ishlab chiqishda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi

11

A.A.Allabergenov

Механизмы развития управленческой компетентности специализированных кадров высших образовательных учреждений

17

Д.А.Мустафоева

KASBIY KOMPETENSIYALAR

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda texnik kompetentlikni rivojlantirish asoslari

23

N.A.Xalikova

Kompetensiyalarni mobillashtirish asosida professional ta'lim talabalarini o'qitish amaliyotini samarali tashkil etish metodikasi

27

A.K.Jamolov

Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlashda kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasining ahamiyati

34

O.I.Qarshiyev, M.T.Mamasharipov

Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida o'quv jarayonini 3D texnologiyasining moda dasturlarida samarali tashkil etish va rivojlantirish omillari

37

A.X.G'ofurova, S.S.G'ofurova

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Kasbiy-huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari

40

A.B.Axmedov

Mediakoherentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

44

A.R.Hafizov

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni innovatsion yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolari

49

D.B.Atajanova

Professional ta'lim o'qituvchilari va o'quvchilari uchun sun'iy intellektidan to'g'ri foydalanish usullari

52

F.F.Sharopov

O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida iqtisodiy kompetensiyalarni rivojlantirish shartlari

57

Y.B.Mingbayeva

Kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy malakalarini rivojlantirishda ingliz tilining ahamiyati

62

D.Sh.Xolxodjayeva

Ta'lim transformatsiyasi jarayonida raqamli baholash tizimlarining pedagogik va didaktik xususiyatlari

67

Z.T.Maxkamova

PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarini malakasini oshirishda dual ta'lim mexanizmlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish

73

A.Z.G'aniyeva

Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning amaliyotga yo'naltirilishining pedagogik xususiyatlari

78

A.A.Sharipov

Mehnat bozori talablari asosida differensial yondashuv orqali mutaxassislarni kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari

83

Z.O.Gafurova

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda xorijiy tajribalar

88

H.T.Jalilova

Raqamli texnologiyalar asosida sog'lom turmush tarzi va kasbiy faoliyat uyg'unligini ta'minlash

92

B.X.Ravshanov

Kasbiy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish usullari

97

Y.M.O'rinov

TARIX

Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek matbuoti tarixidan

101

K.G'Mavlyanov

O'ZBEKISTONDA

– PROFESSIONAL TA'LIM –

2025 - yil, 1-son

Tahrir hay'ati raisi

Kongratbay Sharipov

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari

Shaxrux Daliyev

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Bosh muharrir

Zayniddin Xudayberdiyev

Professional ta'limni rivojlantirish
instituti direktori

Tahrir kengashi a'zolari:

Risbay Djurayev

Qalandar Abdurahmonov

Valeriy Golubovskiy

Qahramon Olimov

Narzulla Muslimov

Ekaterina Artamonova

Sanobar Ashurova

Marina Urazova

Muassis:

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Professional ta'limni
rivojlantirish instituti**

Manzil:

**Toshkent shahri, Olmazor tumani,
2-Chimboy ko'chasi, 96-uy.**

Telefon: 71-246-90-37

E-mail: pedagoginnovatsiyalar@edu.uz

Jurnal O'zbekistondagi professional
ta'lim muassasalariga tarqatiladi.

Mas'ul muharrir:

Nodir Yusupov

Ijodiy jamoa:

Husan Nishonov

Doniyor Teshayev

Shavkat Shadiyev

Dizayner va sahifalovchi

Tohir Xudayberganov

Mazkur jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi 2022-yil 24-aprel kuni №1591 raqamli guvohnoma bilan ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan hamda O'zbekiston Milliy kutubxonasidan 2181-38-41 raqamli ISSN olingan bo'lib, obuna indeksi: 1396. Shuningdek, "O'zbekistonda professional ta'lim" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 29-avgustdagi 342/2-son qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

HURMATLI

JURNALXONLAR!

"O'zbekistonda professional ta'lim"
jurnali tahririyatisizni o'zaro
hamkorlikka taklif etadi.

Jurnalimiz sahifalarida
professional ta'lim tizimini
rivojlantirishga, o'quv jarayonini
takomillashtirishga qaratilgan
ilmiy-uslubiy, tahliliy maqolalar
nashr etiladi.

Professional ta'limda qo'llanilayotgan
innovatsion texnologiyalar, kasb-hunar
o'rganishga oid metodik tavsiyalar
haqida, shuningdek, joriy etilgan
ilg'or tajribalar hamda tizimda
amalga oshirilayotgan ibratli ishlar va
yangiliklar haqida o'z fikrlaringizni
biz bilan o'rtoqlashishingiz mumkin.
Hurmatli professional ta'lim
fidoyilari, ustozlar!

Tahririyatimiz siz bilan hamkorlik
qilishdan juda mamnun.
Maqolalaringizni quyidagi manzillar
orqali bizga yuboring,
tajribalaringizni hamkasblaringiz
bilan bo'lishing!

Telefon: +99871-227-19-24

Mobil: +99898-210-88-58

E-mail: pedagoginnovatsiyalar@edu.uz

**"Innovatsion rivojlanish" nashriyot-
matbaa uyi**

Manzil:

**Toshkent shahri, Olmazor tumani,
2-Chimboy ko'chasi, 96-uy.**

Obuna indeksi-1396. Buyurtma-№0104

Qog'oz bichimi A-4 formatda

Hajmi-13,5 bosma taboq,
100-nusxada nashr qilindi.

2025-yil 28-aprelda nashrga ruxsat etildi.

edu.profedu.uz

Metodik ta'minlash platformasi

Platformaning asosiy sahifalari:

O'quv-me'yoriy hujjatlar;
Darsliklar;
O'quv qo'llanmalar;
Qo'shimcha adabiyotlar;
O'qitish materiallar to'plami;
Qisqa muddatli kurslar;
Metodik tavsiyalar;
Metodik yo'riqnomalar;
Video resurslar;
Infografikalar.

Ushbu axborot tizimi professional ta'lim muassasalariga onlayn metodik ta'minotni amalga oshiradi



prof-talim.edu.uz

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining akademik litsey va professional ta'lim muassasalari platformasi



cgtvet.uz

Kattalarga ta'lim berish va o'qitish xalqaro dasturi bo'yicha onlayn malaka oshirish platformasi



help.edu.uz

Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimiga oid eng ko'p beriladigan savollarga javoblar portali



edu.profedu.uz

Professional ta'lim muassasalari rahbar va pedagog xodimlarining faoliyatini metodik ta'minlash platformasi



my.moqt.uz

Professional ta'limning masofaviy malaka oshirish va qayta tayyorlash platformasi



vacancy.edu.uz

Oliy va professional ta'lim muassasalarida mavjud bo'lgan ish o'rinlariga hujjatlarni onlayn yuborish platformasi



e-texnikum.uz

Professional ta'lim muassasalarida o'quv jarayonni raqamlashtirish platformasi



PROFESSIONAL TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH
INSTITUTI

